

QILIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XATAMOV ZAFARJON NAZIRJONOVICH

**SPORT VA HARAKATLI O'YINLAR
O'QITISH METODIKASI**

(Sport turlari tarix)

O'quv qo'llanma

QO'QON – 2020

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XATAMOV ZAFARJON NAZIRJONOVICH

SPORT VA HARAKATLI O‘YINLAR
O‘QITISH METODIKASI

(Sport turlari tarix)

O‘quv qo‘llanma

QO‘QON – 2020

Muallif: Xatamov Z.N. Qo'qon davlat pedagogika instituti Masofavi ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Taqrizchilar: - QDPI jismoniy madaniyat kafedrsi dotsenti pfn,A.A.Umaron
FarDU jismoniy madaniyat kefedrası professor pfd,A.A.Abdullayev

Annotatsiya

Sport va harakatli o'yinlar metodikasi bo'yicha pedagog-murabbiylarni tayyorlashda yetakchi va asosiy ixtisoslik fani sifatida o'rgatiladi. Ushbu o'quv qo'llanma Sport o'yinlari jumladan badminton, basketbol, beyzbol, chim ustida xokkey, futbol, futzal, gandbol, kriket, plyaj futboli, plyaj voleyboli, regbi, stol tennisi, katta tennis, voleybol sport turlarining kelib chiqishi, qonun qoidalari, maydon o'lchamlari, uskuna va jixozlar va hakamlilik amalyoti bo'yicha bilimlar, amaliy harakat hamda ko'nikma va malakalari batafsil yoritilgan.

O'quv-qo'llanmaning maqsadi - talabalarni o'quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy ishlari hamda ilmiy-pedagogik mutaxassislarni tayyoriashga, jismoniy tayyorgarligini oshirish va rivojlantirish vositalari, sport mashg'ulotlari asoslari bo'yicha, shuningdek, nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Аннотации

Он преподается как ведущая и основная специальность в подготовке учителей и тренеров по методам спортивных и двигательных игр. В этом руководстве рассматриваются истоки таких видов спорта, как бадминтон, баскетбол, бейсбол, хоккей на траве, футбол, фutsal, гандбол, крикет, пляжный футбол, пляжный волейбол, регби, настольный теннис, теннис, волейбол, подробно описаны знания норм права, размеров поля, оборудования и сооружений, а также практики арбитража, практических действий, а также навыков и компетенций.

Целью учебника является ознакомление студентов с учебно-методической работой, научно-методической работой и подготовкой научно-педагогических специалистов, средствами повышения и развития физической подготовленности, основами спорта, а также теоретическими и практическими знаниями, помогает приспособиться.

Annotation

It is taught as a leading and main specialty in the training of teachers and coaches on the methods of sports and movement games. This tutorial covers the origins of sports such as badminton, basketball, baseball, field hockey, football, futsal, handball, cricket, beach soccer, beach volleyball, rugby, table tennis, tennis, volleyball, knowledge of the rules of law, field dimensions, equipment and fixtures, and arbitration practice, practical action, and skills and competencies are detailed.

The purpose of the textbook is to provide students with educational and methodological, scientific and methodological work and training of scientific and pedagogical specialists, tools for improving and developing physical fitness, the basics of sports, as well as theoretical and practical knowledge, helps to adjust.

5112000-Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

KIRISH

Jismoniy madaniyat butun jahon xalqlarining umumiy madaniyati mazmunidan katta o'rin egallamoqda. Fanni o'qitish, o'rganish va ilmiy tadqiqot olib borish bugunning dolzarb muammolaridan biri bo'lmoqda.

Jahon xalqlari tarixi, shuningdek, O'zbekiston xalqlari tarixida jismoniy tarbiya va sport tarixining ham o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy o'ring'oyat kattadir. Jismoniy tarbiya harakatida mutaxassis kadrlarga bo'lgan talablar va ehtiyojlar ijtimoiy turmush hamda mehnatda, ayniqsa, Xalqaro sport harakatida doimiy ishtirok etishi muhim ahamiyat ega. Shuni inobarga olgan holda jismoniy tarbiya, sport, xalq milliy o'yinlari va sayohatlar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Sog'lom avlod davlat dasturi, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus test - meyorlarini haYotga singdirish, bolalar sportini rivojlantirish, o'quvchi Yoshlarning «Umid nihollari», «Barkamol avlod», sport o'yinlari hamda talabalar «Universiada»larini tashkil qilishda asosiy maqsad buyuk kelajakning har tomonlama barkamol avlodlarini tarbiyalashdir. Bu jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning zimmasiga g'oyat katta sharaflimas'uliyatni yuklamoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassisli kadrlar tayyorlash va ularning nazariy bilim hamda amaliy malakalarini oshirishda «Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi» fani asosiy mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti (O'zDJT va SU) va Respublika oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari, pedagogika kasb-hunar kollejlarning jismoniy tarbiya bo'limlari, Olimpiya o'rinbosarlari kasb-hunar kollejlari Davlat ta'lim standartlari asosida « Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi» fan sifatida o'qitib kelinmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari mazmunida jismoniy madaniyat harakati bilan bog'liq barcha tadbirlar o'z ifodasini topmoqda. Bunda « Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi» fanidan maqsadli foydalanish amalga oshirilmoqda.

«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari asosida maktabgacha ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, aholi istiqomat va dam olish joylari, ayniqsa, o'quvchi yoshlar va talabalarning yozgi dam olish, hamda sport-sog'lomlashtirish oromgohlarida ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga keng o'rin berilmoqda. Aholining salomatligini yaxshilash, barkamol avlodning ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslarini singdirish muhim vazifalardan biri qilib qo'yilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportning mohiyatini bunday tushuntirish, ularni targ'ibot qilish, barcha sport turlari tarixi, xalq milliy o'yinlari tarixi bilan tanishtirish muhim ahamiyatga egadir. Bu yo'lda ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan madaniy-tarbiyaviy va ilmiy meroslar mazmunidagi jismoniy tarbiya hamda sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi asosida ta'lim-tarbiya berishni davr taqozo etmoqda.

Bu fan "Sport o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" jismoniy tarbiya tarixi, pedagogika tarixi, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda va rivojlanmoqda.

Qo'llanmada O'zbekiston Oliy o'quv yurtlari Jismoniy madaniyat fakulteti darslaridagi Sport o'yinlar va uni o'qitish metodikasi tarixi, rivojlanishi, qonun qoidalari, maydon o'lchamlari va xakamlik qilish to'g'risidagi mavzular o'rin olgan. Jumladan Badminton, basketbol, beyzbol, chim ustida xokkey, futbol, futzal, gandbol, kriket, plyaj futboli, plyaj voleyboli, regbi, stol tennisi, katta tennis, voleybol sport turlari o'rin olgan.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug'ullanish o'quvchi Yoshlarning kundalik ehtiyojiga aylanmog'i lozim, shu bilan birga u o'quvchi Yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, ularni barkamol inson bo'lib etishishga, qonun buzarlilik va boshqa salbiy illatlardan xalos etishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi

O'rta maktab, litsey va oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarida sport turlar alohida joy egallagan. Qo'llanmada yuqorida keltirilgan sport turlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, o'zbekistda ushbu sport turlarining rivojlanishi, maydon o'lchamlari, o'yin qoidalari va hakamlik amalyoti haqida kerakli ma'lumotlarni berishga harakat

qildik.

Mazkur o'quv qo'llanma maktab, litsey hamda jismoniy tarbiya fakultetlarida ta'lim olayotgan talabalar hamda mutaxassislar uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlarda sport o'yinlari bo'yicha zamonaviy darajada yoritilgan ilmiy-metodik ma'lumotlar hamda Internet tarmog'i materiallaridan keng foydalanildi.

I-BOB BADMINTON

BADMINTONNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Badminton insoniyat tamaddunining eng qadimiy o'yinlaridan biridir. Uning kelib chiqishi borasida ko'plab afsonalar mavjud. Qadimgi Yunoniston, Yaponiya, Hindiston va hatto Afrika xalqlarining rivoyatlarida bundan ikki ming yillar avval kattalar va bolalar volan (badminton koptogi) o'ynaganliklari qayd etilgan. "Uchuvchi pat" deb nomlangan qadimiy sport o'yini Xitoyda eramizdan ming yil oldin ham ma'lum bo'lgan. U Yaponiyada "oyabane" deb atalgan hamda bir nechta g'oz pati va quritilgan sakura mevasidan tayyorlangan volanni yog'och raketkalarda oshirib tashlashga asoslangan. V.Gyugo va I.F.Shillerlarning asarlaridan Yevropada XVI asrda o'ynalgan volan o'yini haqida bilib olish mumkin. Fransiyada bunday o'yin "je-de-pom" (olma bilan o'ynash) deb nomlangan. O'rta asr ingliz gravyuralarida bir-birlariga volanni oshirayotgan dehqonlar tasvirlangan. XVIII asrga oid rasmlar Rossiyada ham insonlar o'sha paytda shunga o'xshash o'yinni o'ynaganlaridan dalolat beradi. Gavriil Derjavin ham patli koptok haqida Yozib qoldirgan.



1650-yilda Shvetsiya qirolichasi Kristina Stokgolmdagi Royal Palas (Qirollik saroyi) yaqinida saroy ayonlari va xorijiy mehmonlar bilan "patli

koptok” o‘ynash uchun maxsus kort qurdiradi. Mazkur kort Shvetsiya poytaxtida hanuzgacha saqlanib qolgan hamda bugungi kunda cherkov mulki hisoblanadi. XIX asrda Angliyada gersog Beford xonadonida volan o‘yini ayniqsa juda ommalashadi. Gersog badminton Assotsiatsiyasining homiysi boigan. Bugungi kunda u egalik qilgan Front Xollda ko‘hna raketka va volanlarning ajoyib kolleksiyasi saqlanadi. 1860-yilda Isaak Sprat badminton haqida kitob yozdi va unda ushbu o‘yinning ilk qoidalarini tavsiflab berdi.

Zamonaviy badmintonning Vatani Hindiston hisoblanadi. U XIX asrda Hindistonda keng ommalashgan va ayrim manbalarga ko‘ra - “pune”, boshqalarida aytilishicha —“roopa” deb atalgan o‘yindan kelib chiqqan. O‘sha davrda Hindistonda xizmat qilgan ingliz zobitlari bu o‘ymni katta qiziqish bilan o‘ynaganlar. 1872-yilda Vatanlariga qaytgach, ular mazkur qiziqarli o‘yinni Glochestershir yaqinidagi Badminton yer-mulkida namoyish etishadi. Aynan shu yil Angliyada mana shu yer-mulk nomidan kelib chiqib “badminton” deb nom berilgan o‘yinning “tug‘ilgan yili” hisoblanadi. 1875- yilda zobitlarning “Folkstaun” nomli badminton klubiga asos solinadi. Assotsiatsiyaning ilk prezidenti polkovnik Dolbi bo‘lib, u “pune” - “roopa” o‘yinlari qoidalari asosida badmintonning yangi qoidalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Ana shu qoidalarning ayrimlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Asta-sekin Angliyada badminton klublari yuzaga kela boshlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘sha davrda turli hududlarda o‘lchami har xil bo‘lgan maydonlarda o‘ynashgan. Gvilforddagi kort ayniqsa mashhur bo‘lgan. Aynan mana shu kortning o‘lchamlari (44x20 fut yoki 13,4012x6,096 m) 1887-yilda Badminton klubi tomonidan nashr etilgan o‘yin qoidalariga kiritiladi. 1898-yilda badminton bo‘yicha ilk rasmiy turnir bo‘lib o‘tadi. 1899-yil 4-aprelda Londonda birinchi marta Angliya chempionati o‘tkaziladi. Keyinchalik Angliyada chempionatlar ommalashadi, badminton klublari soni ham ortib, badminton o‘yini Birlashgan Qirollik va butun Yevropada keng ommalashib boradi. Yangi sport o‘yini tez ommalashib, o‘z navbatida, volan ishlab chiqarish ham rivojlanadi. 1898-yilda volan ishlab chiqarish bo‘yicha ilk patentni Enn Jekson xonim oladi.

Badminton nafaqat Angliya, balki uning ko'pdan ko'p mustamlakalarida ham keng tarqaladi. Shu bois, 1934-yil 5-iyulda Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF)ga asos solgan mamlakatlarning aksariyati Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakalari hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib mazkur federatsiyaga 100 dan ortiq mamlakat a'zo. Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF) turli musobaqalar o'tkazib keladi. Ular orasida erkaklar milliy terma jamoalari o'rtasida o'tkaziladigan Tomas kubogi (IBFning birinchi prezidenti nomi bilan atalgan), ayoliar terma jamoalari o'rtasida bo'lib o'tadigan Uber kubogi (IBFning mashhur va faol vakilasi nomiga qo'yilgan) musobaqalari eng yiriklari hisoblanadi.

Tomas kubogiga 1948-yilda asos solingan bo'tib, u har uch yilda bir marta o'tkaziladi. Saralash bosqichi to'rtta hududda: Amerika, Avstraliya-Osiyo, Osiyo va Yevropa mintaqalarida bo'lib o'tadi. Mintaqaviy musobaqalar g'oliblari kubok sohibligiga nomzodni aniqlash uchun o'tkaziladigan asosiy bosqichda kuch sinashadilar. Asosiy bosqich g'olibi finalda uch yil oidingi musobaqada kubokni qoiga kiritgan jamoa bilan ro'baro' keladi. Uber kubogi bahslari esa 1956-yildan beri uch yilda bir marta o'tkazib kelinmoqda.

1968-yildan boshlab ikki yilda bir marta Yevropa shaxsiy birinchiligi, 1972-yildan esa qit'aning jamoaviy chempionati o'tkazilmoqda. Jamoaviy birinchilikda milliy terma jamoalar beshtadan o'yin kuzatishadi, ya'ni: erkaklar yakkaligi, ayollar yakkaligi, erkakligi juftligi, ayollar juftligi, aralash juftlik(mikst). Bulardan tashqari, xalqaro federatsiya bir qator rasmiy shaxsiy tumirlami ham o'tkazib keladi. Ular orasida yaqin-yaqinlargacha Angliya ochiq chempionati eng mashhurlaridan biri bo'lgan va u norasmiy jahon chempionati hisoblangan. Angliya ochiq chempionatiga 1899-yilda asos solingan. Ilk rasmiy jahon chempionati 1977-yil Shvetsiyaning Malme shahrida bo'lib o'tgan.

1992-yilda badminton olimpiada o'yinlari oilasiga qabul qilinadi.

Badmintonning mustaqillik davrigacha rivojlanishi 1957-yil sobiq "Ittifoq" badmintonining "tavallud topgan" kuni deb e'tirof etilishi mumkin. Shu kundan boshlab badminton Moskva va Leningrad hamda ayrim "Ittifoqdosh"

respublikalar bo'ylab ommaviylasha boshladi. 1962-yil bir qator respublikalar (Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston), shu jumladan, Moskva va Leningrad shaharlari terma jamoalari o'rtasida norasmiy musobaqalar tashkil etildi. O'zbekiston terma jamoasi 1963-yilda ilk bor o'tkazilgan sobiq "Ittifoq" chempionatida ishtirok etib, 14 jamoa ichidan 9~chi o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi. Ana shu yillardan boshlab badminton yurtimizda, ayniqsa, Toshkent, Farg'ona, Andijon, Navoiy va Angren shaharlari da jadal rivojlanib, ommalashib bordi.

1982-yilda Toshkentda badminton bo'yicha sobiq "Ittifoq" chempionatining shaxsiy-jamoa musobaqalari o'tkazildi. O'zbekiston terma jamoasi tarkibida Bilol Agzamov,. Grigoriy Klimberg (Toshkent sh.), Aleksandr Tranevich (Angren), Nuzet Kurtumetov (Angren), Elena Lizupova (Toshkent sh.) lar ishtirok etishdi va munosib o'yin ko'rsatishdi. Toshkent shahar terma jamoasi o'sha vaqtda V.A.Tkachenko, Angren terma jamoasi esa I.P.Derjak kabi trenerlar boshchiligida shug'ullanishgan edi.

1963-yildan boshlab O'zbekistonda badminton bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar (championatlar) va shu sport turiga tegishli ayrim ma'lumotlarni keltirish mumkin. Jumladan, 1963- yilda Adabiyot institutida badminton bo'yicha O'zbekiston saralov chempionati o'tkazildi va bunda Mitxat Ibragimov chempion bo'ldi.

1970-yilda badminton O'zbekiston Davlat sport qo'mitasining musobaqalar taqvim rejasiga kiritildi va bosh trenerlavozimiga "Zenit" KSJda faoliyat yurituvchi Leonid Klimberg tayinlandi.

1975-yilda O'zbekistonda turli KSJlarda ("Zenit", "Profsoyuz", "Mehnat", "Spartak", "Morji", "Lokomotiv", "Burevegnik") mehnat qiluvchi trenerlar soni 10 nafardan ortdi.

1979-yilda badmintonga ixtisoslashgan boiimlar Angren, Navoiy, Andijon, Namangan, Samarqand va Guliston shaharlarida o'z ish faoliyatini boshladi.

1980-1990-yillarda bir qator respublika va sobiq “Ittifoq” miqqiyosidagi “kubok”, turnir, chempionatlar o'tkazildi.

1991-yilda badminton bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi barcha turdagi musobaqalarda, shu jumladan, xalqaro tumirlarda ishtirok eta boshladi.

1992 va 1995-yillarda Toshkentda ilk bor xalqaro tumirlar tashkil etildi.

1998-yilda badminton bo'yicha O'zbekiston Respublikasi o'smirlar terma jamoasi Osiyo o'smirlar chempionatida ishtirok etdi.

1999-yilda O'zbekiston Respublikasi milliy terma jamoasi Kuala-Lumpur (Malayziya)da o'tkazilgan Osiyo chempionatida ishtirok etib, kvalifikatsion turnir bosqichidan yuqoriga o'ta olmadi.

2004-yilgacha badminton musobaqalari faqat O'zbekiston hududlarida o'tkazildi. Faqatgina 2003-yilda O'zbekiston terma jamoasi Qozog'istonda o'tkazilgan xalqaro turnirda ishtirok etdi.

Ushbu turnirda vakillarimiz Oleg Savatyugin va Alisher Zoxidov sovrindor bo'lishdi. Faxriylarimiz terma jamoa tarkibida bir oltin va ikkita kumush medallarini olishga sazovor bo'lishdi.

Mustaqillik davrigacha O'zbekistonda badminton bilan 450 iping kishi shug'ullangan, 19 nafar trener va 27 nafar hakamlar faoliyat ko'rsatishgan.

O'zbekistonda 1993-yilda Valeriy Aleksandrovich Tkachenko sport ustasi unvoniga sazovor bo'ldi.

1984-yilda toshkentlik Alisher Zoxidov “Ittifoq” reytingida -19-chi, Sergey Starchinov - 23-chi, Yelena Lizunova - 22-chi, Galina Kozina - 27-chi o'rinni egallagan.

1986-yilda vakillarimiz Andrey Bitiyev yakka toifada Zelinogradda o'tkaziigan “Ittifoq” o'smirlar birinchiligida g'olib bo'lishga muvaffaq bo'ldi. Andrey Bitiyev va Anatoliy Galchenko juftlik toifasida g'oliblikni qo'lga kiritdilar. Yuliya Yakobson (Seytlin) va Galina Kozina ayoliarning juftlik toifasida ikkinchi o'rin sohibi bo'lishdi, Irina Galchenko va Marina Shutovalar esa uchinchi o'rin bilan kifoyalanishdi.

1991-yilda o'tkazilgan "Ittifoq" xalqlari Spartakiadisida O'zbekiston terma jamoasi 6-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Badminton o'yin maydoni va raketka


Butun maydon to'r bilan ikki qismga (o'yin maydonlariga) ajratiladi. Har bir qisht (o'yin maydoni) quyidagi elementlarga ega bo'ladi:

bo'yiga:oldingi hudud- to'r va volanni oshirishning oldingi chizig'i orasidagi joy; o'rta hudud - volanni oshirishning oldingi chizig'i bilan maydonchaning qolgan qismini ikkiga bo'lib turadigan shartli chiziq orasidagi joy; orqa hudud - maydonchaning orqa chizig'igacha qolgan joy.

Eniga: maydoncha yarmining chap va o'ng qismlari - o'yinchi to'rga qarab turganda maydoncha yarmining o'rta chizig'idan chap va o'ng tomondagi joy;

Badminton maydonchalari yakkalik, juftlik o'yinlari uchun mo'ljallangan hamda kombinatsiyalangan bo'ladi. Aksariyat hollarda o'yin uchun kombinatsiyalangan maydon tanlanadi. Chunki unda ham yakkalik, ham juftlik bahslarini kuzatish mumkin.

Izoh; badminton maydonchasidagi barcha chiziqlar 40 mm qalinlikda chiziladi. To'r. Badminton maydonchasi o'rtasidan uni teng ikkiga bo'lib turadigan, eni 760 mm boigan to'r tortiladi. To'r maydonchaning ikki tomonidagi maxsus ustunchalarga tortib bog'lanadi. To'rning tepa qismi kengligi 75 mm boigan oq lenta bilan tamg'alangan bo'ladi. Ushbu lenta yetarlicha o'ichamdagi va mustahkamlikdagi trosga qotirilib, ikki tomondagi ustunlar bilan bir xil balandlikda bo'ishi kerak. Ustunlar bilan to'ming oxiri orasida tirqishlar bo'imasligi kerak.




Zarurat boisa, to'ring chetlari ustunga bogiab chiqiladi. Poldan to'ming yuqori qismigacha bo'lgan balandlik: ustunlar oldida - 1550 mm (juftlik o'yinlar uchun yon chiziqlardan balandlik), markazda esa - 1524 mm bo'lishi zarur. To'r teshiklarining o'lchami esa 15 mm dan 20 mm gacha bo'ladi. Odatda, to'r to'q rangli bo'ladi. Chunki shunda Yorqin rangli volan ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Badminton o'yinining asosiy qurollari raketka va volan.

Raketkalar. Raketkaning muhim texnik elementini o'yin Yoki zarba qashqasi tashkil qiladi. Kallagi klassik shaklda bo'lgan raketkalarda - u raketka kallagining simli yuzasi markazidagi doirasimon joy bo'lib, tuzilishidagi o'ziga xosliklarga ko'ra, volanga eng samarali zarbalar berish imkonini yaratadi. Kallagi izometrik shaklda bo'lgan raketkalarda o'yin qashqasi biroz kattaroq

bo'lib, klassik raketka bilan solishtirganda, u raketka kallagi gardishining yuqori qismiga qarab kengaygan bo'ladi.

Klassik yog'och raketka quyidagi qismlardan tashkil topgan bo'ladi: kallak qismi, yelka, bo'yin, sterjn, dastak. Raketkaning kallagi gardish hamda to'r shaklidagi simlardan iborat bo'ladi.



Zamonaviy sintetik raketkalar nisbatan mukammal tuzilishga ega bo'lib, ularning tarkibiy qismlari quyidagicha nomlanadi: kallak, sterjen, dastak .

Zamonaviy sintetik raketka: 1 - kallak, 2 - sterjen, 3 - dastak. Izoh: kul rangda o 'yin qashqasi ko 'rsatilgan. Odatda, kallak qismi ikki xil bo'lgan raketkalar tayyorlanadi. Ularning birinchisida kallak klassik ko'rinishga ega boisa, ikkinchisida u izometrik shaklda bo'ladi.



Raketkaning bu ikki turi orasidagi farq shundaki, klassik raketkaning tuzilishidagi o'ziga xosliklar uning yordamida nisbatan aniq va kuchli zarbalar berish imkonini yaratsa, izometrik raketkada o'yin qashqasining kattaroq ekani bois, zarbalar berish chogida volanni yaxshiroq nazorat qilish mumkin boiadi.

Raketkaning o'lchamlari quyidagicha: umumiy uzunligi 680 mm dan, umumiy kengligi esa 230 mm dan oshmasligi lozim. Raketka kallagining uzunligi 290 mm dan oshiq bo'lmasligi zarur.

Volanlar. Volanlar uch turga bo'linadi: patli, plastik (to'liqsintetik) va aralash. Volan kallak va patli qismdan tashkil topgan bo'ladi. Professional musobaqa va tumirlar patli volanlarda o'ynaladi. Ularda kallakka ulangan 16 ta pat boiadi. Volanning og'irligi 4,74 grammdan 5,50 grammgacha bo'ladi.

Plastik volanlar, uchish xususiyatiga ko'ra, patli volanlardan ma'lum darajada farq qiladi va asosan havaskorlar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Shu bilan



birga, plastik volanlarning o'yinga yaroqlilik xususiyati patli volanlarga nisbatan uzoqroq saqlanib qoladi. Po'kak kallakli aralash volanlar, uchish xususiyatiga ko'ra, patli volanlarga yaqin turadi. Plastik kallakli volan modellari boshlovchi badmintonchilarga tavsiya etiladi. Garchi ulaming uchish xususiyatlari Yomonroq bo'lsa-da, boshlovchilarga ko'proq xizmat qiladi, chunki ular noaniq zarbalarga (masalan. raketka gardishi bilan urishlarga) chidamliroq bo'ladi. Bir xil modeldagi sifatli plastik volanlar uchish xususiyatiga ko'ra farqlanadi va atrof-muhitning ma'lum bir haroratlarida ishlatiladi. Buni volanning kallagidagi aylana tasmaning rangidan farqlab olsa bo'ladi.




Qizil tasma - eng tez uchar volan, sovuq havoda o'ynashga mo'ljallangan, moviy - o'rtacha tezlikka ega bo'lib, me'Yoridagi harorat uchun, yashil - tezligi

past volan, issiq havoga mo'ljallangan. Sport zallarida odatda moviy Yoki yashil tasmali, ya'ni o'rtacha va past tezlikka ega volanda o'ynaladi.

Plastik volanlarning patlari ham turli rangda bo'lishi mumkin. Lekin odatga ko'ra ular Yoki oq, Yoxud sariq rangli bo'ladi. Volanlarni sinab ko'rish uchun baland-olis zarba usulidan foydalaniladi, bunda raketkaning volanga uriladigan nuqtasi maydonchanning orqa chizig'ida bo'lishi kerak. Bunday zarbadan keyin volan maydonchanning Yon chizig'iga parallel ravishda chiqish trayektoriyasida harakatlanishi zarur. Maydonchanning qarama-qarshi tomonidagi orqa chiziqdan 990 mm dan 550 mm gacha bo'lgan oraliqda yerga tushgan volanlar qoniqarli, deb hisoblanadi.

Simlar.

Simlar qalinligiga ko'ra farqlanadi. Badminton simlari 0,66 mm dan 0,85 mm gacha bo'ladi. Sim qanchalik ingichka bo'lsa, u shunchalik sezuvchan va unda o'ynash mos ravishda qulayroq hisoblanadi. Ammo, o'z navbatida, ingichka sim tez uziladi. Shu bois, agar siz ingichka simli raketkada o'ynashni ma'qul ko'rsangiz, raketkangizni tez-tez taranglashtirib turishingizga to'g'ri keladi.



O'rtacha darajaga chiqqan havaskorlarga simining qalinligi 0,7 mm dan 0,8 mm gacha bo'lgan raketkalarni tavsiya qilish mumkin. Yaxshilab, mo'tadil qattiq tortilgan simlar (10-12 kg) o'yinchining texnik imkoniyatlarini oshirib, bo'g'imlarga ortiqcha bosim tushish xavfini qisman kamaytiradi. Sport jihozlari

ishlab chiqaruvchi taniqli firmalarning mahsuloti bo'lgan raketkalaming asosiy modellar qatorida simlami tarang tortishning me'Yori ko'rsatilgan tamg'a bo'ladi. Ana shu me'Yor buzilsa, raketkaning gardishi deformatsiyalanib, u sinishi mumkin. Simlar dumaloq shaklga ega bo'lib, har safar tarang tortilganda bir-birining ustida harakatlanishi mumkinligini ham Yodda tutish lozim. Buning oldini olish uchun, odatda, dastlabki davrda ular traferat Yordamida maxsus bo'Yoq bilan qotirib chiqiladi. U ma'lum bir sport kompaniyasining ramzini bildiradi.

Kiyim.

Kiyim birinchi galda qulay - katta ham, kichik ham bolmasligi, aynan sizning o'lchamingizga mos kelishi kerak. Futbolka (badmintonka) hamda ichki short (agar u ham bo'lsa) . paxta tolali matodan tikilgan bo'lishi tavsiya etiladi. Iloji bo'lsa, oYoq kiyim (krossovka)ning ham maxsus badminton uchun mo'ljallanganini xarid qilish kerak. Bunday krossovkalarda badmintonchining o'ziga xos harakatlarida bosim tushadigan qismlari mustahkam bo'ladi. Maxsus poyafzal nisbatan ancha qulay va jarohatdan saqllovchi bo'ladi. Asosiysi - kiyim badminton o'ynashga xalaqit bermasligi kerak.



Hakamlar apparati tuzilmasi

Bosh hakam har bir match tarkibiy qismi bo'lgan tumir Yoki boshqa musobaqaning o'tkazilishi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

Minoradagi hakam, agar u tayinlangan bo'lsa, mazkur matchning o'tkazilishi, kortning holati va uning atrofidagi vaziyat uchun javobgar sanaladi. Minoradagi hakam Bosh hakamga bo'ysunadi.



Agar volanni oshiruvchi tomonidan uni oshirish paytida qoidabuzarliklar sodir etilsa, hakam ana shu qoidabuzarlikni qayd etadi.

Yon hakam volan maydoncha chegaralarini belgilab beruvchi chiziq hududiga tushdimi Yoki undan tashqarigami, shuni aniqlab beradi.

Barcha hakamlarning qarorlari ana shu hakamlar javobgar bo'lgan o'yin holatlari bo'yicha yakuniy hisoblanadi. Agar minoradagi hakam yon hakam xatoga yo'l qo'ydi, deb topsa, uning qarorini bekor qilishi mumkin.

Minoradagi hakam quyidagilarga majbur:

o'yin qoidalariga rioya etish va ularni o'yinga tatbiq qilishga, shu jumladan, "bahsli" holat, qoidabuzarlik va foltini, agar ular sodir etilsa, aniqlash;

bahsli holatlar yuzaga kelganda keyingi oshirishgacha ular yuzasidan qaror chiqarish;

matchning borishi to'g'risida sportchilar va tomoshabinlarni aniq va baland ovozda xabardor qilib borish;

Bosh hakam bilan maslahatlashgan holda oshirish joyidagi va yon hakamlarni tayinlash Yoki chetlashtirish;

tayinlanmagan hakamlarning vakolatida bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish;

kortdagi hakamlardan birortasi yuzaga kelgan vaziyat bo'yicha qaror chiqarishga imkonsiz bo'lib qolganda, o'z qarorini qabul qilish Yoki "bahsli" holat e'lon qilish;

Bosh hakamga har qanday holatlar yuzasidan xabar berish;

faqat o'yin qoidalariga taalluqli masalalarda qonoatlantirilmagan barcha apellyatsiyalarni Bosh hakamga yetkazish.

(Mazkur apellyatsiyalar volanni keyingi oshirish amalga oshirilguncha Yoki o'yinning oxiri bo'lsa, apellyatsiya berayotgan tomon kortdan chiqib ketmasidan kiritilishi kerak).

Kortdagi hakamlarga tavsiyalar

Kortdagi hakamlar uchun tavsiyalar BWF tomonidan uning Nizomi talablari asosida barcha mamlakatlarda badminton o'yinini boshqarish uslublarini bir xil standartga keltirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur tavsiyalardan maqsad minoradagi hakamlarga matchning borishini boshqarish masalalarida Yordam berishdan iborat. Toki ular o'yinni qat'iyat va adolat bilan, ammo o'yinchilarni ortiqcha terlamasdan va ulardan ayb izlamasdan, shu bilan birga, o'yin qoidalariga rioya etgan holda boshqarib borsinlar. Shuningdek, tavsiyalar oshirish joyi va Yon tomondagi hakamlarga ham o'z vazifalarini to'g'ri ado etishlarida Yordam beradi.

Barcha hakamlar o'yin aslida o'yinchilar uchun mavjud bo'lishini yodda tutishlari zarur.

Kortdagi hakamlar va ularning qarorlari

Minoradagi hakam Bosh hakamga, Bosh hakam bo'lmaganda esa, musobaqa tashkilotchisiga bo'ysunadi va uning rahbarligi ostida ish olib boradi.

Volanni oshirish maydonidagi hakam bosh hakam tomonidan tayinlanadi, ammo minoradagi hakam tomonidan bosh hakam bilan maslahatlashgan holda chetlatilishi (almashtirilishi) mumkin.

Yon chiziqdagi hakamlar bosh hakam tomonidan tayinlanadi, ammo minoradagi hakam tomonidan bosh hakam bilan maslahatlashgan holda chetlatilishi (almashtirilishi) mumkin.

Barcha hakamlarning qarorlari ana shu hakamlar javobgar bo'lgan o'yin holatlari bo'yicha yakuniy hisoblanadi. Agar minoradagi hakam yon hakam xatoga yo'l qo'ydi, deb topsa, uning qarorini bekor qilishi va o'zining shaxsiy qarorini qabul qilishi mumkin. Agar minoradagi hakam yon chiziqdagi hakamni chetlashtirish kerak, deb hisoblasa, u mazkur masalada bosh hakamga murojaat qilishi kerak.

Kortdagi hakamlardan birortasi yuzaga kelgan va o'zlari mas'ul bo'lgan vaziyat bo'yicha qaror chiqarishga imkonsiz bo'lib qolganda, minoradagi hakam o'z qarorini qabul qilish yoki "bahsli" holat e'lon qilishga haqli.

Minoradagi hakam mazkur matchning o'tkazilishi, kortning holati va uning atrofidagi vaziyat uchun javobgar sanaladi. Minoradagi hakamning vakolati u match boshlanishi oldidan kortga chiqqan paytdan boshlanib, o'yin tugagach kortdan chiqib ketgan vaqtgacha davom etadi.

Minoradagi hakamlar uchun tavsiyalar

Minoradagi (shuningdek, volanni oshirish maydonidagi) hakamlarning kiyim-boshi. Agar musobaqa tashkilotchilari tomonidan bir xil kiyim-bosh nazarda tutilmagan bo'lsa, minoradagi (volanni oshirish maydonidagi) hakamlar quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari lozim:

Kiyimning tepa qismi: erkaklar va ayollar uchun to'q ko'k (qoragacha) rangdagi pidjak (ayollarda kofta); yorqin va bir tusli (oq, yorqin ko'k) ko'ylak

(ayollar uchun bluzka); to‘q rangli, imkon qadar bir tusli rasmiy uslubdagi sipo bo‘yinbog‘.

Kiyimning past qismi: erkaklar va ayollar uchun kul rangning istalgan tusidagi shim (ayollarda yubka).

Poyafzal: erkaklar va ayollar uchun tufli, asosiysi, ayollar tuflisining poshnasi kortni bosib ezmasligi kerak.

Minoradagi (volanni oshirish maydonidagi) hakamda quyidagilar bo‘lishi kerak: ishlatish uchun qulay bo‘lgan, o‘yin paytida tasma bilan hakamning bo‘yniga osib qo‘yiladigan sekundomer; o‘yin bayonnomasi uchun qisqichli planshet; avtoruchka (qalam), shu jumladan, zaxirasi ham.

Hakamlar ozoda tashqi ko‘rinishga ega bo‘lishlari kerak. O‘yin boshlanishi oldidan minoradagi hakam quyidagilarni bajarishi kerak:

Bosh hakamdan o‘yin bayonnomasini olish; ochkolarni hisoblagichning ishlashini tekshirish; ustunlar yoki ularning o‘mini bosuvchi tasmalarning to‘g‘ri joylashganini tekshirish; to‘ming balandligini hamda uning chetlari bilan ustunlar orasida bo‘shliq yo‘qligini tekshirish; volan to‘siqlarga (zalning tuzilishi elementlaridan kelib chiqib) tegib qolganda qo‘shimcha shartlar mavjud yoki yo‘qligiga aniqlik kiritish; volanni oshirish joyidagi va yon chiziqlardagi hakamlar o‘z o‘rnini egallaganiga va ular o‘zlarining vazifalarini bilishlariga ishonch hosil qilish; o‘yinni o‘tkazish paytida to‘xtalishlar bo‘lmasligi uchun yetarli miqdorda sinab ko‘rilgan volanlar tayyorlab qo‘yilishini ta‘minlash; o‘yinchilarning kiyimlari yozuvlar va reklamalarga oid talablarga mosligini tekshirish, nomutanosibliklar aniqlanganda, ularni bartaraf etish. Qoidalarga muvofiq kelmaslik (yoki shunga yaqin) holatlar yuzasidan o‘yin boshlanishi oldidan bosh hakam yohud rasmiy vakil bilan maslahatlashib olish zarur; qur’a tashlash adolatli o‘tkazilganligiga, qur’ani yutgan va yutqazgan tomonlar o‘z tanlovini to‘g‘ri amalga oshirganiga ishonch hosil qilish. Volanni oshirish va maydon bo‘yicha tanlovni bayonnomada aks ettirish. O‘yinchilar bilan tanishish, o‘yinni volanni oshirishning o‘ng maydonidan boshiyadigan sportchilarning ismi shariflarini (juftlik bahslarida) bayonnomaga kiritib qo‘yish. Bunday

qaydlami har bir geym boshlanishi oldidan kiritish (agar o'yin davomida volanni oshirish maydonchasi borasida xatoga yo'l qo'yilgani uchun ushbu joylashuv o'zgartirilsa, qaydlarga tegishli o'zgartirishlar kiritib borish. O'yin boshlanishi oldidan minoradagi hakam tegishli iboralardan foydalangan holda qatnashchilami, quyida keltirilgan shakl asosida o'zida o'ngda kim va chapda kim ekanini aytib tanishtiradi: A, B, D, E - o'yinchilarning ismlari, K, L, M, N - mamlakat (jamoat) nomi.

Yakkalik bahslari

Shaxsiy birinchilik

“Xonimlar va janoblar, mening o'ng tomonimda A, K; chap tomonimda esa B, L. A volanni oshiradi. Hisob nol-nol, o'yinni boshlang”.

Jamoaviy musobaqalar

“Xonimlar va janoblar, mening o'ng tomonimda K ning vakili A; chap tomonimda esa L ning vakili B. Volanni K oshiradi.

Hisob nol-nol, o'yinni boshlang”.

Juftlik bahslari

Shaxsiy birinchilik

“Xonimlar va janoblar, mening o'ng tomonimda A, K va B, L; chap tomonimda esa D, M va E, N. Volanni B D ga oshiradi. Hisob nol-nol, o'yinni boshlang”.

Agar juftlik bahslarida sheriklar bitta mamlakat (jamoat) a'zolari bo'lishsa, mamlakat (jamoat) nomi ikkala sportchining ismi sharifidan keyin aytiladi. Masalan: K ning vakillari A va B.

Jamoaviy musobaqalar

“Xonimlar va janoblar, mening o'ng tomonimda K ning vakillari A va B; chap tomonimda esa L ning vakili D va E. Volanni K ning vakili A L ning vakili D ga oshiradi. Hisob nol-nol, o'yinni boshlang”.

O'yin “o'yinni boshlang” degan komanda bilan boshlanadi.

Volanni qabul qiluvchining xatosini minoradagi hakam

“Qabul qiluvchida folt” deb e'lon qiladi;

Bob yuzasidan nazorat savollari:

- 1 Badmintonning vujudga kelishi haqida so'zlab bering.
- 2 Zamonaviy badmintonning vatani qayer hisoblanadi?
- 3 Tomas kubogiga nechanchi yilda asos solingan?
- 4 Qaysi yili badminton olimpiada o'yinlari oilasiga qabul qilindi?
- 5 Badminton maydoniga ta'rif bering.
- 6 Badminton raketkasini qismlarga ajratib tarif bering.
- 7 Volanning og'irligi necha grammgacha bo'ladi?
- 8 Hakamlar tuzilmasi qanday tuziladi?

Asosiy adabiyotlar:

1. John Edwards. Badminton. Technique, tactics, training. UK- 2014
2. Смирнов Ю.Н. Бадминтон: Учебник для институтов физической культуры. – М.: Ф и С, 2000. – 159 с.
3. Бадминтон. Программа для ДЮСШ. – 2002.
4. Помыткин В.П. Книга тренера по бадминтону. Теория и практик.- 2012

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Марков Д.М. Бадминтон- 2001.
2. Рыбаков Д.Л., Штильман М.И. Основы спортивного бадминтона. - М., ФиС, 2000.

II-BOB Basketbol

Basketbolni vujudga kelishi

Basketbolga o'xshab ketadigan o'yin to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan avvalgi VII asrga oiddir. Meksikadagi ilk qabilasiga mansub bo'lgan indeeslar "pok-to-pok" deb atalgan o'yinni qiziqib o'ynashgan. Ushbu o'yinning butun mohiyati o'yinchilarning to'pni halqa ichiga tushirishdan iborat bo'lgan "to'p" o'rnida kauchukdan tayyorlangan dumaloq shardan

foydalanishgan, uni halqaga “tushurish” uchun faqat tirsaklar bilan yoki son bilan shami urish lozim bo‘lgan. Bunga halqaning xiyol baland joyiga o‘rnatilganligini va buning ustiga yerga nisbatan tik ya’ni perpendekulyar tarzda joylashtirilganligini qo‘shadigan bo‘lsak, u holda halqaga tushirilgan birgina “to‘p” - shar butun o‘yinining taqdirini hal qilgan bo‘lsa kerak.

Oradan ancha vaqtlar o‘tib, eramizning XVI asriga kelganda meksikalik “basketbolchilar” bu o‘yinni ijodkorlari zilday og‘ir kauchukdan tayyorlangan to‘p-sharni devorga o‘rnatilgan tosh halqa orqali o‘tkazishni ko‘zda tutgan edilar.

Muvaffaqiyatli harakat qilib to‘pni halqaga tushirgan o‘yinchi tomoshabinlarning istalgan birining libosini o‘ziga “sarp” qilib olish huquqiga ega bo‘lar edi. O‘yinda yutkazgan jamoaning kapitani esa ko‘pincha shafqatsiz jazoga mahkum etilar, uning boshini tanasidan judo qilar edilar.

1603-yilda Bryuis tomonidan ishlangan gravyurada basketbolga o‘xshagan o‘yin aks ettirilgan, Vet esa “Sport ensiklopediyasi” (1818-y.) degan kitobda Floridada odamlar qiziqib o‘ynaydigan o‘yin bayon etilgan: kimki savatchaga ko‘proq tushirsa o‘sha yutgan hisoblangan, savatcha esa baland ustunning eng uchiga mahkam o‘rnatib qo‘yilgan.

Ancha keyinroq basketbolning hozirgi zamon o‘yini esalatadigan to‘p bilan o‘ynaladigan o‘yin turi paydo bo‘lgan. Masalan, Spartada shunga o‘xshagan “episkirus” deb atalgan o‘yin, Qadimgi Rimda - “harpastum” deb atalgan o‘yin, Italiyada - “halqaga tushirish” o‘yinlari o‘ynalgan.

Qadim-qadim zamonlardan beri to‘p bilan o‘ynaladigan ko‘hna o‘yinlar yer sharidagi juda ko‘p xalqlar hayotida alohida o‘rin egallab turgan. Ilk jamoa tizimi paydo bo‘lgan dastlabki davrlarda o‘yinlar zamonning og‘ir turmush sharoitiga chidash uchun odamlarni jismoniy chiniqishiga yaxshi yordam bergan, ularning mehnat faoliyatida ham va maishiy turmushida ham bunday o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etgan.

Keyinchalik odamlar qabila-qabila bo‘lib yashaydigan davrlarga kelib, turli o‘yinlar, ayniqsa, koptok - to‘p bilan o‘ynaladigan o‘yinlar asta-sekin mehnat faoliyatidan ajralib chiqqan hamda turli ko‘ngilochar o‘yinlar, raqslar, bayram

tantanalari artibutlari qatoridan o‘rin olib, marosim tadbirlaridan biriga aylanadi. Turli o‘yinlar, shu jumladan, basketbol o‘yini ham umumiy xususiyatlari bilan ajralib turgan, lekin odamlar o‘rtasidagi turlicha qarashlar, cheklangan kiritaklik singari mahdudlik ko‘rinishlari salbiy ta’sir ko‘rsatib o‘yinlarning keng miqyosda rivojlanishiga imkon bermagan.

Hozirgi zamon basketbol o‘yining rivojlanish tarixi 1891- yilning dekabr oyidan boshlangan. Sprigfild shahridagi (AQSH, Massachusets shtati) xristian ishchilar maktabi (hozirgi Springfield kolleji)ning anatomiya va fiziologiya o‘qituvchisi doktor Djeysms Neysmit talabalarning qish faslidagi jismoniy mashg‘ulotlarini bir qator jonlantirishga qaror qildi. Neysmit tomonidan ijro qilingan o‘yinning dastlabki varianti beshta asosiy shartdan va 13 ta asosiy qoidalaridan iborat bo‘lgan. o‘sha o‘yinning dastlabki qoidalari 1892-yil 15-yanvarda “Uchburchak” (“Триугольник”) degan gazeta sahifalarida bosilib chiqadi. Neysmit yangi o‘yin uchun futbol to‘pini tanlaydi, chunki bu to‘pni qo‘l bilan ilib olish oson bo‘lib, uni oshirish qiyin hamda yerga urilgan vaqtda to‘p yerdan doimo yuqoriga otilib o‘ynashi unga ma’qul bo‘lgan.

Bunday o‘yinning avj olishi hozirgi zamon basketboli ishqibozlarini hayron qoldirishi mumkin (aytmoqchi, o‘sha zamonlarda ham o‘yinning nomi xuddi hozirgi singari: “basketbol” deb Yozilgan). Neysmit shaftoli terishga mo‘ljallangan savatchani zal ichidagi balkonga o‘rnatib qo‘ygan, savatchaning Yonidagi narvon ustida farrosh o‘tirgan. Uning vazifasi muvvafoqiyatli tashlangan va savatchaga tushirilgan to‘pni savatcha ichidan olib, pastga o‘yinchilarga uzatib turishdan iborat bo‘lgan.



1891-yil 21-dekabrda Springfield kollejining gimnastika zalida basketbol bo'yicha birinchi match o'tkaziladi. Matbaa manbalari bu o'yinning uch xil tug'ilish sanasini qayd etadilar:

1891-yil 21-dekabr, 1892-yilning 15 va 20-yanvari. "O'yin yaratuvchi"ning ta'kidlanishicha esa birinchi uchrashuv 1891-yilning "rojdestvo" bayrami oldidan o'tkazilgan ekan.

Guruhda 18 kishi bor edi. Shuning uchun o'yinda har biri 9 kishidan iborat 2 jamoa ishtirok etdi. O'yin ko'pchilikka shu qadar ma'qul bo'ldiki, tez orada o'yin qoidasidan nusxa ko'chirib berishni so'rab Neysmitni holi-joniga qo'yishmadi. Keyinroq, 1892-yilda u o'z o'yinining birinchi "Qoidalar kitobi"ni nashr ettirdi. Unda 13 ta asosiy band bo'lib, ularning ko'pchiligi bizning hozirgi kunlarimizda ham amal qilmoqda. Prinsip jihatdan u "Qoidalar"ning hozirgilaridan farqi to'pni "olib yurish" qoidalari deb hisoblash mumkin.

Neysmit o'yinda ishtirok etuvchilar sonini qat'iy ravishda cheklab qo'ymagan- Uning ta'rificha, o'yinda uch kishidan boshlab 40 kishigacha qatnashishiga ruxsat berilgan. Holbuki, eng maqbul mezon har jamoada 9 kishi bo'lishi edi. Futbol o'yinidan nusxa ko'chirib o'yinchilarni uchta hujumchiga uchta himoyachiga ajratib qo'yilgan edi. Ularga faqat o'z "zonalarida" o'ynashga ruxsat berilgan edi.

1892-yil 11-martda mana shu qoidalar asosida birinchi marta tomoshabinlar huzurida o'yin o'tkazilib, uni tomosha qilish uchun 200 kishi to'plandi. Talabalar o'z o'qituvchilari bilan o'ynaydilar va 5:1 hisobida g'olib chiqdilar. Shundan keyin o'yin keng miqqiyosida rivojlanib ketdi va xuddi 1892-yilning o'zida Meksikada ham basketbol o'ynala boshladi. Oradan biroz vaqt o'tgach Lyu Allen Hartford shahrida noqulay savatchalarni - shaftoli terishga mo'ijallangan ushbu savatlarni simdan to'qilgan silindr shaklidagi og'ir savatchalar bilan almashtirdi.

O'yin yildan-yilga rivojlanib borib, uning qoidalari ham ancha takomillashtirildi. Chunonchi, 1893-yilda birinchi marta shchitga tegib qaytadigan va to'pni tomoshabinlar orasiga borib tushishdan saqlaydigan qurilma va unga to'r xalta biriktirilgan temir halqa o'rnatildi. Shchitning kattaligi 3,6x1,8 m bo'lgan. Oradan bir yil o'tgach, to'pning kattaligi oshirilib aylanasi uzunligi 30-32 dyuymga (76,2-81,8 sm)ga yetkazildi. 1895-yilga kelib o'yin qoidalariga jarima to'pi tashlash kiritildi. Jarima to'pi 15 fut (5,25 m) masofadan turib tashlanar edi.



Oradan ko'p o'tmay savatcha hozirgi zamon shaklini oladi, lekin shchit esa o'zining hozirgi kattaligiga 1895-yilda erishadi. Ayni mahalda shchitni oq

rangga bo'yab qo'rganlar, 1909-yilga kelib esa shchitni yaltiroq plastinadan tayyorlay boshlaganlar. Maydonda to'pni olib yurish qoidasi 1896-yilda kiritilgan. To'pni tortib olish ham unga qiyin emas edi. Oradan uch yil o'tgach, basketbolda foydalanilayotgan futbol to'pi maxsus tarzda tayyorlangan basketbol to'piga almashtirildi.

O'yin texnikasining tez takomillashishi va o'yinchilar harakatchanligining ortib borishi shunga olib keldiki, 1896-yilda jamoalar tarkibini 5,7 yoki 9 o'yinchi bilan cheklab qo'yish to'g'risida bir bitimga kelishildi. O'yinda necha kishilik jamoa ishtirok etishi o'yin maydonining kattaligiga bog'liq bo'lgan. Tez orada jamoadagi o'yinchilar soni butunlay standart holga keltirildi: ya'ni bir vaqtning o'zida 5 kishidan ortiq o'yinchi qatnashishiga ruhsat etilmaydigan bo'ldi.

1892-yilning mart oyida ushbu o'yinni "ilk ishtirokchi"lari jamoalari o'rtasida dastlabki o'yin o'tkaziladi. Ular Bekingem maktabining o'qituvchilari va stenografistlari edi. Jamoadagi o'yinchi qizlardan biri Mod Sherman bu o'yinda o'z baxtini ham topdi - u Djeys Neysmitga turmushga chiqdi.

1893-yil 22-martda juda ko'p tomoshabinlar huzurida Smit kollejining birinchi kurs qizlari bilan ikkinchi kurs qizlari o'rtasida birinchi rasmiy o'yin o'tkazildi. Unda katta qizlar 5:4 hisobi bilan g'alaba qildilar. Qizig'i shundaki, o'yinni tomosha qilgan tomoshabinlar ishqibozlar orasida birorta ham erkak bo'lmagan. Buning sababi erkaklarga zalga kirish man etilgan bo'lib sababi basketbolchilar kalta yubkalarda o'yinga tushgan edilar.

1896-yilda qizlarning Xristian assotsiasiyasi ushbu o'yinni kam harakat va qizlar uchun qulayroq qilish maqsadida basketbol bo'yicha o'yin qoidalarini qayta ko'rib chiqadi. O'sha paytdan boshlab basketboldan holi ravishda "netbol" /net —to'r, bol - to'p/ o'yini rivojlana boshlaydi.

Shu yilning o'zida AQSHda basketbol bo'yicha rasmiy musobaqalar bo'lib o'tdi. Oradan 6 yil o'tgach birinchi bor talabalarning mintaqalararo o'yini tashkil etildi. Xuddi o'sha yili Buffalo shahrida tashkil etilgan Panama-Amerika qo'shma ko'rgazmasida basketbol o'yini "eksponat" sifatida ko'rsatildi.

AQSHda tuzilgan basketbol o'yini oradan ko'p o'tmay Xitoy, Filippin, Angliya, Fransiya, Italiya singari dunyoning ko'p mamlakatlariga tarqalib ketdi.

Basketbolning rivojlanishi

I bosqich 1891-1918-yillarni o'z ichiga olib, basketbolning yangi o'yin sifatida shakllanib borish bosqichi hisoblanadi. Avvaliga gimnastika darslarini biroz jonlantirish uchun yaratilgan basketbol asta-sekin sport o'yiniga aylanib, uning o'ziga xos barcha xususiyatlari shakllana boshlaydi. Uning dastlabki rasmiy o'yin qoidalari yaratiladi. Uning o'yin texnikasi va taktikasi shakllanadi. O'yinda ishtirok etayotgan jamoa a'zolarining har biri uchun muayyan funktsiya vazifalar belgilab beriladi.

II bosqich 1919-1931-yillardan iborat bo'lib, bu davr milliy basketbol federatsiyalari tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa basketbolning sport o'yini sifatida rivojlanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu davrda dastlabki basketbol bo'yicha xalqaro turnir - musobaqalar o'tkaziladi.

III bosqich 1932-1947-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr butun dunyo bo'yicha basketbol o'yini har tomonlama rivojlanganligi bilan harakterlidir. Bu davrda basketbol o'yini federatsiyasi (FIBA) tashkil etiladi. Bu hodisa unutilmas voqea bilan basketbolni sportning Olimpiya turidagi o'yinlar qatoriga kiritilishi bilan birga sodir bo'ladi. Shu davrda sobiq sovet basketbolchilari ham xalqaro maydoniga chiqadilar. Basketbol taktikasi va texnikasiga yangiliklar kiritiladi.

IV bosqich 1948-1965-yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda butun dunyoda basketbol o'yini shiddat bilan rivojlanibgina qolmay, muayyan sakrashlar tarzidagi taraqqiyot va sport mahoratining o'sishi ham ana shu davrga to'g'ri keladi. To'pni bir qo'l bilan o'tish qoidasi paydo bo'ladi, raqibning hujumiga qarshi o'zini himoya qilish taktikasi va texnikasida ancha murakkab priyomlar paydo bo'ladi. Mini-basketbol o'yini vujudga kelib, dunyo bo'ylab tarqala boshlaydi.

V bosqich 1986-1990-yillarda milliy Federatsiyalar soni ortadi. Milliy professional basketbol uyushmalari (NBA) paydo bo'ladi. Basketbolchilarning

xalqaro aloqalari mustahkamlanadi, o'yin taktikasi va texnikasida yangiliklar vujudga keladi. Musobaqalar qoidasi va hakamlik metodikasi takomillashtiriladi.

Xalqaro basketbol federatsiyasining(XBF) tashkil etilishi

Basketbol rivojlanishiga rahbarlik qilish vazifasini o'z zimmasiga olgan birinchi xalqaro tashkilot (LAAF) Xalqaro havaskor yengil atletikachilar federatsiyasi bo'lgan edi. 1926-yilning avgust oyida IAAFning Gaaga shahrida bo'lib o'tgan ushbu federatsiya doirasidagi VIII kongressida to'p bilan qo'lda o'ynaladigan barcha o'yinlar ustidan nazorat qilish ishlarini olib borish uchun maxsus komissiya tashkil etiladi. IAAFda bunday o'yinlarga qiziqish paydo bo'lganiga sabab shu ediki, ko'pgina mamlakatlarda qo'l bilan o'ynaladigan to'p o'yinlari qish oylarida yengil atletikachilar trenirovkasining oddiy elementiga aylanib qolgan edi.

1928-yil avgustida Amsterdam shahrida bo'lib o'tgan IX Olimpiada o'yinlari vaqtida qo'lda o'ynaladigan to'p o'yinlari komissiyasi bazasida qo'l to'pi o'yinlarining mustaqil xalqaro havaskorlar federatsiyasi (LAGF) tashkil etildi. Uning tarkibiga sportning har xil turlari bo'yicha (shu jumladan basketbol bo'yicha) uchta texnik komissiya kiritiladi. Fransuz K.Bopyunni basketbol bo'yicha komissiyaning raisi, kotibi etib esa - uning vatandoshi M.Barillni saylandilar. Mana shu komissiya basketbol rivojlanishiga rahbarlik qilish uchun tuzilgan birinchi xalqaro tashkilot edi. Lekin u bor- yo'g'i 6 yil mavjud bo'ldi. Aslini olganda u o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani - tuzilgan dastumi bajara olmadi. Shuning uchun 1934-yilning sentyabrida IAGF jahon basketboliga rahbarlik qilishga da'vat etilgan yagona tashkilot bu FIBAdir, deb tan olishga majbur bo'lgan edi.

20 yillarning oxirida ko'pchilik mamlakatlarda milliy basketbol tashkilotlari faoliyat ko'rsata boshlagan edi. Lekin ular IAGF rahbariyati Shveysariyaning futbol va yengil atletika bilan ham mashg'ul bo'ladigan basketbol assotsiatsiyasini tan olmaydi. Bunga sabab o'z zimmasiga basketbolning rahbarlik qiluvchi organi rolini olgan ushbu tashkilot basketbol bo'yicha biror marta ham match musobaqa o'tkazmagan edi. Mana shunga

o'xshagan noxushliklar sababli bir qancha mam-lakatlarning basketbol assotsiasiyalarining vakillari "o'z" xalqaro federasiyalarini tuzish uchun bir yerga to'planishga qaror qildilar.

Shu maqsadda 1932-yilning 10-iyulida 2 mamlakatning vakillari Jeneva shahriga to'plandilar. Ular Simeri Bern (AQSH) rahbarligi ostida - uning raisligida yangi federasiya ustavini va federatsiyaning asosiy ish tamoyillari tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladilar: unda yagona xalqaro qoidalar ishlab chiqish, rasmiy xalqaro birinchiliklarga, turnirlarga, havaskor jamoalar uchrashuviga rahnamolik qilish va ulami qo'llab-quvvatlash, basketbolni rivojlantirishda milliy federasiyalarga yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan edi.

XBF rahnamoligida o'tkaziladigan birinchi yirik musobaqa bu birinchi Yevropa chempionati deb hisoblanadi (Jeneva, 1935-y.).XBFning va hatto ushbu federasiyaning Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) tomonidan tan olinishi - bu hali basketbolni XI Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritiladi degan ma'noni anglatmas edi. Argentina basketbol federatsiyasining tegishli ravishda qilgan qat'iy talablaridan keyin basketbol o'yini XOQ qarori bo'yicha bir necha yillar mobaynida sportning Olimpiada turlari ro'yxatiga kiritib kelindi. Biroq, mana shu faktning o'zi yaqin orada o'tkaziladigan Olimpiada dasturiga basketbolni avtomatik ravishda kiritilishi uchun yetarlidir, deb oldindan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Bu masalani Berlinda O'tkaziladigan Olimpiada o'yinlari tashkiliy komiteti hal qiladi. Basketbol masalasini hal etish uchun yana bir vaziyat to'siq boiishi mumkin: XI Olimpiada o'tkaziladigan mamlakat bo'lmish Germaniyada aslini olganda basketbol to'g'risida tasavvur ham yo'q, chunki bu mamlakatda basketbolga o'xshab ketadigan, lekin mutlaqo boshqa bir o'yin - karbol o'yini keng tarqalgan.

Shunga qaramay, aftidan basketbolning bayat yulduzi porlaydiganga o'xshaydi. Stokgolmdan Rimga borayotgan V.Djons yo'l-yo'lakay Berlinga o'tkaziladigan XI Olimpiada o'yinlarini o'tkazish komitetining besh sekretari Karl Diem bilan uchrashdi. Bu kishi uni yaxshi biladigan va bir vaqtlar o'tishda

unga ustozlik qilgan kishi edi. Boltiq dengizi osha paronda narigi qirg'oqqa o'tilayotgan vaqtda "tomonlar" bu to'xtamga keldilar. 1934-yilning 19-oktyabrida komitet basketbolni Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritish to'g'risidagi taklifni (buni qarangki, o'shanda hali XBF XOQ tomonidan tan olinmagan edi) ma'qullash yuzasidan o'zinmg yalpi majlisida qaror qabul qiladi.

Shundan keyin 1935-yilning 28-fevralida XOQning Oslo shahrida bo'lib o'tgan sessiyasi basketbol sportning Olimpiada tumiriga kiritilganligi rasmiy ravishda tan olinadi.

XBF o'zi tashkil etilganidan keyin oradan 3 yildan kamroq vaqt ichida to'la mustaqillikka erishadi, hamda XOQ tomonidan sportning olimpiada turlariga kiruvchi o'yinlar federatsiyasi oilasida o'zining munosib o'rmini egallaydi.

XBF ustavi 1932-yilda Rim shahrida qabul qilingan edi. O'sha har 4 yilda bir marta o'tkaziladigan federasiya kongresslarida tegishli o'zgartishlar kiritilib turiladi.

1947-yildayoq 50 ta mamlakat XBFga a'zo bo'lib kirgan edi. O'zining 50 yilligini nishonlayotgan kunda (1985-y.) XBF besh qit'adagi 157 mamlakatni o'z saflarida birlashtirgan edi.XBFning bosh organi - kongress bo'lib, u har 4 yilda bir marta chaqiriladi. Kogresslar o'rtasidagi davrda kongress vakolatlariga ega bo'lgan markaziy byurosinung rahbar organi hisoblanadi. U ikki yilda bir marta o'z mamlakatlariga - sessiyasiga to'planib turadi.

Markaziy byuro sessiyalari o'rtasida uning vazifasini 7 kishidan iborat ijroiya komissiyasi bajarib turadi.Yevropa qit'asida Yevropa chempionatlari kubogi uchun o'tkaziladigan o'yinlar juda mashhur bo'lib o'tgan (ularda milliy birinchilik uchun o'tkaziladigan o'yinlaming chempionatlari ishtiroketadi) shuningdek, kubok egalari kubogi uchun o'ynaladigan o'yinlar ham keng tarqalgan (ularda mamlakat chempionatlarining ikkinchi jamoalari Yoki Kubok egalari qatnashadi) hamda bundan ko'pgina musobaqalar ham ommalashib ketgan.

O‘zbekistonda basketbolning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi

O‘zbekiston sportchilarini “basketbol” degan o‘yin bilan birinchi marta Moskva instruktorlar va chaqirish yoshidagi yigitlarni harbiy xizmatga tayyorlash maktabining bitiruvchisi Turkiston o‘lkasiga xizmat safariga yuborilgan umumta’lim vakili L.Barxash tanishtirgan. U 1920-yilning aprel oyida Skobalev (hozirgi Far g‘ona) shahrida instruktorlardan va harbiy xizmatga chaqirish yoshiga yetayotgan o‘smirlardan iborat basketbol jamoasi tashkil etadi. Ularga o‘yin qoidasini tushuntirib namunaviy o‘yinni o‘ziga o‘tkazib ko‘rsatadi. 28x16 metrli maydonchada o‘rtasidan ikkita uzunasiga chiziq tortilgan chegara qo‘yib, har birida 9 nafardan o‘yinchi bo‘lgan ikki jamoa uchrashadi.

Toshkent shahrida basketbol jamoasini tuzgan kishi harbiy xizmatga chaqirish yoshiga yetayotgan katta yoshli o‘smirlar harbiy-jangovar maktabining o‘qituvchisi S.Stariy bo‘lgan edi. Bu yerda umumta’lim hovlisida tashkil etilgan basketbol maydonchasida 1920-yilning sentyabr oyida birinchi o‘yin bo‘lib o‘tgan edi. Unda har bir jamoada besh nafardan o‘yinchi bo‘lib to‘p o‘rnida futbol to‘pidan foydalangan edilar. Halqa o‘rniga sport maydonchasining har ikki chekkasidagi ustunlarga osib qo‘yilgan tagi teshik eski chelaklardan foydalanilgan edi.

Tashkil etilgan mana shu dastlabki namunaviy o‘yinlar mahalliy yoshlarga va jismoniy tarbiya instruktorlariga ma’qul bo‘lib, ularda katta taassurot qoldiradi. Toshkentda o‘tkazilgan o‘sha birinchi basketbol o‘yini qatnashchisi M.D.Mogilevskiyning hikoya qilishicha, yigitlar har kuni kiyib yurgan egnilarida o‘yinga tushishgan va ko‘plari yalangoyoq o‘ynashgan. O‘yin boshdan oyoq bir-biriga to‘p otish va qo‘liga tushgan to‘pni osib qo‘yilgan eski chelakka tashlashdan iborat bo‘lgan. Bu yerda o‘yinning eng oddiy qoidalariga rioya qilinmaganligiga qaramasdan, yangi o‘yin odamlarda kuchli hayajon uyg‘otgan, vaziyatning tez-tez o‘zgarib turishi bu yerda to‘plangan o‘smirlar va yoshlarning diqqatini o‘ziga tortgan.

1920-yilning yozida va kuzida bir necha ko‘rgazmali uchrashuvlar o‘tkazildi. Yangi o‘yinga qizlar ham qiziqqa boshlashdi. Shu yili Andijonda

jismoniy tarbiya instruktori I.Bluskiy rahbarligi ostida ayollar basketbol jamoasi tashkil etildi. Qizlar unga “Lochin” nomini berishdi.

Basketbol jamoalarining tashkil etilishi mashg‘ulotlar uchun joy ko‘rish zaruriyatini yuzaga keltirdi. 1921-yilda Toshkentda, Qo‘qonda, Andijonda, Farg‘onada komsomolning tashabbusi bilan va profsoyuzlarning faol qo‘llab-quvvatlashi natijasida basketbol maydonchalari qurildi. Qayta qurilgan maydonlarning o‘ziga xos tomoni shunda ediki, bunda shchitlar va halqachalar yaratilgan edi. O‘sha yiliyoq basketbol bo‘yicha ikkita musobaqa o‘tkazildi: “Ikki haftalik” va “Chaqiruvgacha bo‘lganlar haftaligi”.

1921-yilning iyulida Toshkentda II O‘rta Osiyo olimpiadasi o‘tkazilayotgan vaqtda Farg‘ona, Samarqand, Chemyayevning eng yaxshi ayollar basketbol jamoalari birinchi rasmiy musobaqalami o‘tkazdilar. “Doprizivnik” jumali Farg‘onalik qizlarning yaxshi tayyorgarlik ko‘rganligini ta’kidlagan edi. Olimpiada basketbolning yanada rivojlanishi uchun yangi turtki berdi. Lekin yagona qonun qoidalarining Yo‘qligi, metodik va sport xarakterdagi axborotning Yomon yetkazilishi, basketbol o‘yinining texnika va taktikasini yaxshi biladigan instruktorlik tarkibining Yo‘qligi basketbol jamoalarining mahoratini o‘rishini to‘xtatib turardi.

1923-yilda Turkiston MIK qoshida jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘lka Soveti tuzildi. Jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining davlat boshqaruv fanlari paydo bo‘lishi bilan jamoat tashkilotlarining sport o‘yinlari, jumladan, basketbolni tashkil etishdagi faoliyati aktivlashadi. Zavodlar, fabrikalar, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida sport to‘garaklari ochila boshladi.

1924-yilning avgustida Farg‘ona, Poltorask, Toshkent, SirdarYo va respublika poytaxti oliy o‘quv yurtlarining terma jamoalari I - Butun Turkiston jismoniy tarbiya bayrami musobaqalarida uchrashdilar. Jismoniy va texnik tayyorgarligi o‘z raqiblarinikidan ustunroq bo‘lgan Toshkentning erkaklar va ayollar jamoalari ushbu musobaqalarning g‘oliblari bo‘ldilar. Musobaqalarda taxminan 60 kishi ishtirok etdi. Musobaqalar “Moskva qoidalari” bo‘yicha o‘tkazildi. Yuzasi 26x15m va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lgan maydonchada

o'ynashgan. Yuzaviy deb ataladigan qisqa chiziqlarning o'rtasida vertikal shchitlari bo'lgan tirgaklar o'rnatilgan bo'lib, uning o'lchamlari 180x205 sm bo'lgan va yer yuzasidan 270 sm balandlikda o'rnatilgan. Shchitning pastki chegarasidan 30 sm masofada unga gorizontaal ravishda kronshteynga radiusi 18 sm bo'lgan temir halqa o'rnatilgan edi. Har biri 20 daqiqadan bo'lgan 2 taym o'ynalar edi. O'yin davomida halqaga tashlangan to'p - 2 ochko, jarima to'pi sifatida tashlangan to'p esa - 1 ochko keltirar edi. O'z raqibi halqasiga ko'proq to'p tushira olgan jamoa mutloq g'olib hisoblanar edi.

Hech qanday kombinasiyalar boimasdi, himoyachilar muayyan hujumchilarning Yo'lini to'sar edilar, bunda chap himoyachi raqibning o'ng hujumchisini to'sar edi, markaziy o'yinchi esa faqat markaziy o'yinchi bilan shug'ullanar edi. Daqiqalik tanaffuslar bo'lmasdi. O'yin vaqtida o'yinchi almashtirish mumkin emasdi (baxtsiz tasodiflardan tashqari) kamida 4 kishiga o'ynash ruxsat etilar edi. Markazdan o'yin boshlaydigan o'yinchi bir qo'lini orqasiga qilib olishi kerak edi.

To'pni markazda o'ynatish vaqtida har ikkala jamoaning hujumchilari o'z raqiblarining maydonchasida zarur edi. O'sha zamon qoidalariga ko'ra, o'yinchi to'pni bir joyda 2 soniyadan ortiq ushlab turishiga ruxsat berilmas edi. Bu to'pning bir o'yinchidan ikkinchisiga o'tib, doimo harakatda bo'lishiga va tez-tez uzatilishiga imkon berar edi. O'yinchilar nomerlanmas, protokollar tuzilmas edi. O'yinga bir kishi hakamlilik qilar edi va hisob qanday bo'lganini tushirilgan har bir to'pdan keyin e'lon qilib turar edi.

Yerga tushgan to'pni 2 qo'llab olib savatchaga tushirish va havodagi to'pni bir qo'llab otib nishonga tushirish eng keng tarqalgan usullardan hisoblangan. Maxsus murabbiylar bo'lmagan. O'yin paytida to'pni albatta boshdan oshirib tashlaganlar, lekin ko'p hollarda ikki qo'llab to'p tashlash va uni yerdan olib pastdan yuqoriga birdan ko'tarib savatchani nishonga olish ko'proq rasm bo'lgan. Bora-bora basketbol Yoshlar orasida keng tarqalib keta boshladi.

1927-yilda u I Butun O'zbekiston Spartakiadasining dasturiga ham kiritildi. Ungacha esa shahar musobaqalari bo'lib o'tdi. Toshkent shahar

birinchiligi uchun basketbol bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda 20 dan ortiq jamoa ishtirok etdi, Farg'onada 8 ta, Samarqandda 12, Andijonda 6 ta jamoa ishtirok etdi. Ularning ayrimlari klublar bo'yicha tuzilgan bo'lib, matbaachilar (Toshkent)- 3 ta jamoa temirYo'lichilar (Samarqand, Andijon) - har biri 2 tadan, profmtemchilar (Toshkent) - 3 tadan jamoa tuzib o'ynaganlar.

1928-yilning avgust oyida Moskvada I Butun mamlakat Spartakiadasi bo'lib o'tdi. Unda tarkibida 193 kishi bo'lgan. O'zbekiston sport delegatsiyasi ham sportning spartakiada dasturiga 7 turi bo'yicha ishtirok etdi.

Basketbol bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda O'zbekiston terma jamoalari moskvaliklarga yutqazadilar va Zakavkaze Federatsiyasi sportchilarini yutadilar. Final o'yinlarida mamlakat jamoasiga yutqazib, umumiy hisobda IV o'rinni egalladilar. Shu yeming o'zida basketbol jamoalari Fransiya ishchilar Federatsiyasi jamoalari bilan xalqaro o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkazdilar. Bunda erkaklar jamoasi 49:12, xotin-qizlar jamoasi 24:12 hisobida g'olib chiqdilar.

Quyidagi faktlar o'sha davrda basketbol tobora ommaviylashib borganligini ko'rsatadi: u II Butun o'zbek kasaba uyushmalari Spartakiadasining (1935-yil, iyun), Samaraqandda o'tkazilgan xotin- qizlar jismoniy tarbiya bayrami (1935-yil, avgust), Toshkentda o'tkazilgan idoralararo spartakiada (1935-yil, sentyabr) dasturlariga kiritiladi. Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Buxoro shaharlarida alohida birinchiliklar o'tkaziladi. Xuddi o'sha yili "Spartak", "Lokomotiv" sport jamiyatlari tuzildi. Ushbu jamoalarda o'quv-trenirovka jarayoni bilan shug'ullanadigan murabbiylar paydo bo'ladi. Chunonchi "Lokomotiv" jamiyatida M.Fedorov, "Spartak"da A.Kirillov, "Dinamo"da I.Konstantinov murabbiylik vazifasini bajaradilar. O'zbekiston erkaklar terma jamoasining birinchi murabbiyi K.K.Morozov boigan edi.

Chambar halqalarni (1936-yil sentyabr oyida) doira shaklida temir halqalar bilan texnik jihatdan ancha takomillashtirilgan halqalarga almashtirilishi to'pni ko'krakdan ikki qoilab va yelkadan bir qo'llab har xil harakat vaqtida ham turgan joyidan halqaga tushirish imkonini berdi (to'pni uzatish va olib yurish texnikasi yaxshilandi).

1937-yildan boshlab terma jamoalar o'rtasida basketbol bo'yicha Respublika musobaqalari o'tkazila boshlandi, sport jamiyatlari jamoalari g'oliblari o'zaro shahar, viloyat birinchiligi o'tkaza boshladilar. G'olib chiqqan jamoaga "champion" unvoni berilib, ularga butun mamlakat musobaqalarda O'zbekiston sharafiga himoya qilish huquqi ham beriladigan bo'ldi.

1939-yil yanvaridan boshlab yangi qoidalar joriy etila boshlandi: zahirada o'yinchilarga ega bo'lishga ruxsat berildi. "O'yinchiga sof vaqt ajratish" qoidasi joriy etildi, "uch sekund" qoidasi mavjud edi. Man shu punktning joriy etilishi bilan o'yin ancha dinamik xarakter kasb etadi. Bunga yana qoidalaming to'pni to'xtamasdan doira chizig'idan to'g'ridan to'g'ri to'pni halqaga tushirilgan hollarda (o'yinni har safar markazdan boshlamasdan) o'yinni to'xtatmasdan to'pni o'yinga kiritishga ruxsat beradigan boshqa bir punkt ham o'yin dinamikasini oshirdi. Ilgari bir o'yinchi tomonidan shaxsan Yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xatolarning soni 4 xato bilan chegaralanib qo'yildi, jarima to'pini tashlash huquqi aziyat chekkan o'yinchining o'ziga beriladigan bo'ldi. O'sha qoidalar bo'yicha basketbol halqasining aniq o'lchovlari ham belgilab qo'yildi (diametri 45 sm, to'pning og'irligi 600-650 g) hamda barcha basketbol maydonchalari uchun yagona o'lchovlar 26x14 m tarzida belgilab qo'yildi.

1939-yilning qish davri mobaynida ko'rgazmali hakamlik o'yinlari o'tkazildi. Ikkinchi Jahon urushi boshlanishi bilan O'zbekiston jismoniy tarbiya tashkilotlari o'z ishlarini urush davri talablari asosida qayta tashkil etdilar. Respublikada umumiy harbiy ta'lim joriy etildi, harbiy o'quv punktlari tuzildi.

1943-yilga kelib jismoniy tarbiya - ommaviy ishlar, shu jumladan, basketbol ham asta-sekin tiklana boshladi. Shu yili basketbol bo'yicha shahar birinchiliklari bo'lib o'tdi. Shahar birinchiligidan keyin Respublika birinchiligi uchun musobaqalar tashkil etilib, unda "Dinamo" (Toshkent) jamoasining o'yinchilari ayollar o'rtasida chempion bo'ldilar. Markaziy armiya klubi (Toshkent) jamoasi erkaklar o'rtasida chempion bo'ldi.

1944-yili avgust oyida Tbilisida basketbol bo'yicha XI mamlakat birinchiligi o'yinlarining bayrog'i ko'tarildi. Bu yerda DKA O'zbekiston ayollar

jamoasi ishtirok etdi. Lekin u muvaffaqiyatli chiqa olmadi va to'qqizinchi o'rinni egalladi.

1945-yilda Respublika spartakiadasi o'tkazildi. U tamom bo'lganidan keyin O'zbekiston jamoalari Frunze shahrida o'tkazilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston spartakiadasida ishtirok etdilar. Unda O'zbekiston sportchilari basketbol bo'yicha va sportning boshqa turlari bo'yicha birinchi o'rinni egallab g'olib chiqdilar.

1946-yilda O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport ishlari komiteti Toshkent shahrida sport bo'yicha birinchi instruktorlar maktabini ochdi.

1947-yilda o'yin qoidalariga o'zgarishlar kiritildi. Protokollarga 12 kishini kiritishga ruxsat berildi. Musobaqalarning shiddat bilan o'tkazilishi har bir o'yinga ikkitadan hakam tayinlash zaruriyatini tug'diradi.

1947-yilda Butun mamlakat paradi o'tkazilganidan keyin O'zbekiston basketbol bo'yicha birinchiligi uyushtirildi. Unda 8 ta erkaklar jamoasi uch guruhdagi Butun mamlakat musobaqalarida ishtirok etib, 5-o'rinni egalladi.

1948-yilda aprel oyining oxirlarida O'rta Osiyo respublikalari poytaxtlaridan uchrashuvlari tashkil etildi. Bunda O'zbekiston ayollar jamoasi barcha tengdoshlaridan g'olib chiqib I o'rinni egalladi. Erkaklar jamoasi esa faqat Olma-ota shahar jamoasiga yutqazib 2-o'rinni oladi.

1949-yil Yoz davrida O'zbekiston terma jamoalari mamlakat birinchiligi uchun o'tkazilgan o'yinlarda qatnashdilar. Unda erkaklar 18-o'rinni, ayollar esa 20-o'rinni oldilar.

1950-yilda Frunze shahrida basketbol bo'yicha O'rta Osiyo respublikalarining III an'anaviy musobaqalari o'tkazildi. Unda o'zbek basketbolchilari g'olib chiqdilar.

1951-yilda o'smirlar o'rtasida O'rta Osiyo chempionati birinchi marta o'tkazildi. Unda Toshkentlik yigit-qizlar I o'rinni egalladilar. Respublikamizning terma jamoasi Xarkov shahrida o'tkazilgan mamlakat terma jamoalari o'rtasidagi o'yinlarda qatnashib, 7-o'rinni egalladi. O'sha kezlarda matbuotda tez-tez metodik mazmundagi maqolalar paydo bo'la boshladi. 1958-yilning birinchi

yanvaridan boshlab basketbol bo'yicha yangi qoidalar, yangi sport klassifikasiyasiga amal qila boshladi. Yangi sport klassifikasiyasidagi Yosh talablari sport natijalarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xuddi shu yili o'smirlar jamoalari o'rtasida, O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalari poytaxt terma jamoalari o'rtasida an'anaviy musobaqalar bo'lib o'tdi. Shuningdek, musobaqa o'tkazish sohasida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi: endi musobaqalar ikki yosh guruhlar bo'yicha o'tkaziladigan bo'ldi. Shu bilan bizning yigit-qizlarimiz Dnepropetrovsk shahrida bo'lib o'tgan Butun mamlakat musobaqalarida ishtirok etdilar. Hamda qizlar 9-o'rinni, yigitlar 11-o'rinni egalladilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'sha kezlarda ko'pchilik jamoalarning tarkibi yosh-yosh o'yinchilar hisobiga kengaytirildi va yangilandi, ko'pchilik jamoalarning texnik tayyorgarlik darajasi yuksaldi. Chunonchi, erkaklar jamoalarining o'yinchilari Toshkent shahridagi eng yaxshi basketbolchilarning o'yin texnikasini mohirlik bilan qo'llay boshladilar. "Tez yorib o'tish" usuli bo'yicha o'ynab, raqibning yo'lini to'sish metodlari qo'llanib, raqib shchiti yonida markaziy o'yinchini chalg'itish kombinasiyalari qo'llanilib, o'ynalganida o'yinchini shaxsiy himoyalash yo'llaridan ham tez-tez foydalaniladigan bo'ldi.

1955-yil - bu sobiq mamlakat xalqlari Spartakiadasiga tayyorgarlik yili bo'ldi. Bir yili ichida 10 ta sport ustasi, 348 ta razryadchi sportchilar tayyorlandi. Xuddi shu yili Jismoniy tarbiya instituti tashkil etildi. Shu yili yana Toshkent shahar Oliy o'quv yurtlari birinchiligi uchun musobaqalar o'tkazildi. Uning g'oliblari butun mamlakat talabalar o'yinida ishtirok etdilar.

1956-yilning avgust oyida Moskvada sobiq mamlakat xalqlarning Spartakiadasi ochildi, unda o'zbek basketbolchilari 5-o'rinni egalladilar.

1958-yilda basketbol bo'yicha XXR va O'zbekiston o'rtasida birinchi marta xalqaro uchrashuv o'tkazildi. Unda mehmonlar g'olib chiqdilar.

1959-yilda X O'zbekiston spratakiadasi boiib o'tdi. Spartakiada tamom bo'lganidan keyin Respublika terma jamoasi Moskva, Leningrad, Tallin, Riga shaharlarida safarda bo'ldi. Bu shaharlarda o'zining jismoniy, texnik-taktik

tayyorgarligini oshirish uchun terma jamoamiz mamlakatning eng kuchli jamoalari bilan bo'lgan uchrashuvlarda katta tajriba to'pladi.

1964-yildan boshlab o'zbek basketbolchilari "A" klassi bo'yicha oliy liga jamoalari bilan baravar mamlakat chempionatida ishtirok etib g'olib jamoalar jadvalida 10-12 o'rinni egalladi.

1970-yildan 1990-yilgacha bo'lgan davrda o'zbek basketbolchilarining "Universitet" erkaklar jamoasi "SKIF" xotin-qizlar jamoasi butun mamlakat tumirlarida, mamlakat chempionatlarida, "Burevestnik" O'zbekiston sharafiga himoya qiladi. O'yinchilarimiz orasidan ko'pgina mashhur basketbolchilar yetishib chiqdi. R. Salimova, A. Jarmuhamedova, E. Tornikidu shular jumlasidan bo'lib, ular mamlakat terma jamoasining a'zolari edilar.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'ldi. Xalqaro maydonda o'zbek sportchilarining chiqishlari uchun ba'zi bir qiyinchiliklar vujudga keldi. 1992-yil yanvarida O'zbekiston Milliy Olimpiya Komiteti qayta tashkil etildi, xuddi shu yili O'zbekiston XOQga a'zo bo'lib kirdi. O'zbekiston basketbolchilari shundan keyin tez-tez qatnasha boshladilar. Masalan, 1996-yilda bizning xotin-qizlar jamoamiz Pokistonda o'tkazilgan ayollar turnirida ishtirok etib, 2-o'rinni egalladi. Erkaklar jamoamiz 1995-yilda Seul shahrida o'tkazilgan XVIII Osiyo chempionatida ishtirok etib, 9-o'rinni egalladi. 1996-yilda AQSHda Armiya klublari o'rtasida musobaqalar o'tkazildi. Bu yerda bizning milliy jamoamiz "MHSK" 7-o'rinni egalladi. 1997-yilda Malayziyada erkaklar jamoalari o'rtasida xalqaro tumir o'tkazildi. Bu yerda o'zbek basketbolchilari uch g'alabaga erishib, yarim final o'ymlarida Rossiya jamoasiga yutqazib qo'yidilar va umumiy hisobda 3-o'rinni egalladilar.

O'zbekiston Respublikasini o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng 3 ta xalqaro toifadagi 12 ta milliy toifadagi hakamlar tayyorlandi. Har yili erkaklar va ayollar jamoalari o'rtasida basketbol bo'yicha Respublika Kubogi va birinchiligi o'tkaziladi. "MHSK" jamoasi 16 karra Respublika birinchiligida g'alaba qozonib shohsupaning yuqorisiga ko'tarilgan. 1991-1995-yillar oralig'ida ayollar jamoalari o'rtasida "SKIF" jamoasi Respublika birinchiligida g'olib bo'lgan

bo'lsa, 1996-yildan hozirgi kungacha Navoiyning "Nika" jamoasi birinchilikni hech kimga bermay kelmoqda. Har yili g'oliblikni qoiga kiritgan jamoa o'yinchilaridan 20 dar ortiq o'yinchiga sport ustasi unvoni berilib kelinmoqda.

Mamlakatimiz terma jamoasi Osiyo birinchiliklari saralash musobaqalariga muntazam qatnashib kelmoqda. Hozirgi kunda terma jamoa tarkibida tajribali o'yinchilar bilan birgalikda juda ko'p Yosh basketbolchilar ham ko'zga ko'rinmoqda.

Basketbol o'yin qoidalarini vujudga kelishi va shakllanishi

Basketbol o'yinining birinchi qoidalari o'yinning ixtirochisi muxtaram janob Djeysm Neysmit tomonidan ishlab chiqilib, 15-yanvar 1892-yilda AQSHda, Massachusets shtatining, Springfield kolledjining "Treugolnik" ("Uchburchak") gazetasida "Basketbol o'yinining qoidalari kitobi" deb nomlangan saxifa ostida narshga chiqarilgan. Bu "kitob" 13 ta qismdan iborat bo'lib, unda o'yinning asosiy maqsadi, o'yinchilarning harakatlari va to'p bilan o'ynash qoidalari borasida tushunchalar berilgan edi. Jumladan (Neysmitning fundamental qoidalari):

1. Basketbol faqat dumaloq to'p va qo'llar bilan o'ynaladi;
2. To'pni qo'lda ushlab turgan holatda qadam bosish taqiqlanadi;
3. O'yinchi maydonda xohlagan vaqda, xohlagan pozisiyani egallashi mumkin;
4. O'yinchilar o'rtasida personal (shaxsiy) kontaktlar (muloqotlar) taqiqlangan;
5. Halqalar gorizontol holatda o'yin maydonidan yukorida o'rnatilgan bo'lishi lozim.

Dastlabki qoidalar hozirgi kungi zamonaviy basketbolning qoidalarida ham saqlanib qolingan.

1927-yilda Shvetsariya poytaxti Jeneva shahrida Xalqaro Jismoniy tarbiya maktab tashkil topdi. Maktabning birinchi direktori lavozimiga Springfield kolledji o'qituvchisi doktor Elmer Berri tayinlandi. Yangi tuzilgan tashkilot Yevropa va boshqa qit'alarda basketbol rivojlanishiga, xalqaro "basketbol"

muloqotlar o'rnatilishiga va o'yin qoidalari shakillanishiga ijobiy tasir ko'rsata boshladi.

U paytlarda basketbol o'yini dunyo bo'ylab ko'p mamlakatlarda, deyarli barcha qit'alarga o'ynalganiga qaramay, xalqaro uchrashuvlar soni juda kam bo'lgan. Modddiy va transport muammolar bilan birga o'yin qoidalari turli mamlakatlarda o'zgacha tavsiflanganligi mamlakatlararo munosabatlar rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Masalan: Fransiya, Belgiya, Ispaniya va Portugaliya mamlakatlarida "fransuz" basketbol qoidalari qo'llangan bo'lsa, boshqa kit'alarda "amerikali" qoidalarni qo'llab musobaqalar o'tkazilgan. Bir biridan keskin farqlangan o'yin qoidalari xalqaro musoboqalami o'tkazish imkoniyatini bermagan. Bu va boshqa masalarni muxokama qilish maqsadida 8 ta mamlakat Argentina,

Gresiya, Italiya, Latviya, Portugaliya, Ruminiya, Chexoslovakiya, Shveysariya basketbol federatsiyalari vakillari, doktor Elmer Berri taklifnomasiga binoan 18-iyun 1932-yilda, birinchi xalqaro basketbol konferensiyasida ishtirok qilish maqsadida Jenevaga tashrif buyuradilar.

Birinchi xalqaro konferensiya ishtiroqchilari, "amerikaning" basketbol qoidariga kichik o'zgarishlar kiritgan holda, ularni yagona xalqaro qoidalar sifatida qabul qilinishiga va Xalqaro basketbol Federatsiyasi ("XBF" - o'zb. tili, "FIBA" - ingl. tili) tashkil qilinishiga bir ovozdan ovoz berishdi. SHveysariya fuqarolari Leon Buffar - XBF birinchi Prezidenti, Vilyam Djons esa - Bosh kotib lavozimlariga saylandilar.

Oradan ko'p vaqt o'tmay bu tashkilot qoshida bir nechta kommissiyalar tuzildi, birinchilardan, o'yin qoidalariga ma'sul - texnik komissiya faoliyatini boshladi.

1932-1948-yillarda texnik komissiya asosan "amerika" basketbol qoidalarini yagona tizimga keltirish ustida ko'p ish yuritdi va 1956-yilda Melbumdagi Olimpiya O'ynlaridan so'ng, XBF kongressida, xalqaro qoidalar AQSHning qoidalaridan deyarli ravishda farqli va mustaqil bo'lib shakillandi.

O'yin texnikasi va taktikasi rivojlanishi, o'yinchilarning o'yin mahorati o'sib, takomillashgan sari, jamoalar uchrashuvlari haqiqiy tomoshaga aylandi. Basketbolchilarning o'yin "san'ati" va jismoniy qobiliyatlari o'ziga xos tenglashdi. Basketbol nafis va barkamol, dunyo bo'ylab ko'plab tomoshabinlarni o'ziga jalb qiluvchi o'yinga aylandi.

XBFning texnik komissiyasi milliy federasiyalar bilan hamkorlikda zamon talablari va o'yin rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda qoidalar mazmuni va talqiniga kerakli miqdorda o'zgarishlar, yangiliklar va qo'shimchalar kiritib kelgan. Oxirgi o'n yil ichida ham qoidallarni shakllanishi davom etgan. Jumladan:

- 1998-yilda boshqa o'zgarishlar bilan birga, o'yin vaqti o'zgardi: 20 daqiqali 2 taym o'rniga, 10 daqiqali 4 chorak kiritildi;
- 2010-yilda maydon o'ichovlari o'zgardi. Uch ochkoli chiziq 6,25 metrdan 6,75 metrgacha surildi, chegaralangan zona (uch sekundli zona) oldingi trapesiya shaklidan, to'rtburchak shakliga o'zgardi, halqaning ostida esa yarim doira shaklida chiziq paydo bo'ldi (yarim doira qoidasi) va h.q.
- 2014-yilning o'zgarishlarining biri, o'yinchilarning raqamlari 0 va 00 dan 1 va 99 gacha bo'lishga ruxsat berildi.

Hozirgi kunda kelib o'yinning zamonga mos ravishda to'plangan "konuniyatlari" 50 banddan iborat 8 ta asosiy qoida "Basketbol rasmiy qoidalari" ("Official Basketball Rules" - ingl. tili) bilan ifodalangan bo'lib, ularning izohlari "Basketbol rasmiy qoidalariga rasmiy talqinlar" {"Official Basketball Rules. Official interpretations" - ingl. tili) deb nomlangan bir biriga teng hukuqiy kuchga ega bo'lgan kitoblarda jamlangan. Basketbolda o'yin mobaynida qo'llanadigan uskunalari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar esa "Basketbol rasmiy qoidalari. Basketbol uskunalari" ("Official Basketball Rules. Basketball Equipment" - ingl. Tili) izoh kitobida berilgan. Shuni alohida ta'kidlab joizki, dastlabki hujjatlarga, o'yin talablariga binoan o'zgarishlar kiritish jarayoni davom etmoqda, lekin qoidalarga nisbatan asosiy talablar uzliksiz saqlanib kelmoqda:

1.Qoidalar o'yinchilar, murabbiylar va hakamlar uchun tushunarli va aniq bulishi lozim;

2. Qoidalar raqib jamoalar o'zlarining ob'ektiv holatlarini namayon qilishlariga, bevosita Yordam va xizmat qilishi lozim;

3. Qoidalar o'yinchilar, murabbiylar va hakamlarning yuksak ma'naviy va irodali fazilatlarini shakllantirishi lozim;

4. Qoidalar o'yin texnikasi va taktikasini rivojlanishini rag'batlantirishi lozim.

Shunday qilib bir asrdan qo'proq vaqt mobaynida Neysmitning birinchi qoidalari ko'p marotaba o'zgarib, o'yinning rivojlanishiga va talablariga javob beruvchi va o'z o'rnida basketbol taraqqiyotiga va dunyo bo'ylab sevimli sport o'ynlari turiga aynashiga bevosita Yordam qilgan, mukammal va barqaror qonunlar to'plami bo'lib shakillandi.

O'yin mazmuni, maydon va uskunalar

Basketbolni besh o'yinchidan iborat bo'lgan ikkita jamoa o'ynaydi. Har bitta jamoaning maqsadi - raqib savatiga to'pni tushirish bilan birga, raqib jamoaga to'pni savatga tushirishiga qarshilik ko'rsatishdan iborat.

Jamoaning umumiy tarkibiga, 12 ta o'yinchi (jamoaning sardorini bilan birga), bosh murabbiy va murabbiy (kerak bo'lsa), va 5 ta (oshmasligi lozim) tibbiy-texnik xodimlar kiradi. O'yinvaqtida har bitta jamoadan 5 ta o'yinchi maydonda bo'lib, ular jamoaning boshga o'yinchilariga almashtirinishlari mumkin.



O 'yinchilarning sport libosi old va orqa tomoni bir xil umumiy rangli mayka va shortiklardan iborat bo'lib, maykalari 0 va 00 dan boshlab, hamda 1 va 99 gacha sonlar bilan raqamlanishi, raqamlar esa yakkol ko'rinib rangli ajralib turishlari lozim. Maykalaming old taraf raqamlari kamida 10 sm, orqa taraf qamida 20 sm balandliqda, qalinligi esa kamida 2 sm bo'lishi shart. Bitta jamoaning o'yinchilari bir xil raqamli maykalarda bo'lishlari taqiqlangan.

O'yindavomi 10 daqiqalik 4 ta chorakdan iborat. O'yinning birinchi va ikkinchi choraklari (o'yinning birinchi bo'limi), uchinchi va to'rtinchi choraklari (o'yinning ikkinchi bo'limi) oralig'ida va har bir ko'shimcha choraklar oralig'ida o'yindagi tanaffus 2 daqiqa davom etadi. Bo'limlarning oralig'idagi tanafusning vaqti esa 15 daqiqa davom etadi.

O'yinvaqti "toza vaqt" usulida belgilanadi. Ya'ni, qoidalarda belgilangan vaziyatlar tufayli o'yin jarayonida to'xtashlar vujudga kelsa, o'yin vaqti ham to'xtatilishi lozim. O'yinvaqti tugagach, to'plangan ochkolari bo'yicha ustunlik qilgan jamoa, o'yin g'olibi deb hisoblanadi. To'rtinchi chorak vaqti tugagach o'yin natijasi durrang bo'lsa, dastlabgi natijada muvozanat buzilgunga qadar 5 daqiqali qo'shimcha chorak (-lar) belgilanib o'yin davom etiladi.

O'yin (birinchi chorak) boshlanishi markaziy doira ichida birinchi bahsli top- o'ynalishi orkali amalga oshiriladi. To'p katta hakamning qo'lidan uzulgach o'yin boshlanadi deb hisoblanadi. Keyingi choraqlar maydon tashkarisidan kotiblar stolini qarshisidagi markaziy chiziqning davomida to'p o'yinchi qo'lig'a hakamdan berilganidan sung boshlanadi. Har bitta jamoadan 5 ta o'yinchi maydonga chiqmaguncha o'yin boshlanmaydi.

O'yinjarayonida ham bahsli to'p vaziyati vujudga kelishi mumkin. Bir Yoki bir nechta raqibdosh jamoalar o'yinchilari to'pni bir, Yoki ikki qo'llab maxkam ushlab, unga ortiqcha qo'pol xarajatlar qilmasdan egalik qilish umkoniyatlari bo'lmasa bahsli to'p vaziyati vujudga keladi.

Basketbolda to'p bilan harakatlar faqat qoi(-lar) orqali alanga oshiriladi. To'pni uzatish, savatga tashlash, dumalatish Yoki maydondagi istagan


tomonga olib yurish, qoidalarda belgilangan cheklanishlarga rioya qilingan sharoitdagina mumkin.

“Baxsli to‘p o‘ynalishi” - har bitta jamoadan bittadan o‘ynchi markaziy doira ichida to‘pni kuli bilan o‘z jamoadoshlariga oshirib berish uchun kurashni ifodalaydi. Hakam turpi yukoriga otgach, to‘p o‘zining eng yuqori nuqtasiga etganidan so‘ng ikkala o‘yinchi yurokiga sakrashi lozim va o‘z jamodoshlari tomon to‘pni o‘ynaltirishga harakat kiladi.

Halqaga tushirilgan to p va uning baholanishi kuydagi qoidalariga asosan amalga oshiriladi:

- jarim a chizig‘idan tashlangan to‘pga - 1 ochko hisoblanadi;
- 2 ochkoli zonadan tashlangan to‘pga - 2 ochko hisoblanadi;
- 3 ochkoli zonadan tashlangan to‘pga - 3 ochko hisoblanadi.

O‘yin maydoni to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, yuzasi qattiq, yassi hamda to‘siqlardan holi joy bo‘lishi kerak. O‘yinmaydoni uzunligi 28 m, kengligi 15 m tashkil qilib, ulchovlar chegaralangan chiziqlarning ichki qirrasidan o‘lchanishi lozim. Maydon chizmasini belgilovchi barcha chiziqlar 5 sm kengligida oq bo‘Yoq bilan chizilib, yaqqol ko‘rinishlari lozim. Maydonning uzun tomonlarini belgilovchi chiziqlar - Yon chiziqlar, qisqa tomonlarini belgilovchi chiziqlar esa - en chiziqlar deb ataladi. Markaziy chiziq en chiziqlariga parallel holda Yon chiziqlarning toq o‘rtasidan maydonda belgilanishi lozim. Dastlabki chiziq ikkala Yon chiziqlardan 15 sm tashqariga chiqib turishi kerak. To‘qnashuv foli belgilanmaydigan yarim doiralar o‘yin maydonida belgilangan va:



-halqaning mutloq poldagi markaz nuqtasidan, o'zining ichqi qirrasigacha o'lchangan, radiusi 1,25 m bo'lgan yarim doira va,

-yon chiziqqa perpendikular, bir-biriga parallel bo'lgan, halqaning mutloq poldagi markaz nuqtasidan, uzining ichqi qirrasigacha 1,25 m masofada va tugash qismi yon chiziqning ichki kirasiga 1,20 m masofada, uzunligi 0,375 m tashkil qiladigan chiziqlar bilan ajralib turishi lozim.

Jamoa o'rindig'i zonalari maydon tashqarisida, kotib stoli va jamoalar o'rindiqlari joylashgan tomonda belgilanishi lozim. Zonalaming tashqari chegarasi yon chiziqning davomi bo'lgan, ichki chegarasi esa markaziy chiziqdan 5 m narida belgilangan 2 m li chiziqlar va old chegarasi maydonning yon chiziqlari bilan ajralib turishi lozim.

Maydon tashqarisida kotib stoliga nisbatan qarshi tomonda yon chiziqning tashkari chekkasida uzunligi 0,15 m li ikkita to'pni o'yinga kiritish chiziqlari belgilanishi lozim. Ulaming tashqi chekkasi yon chiziqlaming ichki chekkasidan 8,325 m masofani tashkil qilishi lozim.

To'g'ri to'rtburchak shaklida ajratilgan, en chiziq (-lar), jarima to'pini tashlash chiziqlari va en chiziqlardan o'tkazilgan paralel chiziqlar bilan chegaralangan maydon qismi chegaralangan zona (- lar) deb ataladi. Jarima to'pini bajarish jarayonida o'yinchilarning to'p uchun kurash joylari, chegaralangan zona(-lar)ning ikkala yon tomonida, uzunligi 0,1 m mahsus belgilar orqali belgilanadi.

Birinchi belgi yon chiziqning ichki chekkasidan 1,75 m uzoqlikda, kolgan uchta belgilar esa bir birining ichki chekkalaridan 0,85 m uzoqlikda belgilanadi. Ikkinchi belgi eni 0,4 m, kolgan uchta belgilar esa 0,05 m boiishi lozim. Jarima to'pini tashlash chizig'7 uzunligi 3.6 m tashkil qilib en chiziqlaming ichki chekkasidan 5.8 m masofada maydonda belgilanadi.

Uch ochkoli zonalar maydonda quyidagi chiziqlar bilan belgilanadi:

- en chiziqqa perpendikulyar holda, yon chiziqlarning ichki qirrasidan o'zlarining tashqi qirrasigacha 0,90 m masofada o'tadigan 2 ta parallel chiziq;

- halqaning mutloq poldagi markaz nuqtasidan, o'zining tashqi qirrasigacha o'lchangan, radiusi 6,75 m bo'lgan yarim doira.

O'yinmaydoni basketbol uskunalar bilan jixozlanishi lozim. Talab qilanigan uskunalar ro'yxati, ulaming batafsil tavsili va belgilangan standart ulchamlari "Basketbol rasmiy qoidalari " kitobida va "Basketbol uskunalar" izohida yoritib berilgan. Barcha o'yn ishtirokchilari, basketbol anjomlarini ishlab chiqaruvchilar, mahalliy va xalqaro basketbol federasiyalar tegishli ravishda qoidalarda aks etilgan uskunalar standartlariga amal qilib, o'zlarining sport tadbirlari dasturlariga mos uskunalar standartlarini tasdiqlashlari lozim.

Dasturlarda belgilangan anjom-uskunalaridan foydalanish jarayoni quyidagi talablarga javob berishi shart:

1. Uskunalar sifatli va mustahkam bo'lishi lozim;

2. O'yinchilaming xayot xavfsizligi taminlanishi shart (tan-jarohat holatlarini oldini olish uskunalami texnologik holatini va himoyalovchi moslamalarni vaqtida nazorat qilish orqali amalga oshirilishi lozim).

3. Estetik ko'rinishga ega;

4. Foydalanishga qulay va mobil bo'lishi lozim;

Hozirgi kunda yuqori darajali musobaqalar (Olimpiya tumirlari, Jahon va Qit'alar Chempionatlari) o'tqazish uchun mo'ljallangan barcha o'yingoxlar eng zamonaviy va yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan, foydalanish talablariga to'liq javob beradigan basketbol uskunalar, anjomlar va moslamalar bilan jihozlangan.

Aynan shu uskunalaming na'munalari va ulaming o'lchamlari dastlabki sahifadan o'rin olgan. O'yinzalida ikkita (2) ("Shchit") - maxsus qurilmasi o'yin maydonning ikkala en chiziqlarga bittadan (1) joylanishi lozim. Har bitta qurilma:


- savat ortidagi to'siq "shchit" - bitta (1);

- "shchit"ga o'rnatilgan savat (halqa bilan) - bitta(1);

-basketbol to'ri - bitta (1);

- "shchit"ni ushlab tumvchi tayanch - bitta (1);


- ximoyalovchi yumshoq koplamalardan iborat.




“Shchit” o‘lchovlari gorizontal bo‘yicha 1,80 m va vertikal bo‘yicha 1,05 m bolishi, pastki qirrasi maydon yuzasidan 2,90 m balandlikda turishi kerak. To‘g‘ri to‘rtburchakning tashqi o‘lchovlari gorizontaliga 59 sm, vertikaliga 45 sm bo‘lishi kerak. Uning asos chizig‘ining yuqori qismi halqa bilan teng turishi kerak. Shchitlaming chetlari 0,5 sm kenglikdagi chiziqlar bilan belgilanadi. Bu chiziqlar shchit rangidan yaqqol ajralib turishi lozim. Shchitlaming hoshiyalari va ularda chizilgan to‘g‘ri to‘rtburchakning ranglari bir xil bo‘lishi shart.

Ikkala shchit yumshoq material bilan quyidagicha qoplangan bo‘lishi kerak: shchitlaming pastki qirrasi va Yon tomonlari uchun yumshoq o‘ram tagidan kamida 35 sm uzoqlikda tag sirtini va Yonlaming ustini qoplaydi. Oldingi va orqa sirtlar tagidan kamida 0,2 sm uzoqlikda qoplanadi va to‘ldirilgan material kamida 0,2 sm qalinlikda bo‘lishi lozim. Shitning pastki qismi to‘ldirilgan material 0,5 sm qalinlikda bo‘lishi kerak.

Savatlar halqa va to‘rlardan iborat. Halqa qattiq metallardan tayyorlangan bo‘lib, uning ichki diametri qamida 450 mm ga teng bo‘lib, 459 mm dan ko‘p bo‘lmasligi, va to‘q sariq (sabzi) rangda bo‘yalishi lozim. Halqa metallining qalinligi kamida 16 mm ga teng bo‘lib va 20 mm dan ko‘p bo‘lmasligi lozim.




Basketbol to'rlari halqalarga 12 ta ilmoqlar Yoki shunga o'xshash ilgaklari orqali o'rnatilishi lozim. Ilgaqlar o'tkir qismlarsiz, o'yinchilar barmoqlariga shikast etkazmaydigan silliq bo'lishi shart.



Halqalar ichki chekkasining yaqin nuqtasi shchitning yuza qismidan 151 mm uzoqlikda joylanishi kerak. Halqalarga ilinadigan to'rlar oq kanopdan tayyorlanadi, ulaming tuzilishi shunday bo'lishi lozimki, to'p savat orasidan o'tayotgan vaqtda bir lahza ushlanib qolishi. To'rlaming uzunligi kamida 400 mm bo'lib va 450 mm ko'p bo'lmasligi lozim. To'p sharsimon shaklda va tasdiqlangan qizg'ish rangda bo'lishi kerak: u sirti bilan birga charmdan, rezina Yoki sun'iy xomashYodan tayyorlanadi; uning aylanasi uzunligi 749 sm dan kam va 780 sm dan ko'p bo'lmasligi lozim; u kamida 567 g dan kam va 650 g dan

ko'p bo'lmagan og'irlikka ega bo'lishi kerak; unga havo shunday to'ldirilishi kerakki, to'p taxminan 1,8 m balandlikdan (to'pning pastki qirrasidan o'lchanganda) o'yin maydoniga Yoki qattiq Yog'och polga tushgan vaqtida to'pning yuqori qirrasidan o'lchanganda 1,20 m dan kam va 1,40 m dan ortiq bo'lmagan balandlikka ko'tarilishi lozim.



Basketbol to'plari basketbol o'yini uchun havo bilan damlangan to'p. To'p sharsimon(sferik) shaklga ega bo'lishi va sakkizta qo'shimchalar va qora chiziqlarning an'anaviy naqshlari bilan to'q sariq rangga ega bo'lishi kerak. To'pning og'irligi (rasmiy ravishda qabul qilingan o'lcham -7) 567-650 gr, aylana 749-780 mm. bundan tashqari, kichik o'lchamdagi to'plar ham ishlatiladi: erkaklar jamoalari o'yinlarida "hajmi 7", ayollar jamoalari o'yinlarida - "hajmi 6", mini-basketbol o'yinlarida - "hajmi 5".

Basketbol to'plari ikki xil: faqat xonalarda o'ynash uchun mo'ljallangan (ingliz tili. ichki) va universal, ya'ni bino va ko'chada foydalanish uchun mos (ingliz tili. ichki/tashqi).

To'p ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyalar: Spalding, Eritilgan, Uilson, Rawlines, Nike.

Hakamlar tarkibi va hakamlilik qilish asoslari

Basketbolda o'yinni hakamlar boshqaradilar. Hakamlar tarkibiga katta hakam, 1 yoki 2 Yordamchi hakam-, kotib-hakamlar va komissar (tayinlangan bo'lsa) kiradilar. Kotib-hakamlar deyilganda kotib, uning yordamchisi, soniya hisoblovchi va to'pni savatga tashlash vaqti operatori tushuniladi. Komissar kotiblar stolida, kotib va soniya hisoblovchi o'rtasida o'tirishi lozim.

Hakamlar, kotib hakamlar va komissar o'yinni FIBAning rasmiy qoidalariga muvofiq o'tkazishlari lozim. Ular dastlabgi qoidalariga o'zgartirish kiritish huquqiga ega emaslar.

Hozirgi kunda basketbol o'yinlarini maydonda 3ta hakam (katta hakam - "Reefere" va 2 yordamchi hakam - "Umpire"), yoki, musobaqa tashkilotchilari qaroriga asosan 2ta hakam (katta hakam - "Reefere" va 1 yordamchi hakam - "Umpire") boshqarishi mumkin. Kotib stoli maydonga nisbatan tepalikda joylanoahi lozim. Kotib hakamlar bir xil sport libosida bulishlari lozim. Hakamlar obro'-e'tiborga ega bo'lishlari kerakligi bilan birga, ular xushmuomalali bo'lishlari ham lozim: "Do'stona tabassum ba'zi paytlarda foydali bo'lishi mumkin!", - degan naqlni hakamlar yodida tutishi lozim.



Hakamlarning o'yin jarayonida o'z faoliyatlarini qoidalarda belgilangan hukuqlari va majburiyatlari asosida olib boradilar. Har bitta hakam o'zining vazifalari doirasida qarorlar qabul qilishga haqlidir va shu bilan birga boshqa hakam(-lar) qabul qilgan qarorlarni bekor yoki shubha qilishga haqli emas.

Hakamlarning qabul qilgan qarorlari qat'iy bo'lib ular muxoqama qilinib inobatsiz qolishi mumkin emas.

Hakamlarning huquqlari o'yin boshlanishi belgilangan vaqtdan 20 daqiqa oldin, hakamlar maydonga chiqishlari bilan kuchga kiradi va o'yin soatining o'yin tugashi signali jaranglaganidan so'ng tugaydi.

Boshqa sport o'yinlaridan (voleybol, tennis, stol tenisi) farqli ravishda basketbol hakamlari maydonda o'yin yonalishiga qarab harakat qilishadi. O'yinvaqtida maydonda yuzaga kelgan vaziyatlarga to'g'ri baho berish, qoida buzarlilarni hatosiz aniqlash va shu bilan birga o'yin suratiga salbiy ta'sir qilmaslik, hakamlardan o'yinchilarga xos jismoniy tayyorgarlik, psixologik barqarorlik, basketbol texni- kasidan, taktikasidan va albatta qoidalaridan chukur bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

Hakamlarning vazifalari, huquqlari, hakamlilik qilish jarayoni, ularning harakatlari va imo ishoralari haqida batafsil izohli ma'lumot "FIBA" - xalqaro basketbol federatsiyasi "FIBA rasmiy qoidalari. Uch (Ikki) xakam mexanikasi" (Official Basketball Rules. Three (Two) person officiating - ingliz tili) deb nomlangan kitobida Yoritilgan. Jumladan ayrim misollar.

Bob yuzasidan nazorat savollari:

- 1 "pok-to-pok" nima?
- 2 Basketbol paydo bo'lishi haqida nimalarni o'rgandingiz?
- 3 Basketbol o'yinining rivojlanishi necha bosqichdan iborat?
- 4 O'zbekiston sportchilarini "basketbol" degan o'yin bilan birinchi marta kim tanishtirgan?
- 5 O'zbekistonda birinchi basketbol o'yini qachon bo'lib o'tgan edi?
- 6 Basketbol o'yinining birinchi qoidalari kim tomonidan o'ylab topilgan?
- 7 Jamoaning umumiy tarkibiga nechta o'yinchi kiradi?
- 8 Baxsli to'p o'yinlashi nima?
- 9 Basketbol to'plariga ta'rif bering.

Asosiy adabiyotlar

1. D. Brown “Handbook of Basketball Fundamentals and Drills”. 2010 U.S.A.-109 p
2. J. Wooden “Coaching Basketball successfully”. U.S.A. 2003 -225 p
3. Ганиева Ф.В. Баскетбол ўйинининг расмий қоидалари. Т.: 2007. - 124 б.
4. Полиевский С.А., Айрапетьянц Л.Р., Губенко Л.Я, Романов В.А. Тренажеры в спортивных играх. Т.: Ибн Сино, 1992. – 134 с.
5. Расулев А.Т. Баскетбол. //Олий ўқув юртлари учун дарслик. ЎзДЖТИ нашриёт бўлими. 1998. -278 б.
6. Спортивные игры: Техника, тактика, методика обучения. // Учеб. для учащ. колл. и акад. лиц. Под ред. Л.Р.Айрапетьянца. Т.: Илм Зиё, 2012. - 277 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонун. //Ўзбекистоннинг янги қонунлари. №23. Т.: Адолат, 200, Б.211-223.
2. Государственные образовательные стандарты общего, среднего образования. Т.: Ўқитувчи, 1999, том 1-5.
3. Айрапетьянц Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. Т.: Ибн Сино, 1991. – 160 с.
4. Годик М.А.Физическая подготовка футболистов. М.: Терра-Спорт, 2006. - 272 с.
5. Родионов А.В. Практика психологии спорта. Т.: Lider Press, 2008. – 236с.
6. Соколова Н.Д., Ганиева Ф.В., Исматуллаев Х.А. Баскетбол. //Маърузалар туплами, (III курс). Т.: 2004. - 185 б.
7. Соколова Н.Д. Новые подходы при отборе детей в ДЮСШ в группы начальной подготовки по баскетболу. // Методическая разработка. Т.: 2007. – 27 с.

8. Судейский комитет РФБ. Официальные Правила Баскетбола 2006. // Руководство для судей. ЗАО «ИнфоБаскет». – 78с.
9. Сууркаск В., Гейз Л. Правила соревнований. М.: 2004.-101 с.

III-BOB Beyzbol

Beysbol (inglizcha: *Baseball*, *base* - "baza", *ball* - "to'p") bita va beysbol to'pi bilan jamoa bo'lib o'ynaladigan sport turidir. O'yindan maqsad raqib jamoa o'yinchisi (pitcher) uloqtirgan koptokni bita bilan urib qaytarish va koptok raqib jamoa qo'liga tushguncha 4 ta bazaga tegib, 90 fut (27,4 metr) masofani aylanib chiqishdir.

Beyzbolning tarixi

Beyzbol Angliya futbolchilarining o'yinlaridan evolyutsiyaga aylandi va u ham kriket uchun kuyov bo'lib xizmat qiladi, u ham mudofaa va jinoyatga muqobil bo'lgan ikkita jamoani o'z ichiga oladi va uni "yutib yuborishga" urinayotgan batsmanga to'p tashlashni o'z ichiga oladi . Bazaviy to'pning dastlabki hujjatlari 1838 yilga to'g'ri keladi, ammo 1700-yillarning oxirlariga kelib bazaviy to'p o'yinlari haqida ma'lumot bor.

Birinchi professional jamoa 1869 yilda (Cincinnati Red Stockings) tashkil qilingan va 1800 yillarning oxirida Qo'shma Shtatlarning "milliy taomlari" bo'lish uchun mashhurlikka erishdi. Ikkita yirik ligalar mavsum oxirida 1876 yilda (milliy ligada) va 1903 yilgi (Amerika ligasi) va birinchi zamonaviy jahon seriyasida bir-biriga qarshi ikkita chempionatni tashkil etgan.

Jahon seriyasining va ikkita yirik liganing tug'ilishi bilan beysbol 20-asrning boshlarida oltin davrga aylandi. 1900-1919 yillar mobaynida "o'lik to'p" hali ishlatilgan va Walter Jonson, Christy Mathewson va Cy Young singari buyuk qoziqlar egallagan o'yin edi.

Beysbolda xalqaro o'sish Qo'shma Shtatlar va Kanadadan tashqarida birinchi rasmiy beysbol ligasi 1878 yilda Kubada boy beysbol an'anasini saqlab qolgan va milliy terma jamoa dunyoning eng kuchli jamoalaridan biri bo'lgan. XXII asrda butun dunyo bo'ylab xalqaro sayohatlar uyushtirildi. Gollandiyada

(1922), Avstraliya (1934), Yaponiya (1936), Puerto-Riko (1938), Venesuela (1945), Meksika (1945), Italiya (1948) va Dominikan Respublikasida (1951), Koreya (1982), Tayvan (1990) va Xitoy (2003).

Birinchi xalqaro musobaqa 1938 yili Beysbol Jahon Kubogi deb nomlandi. Faqatgina havaskor futbolchilar 1996 yilga qadar Jahon Kubogida ishtirok etishga ruxsat berilgandi.

Beyzbol Shimoliy Amerikadagi eng ommabop sportlardan biri bo'lib, u hali o'sib bormoqda. 2007 yilda 30 ta yirik liga jamoalari 79,5 million kishini tashkil etgan, bu 2006 yildagi 76 milliondan 4,5 foizgacha.

Dunyo bo'ylab boshqa cho'ntaklarda ham mashhur, ammo Olimpiada o'yinlarida davom etish uchun dunyoda etarlicha turtki yo'q. Oliy liganing o'yinchilari Olimpiya o'yinlarida o'ynamasligi asosiy omil hisoblanadi. Eng raqobatli beysbol Shimoliy Amerika, Karib dengizi va Uzoq Sharqda o'tkaziladi. Dunyoning boshqa joylarida qoladi.

Beyzbol qoidolari

Beyzbol qoidolari odamlarning fikricha, murakkab emas. Qisqacha aytganda, ular pitching, urish va to'pni qo'lga olish. Beysbol o'yinlari ikki jamoa o'rtasida to'planib, hujum va himoya qilish uchun aylanadi. 9-o'yinda eng ko'p ball olgan jamoa g'alaba qozondi. Jamoaning uchta o'yinidan so'ng, ikki jamoa hujum va mudofaa bilan almashdi. Agar ikkala jamoa to'qqizinchi o'yinda to'ldirilgan bo'lsa, o'yinni yutishigacha o'yinni davom ettirish mumkin.

Hujumkor jamoa a'zolari to'pni urishganidan so'ng bazani yugurib, so'ng birinchi, ikkinchi va uchinchi pog'onalarga kirishdi. Oxir-oqibat, uy bazasida qilingan hujum xavfsizroq edi. Beyzbol o'yinidagi ballar ko'pchiligi miyasi ilk bor urishgan va keyin uy bazasiga boradigan birinchi marotaba, lekin juda qiziqarli uy ishi ham bor. (uy egasi darvozaga urilib ketishidan keyin) to'pni urib ketgandan so'ng, uy egasi to'pni urib ketishidan qo'rqadi. To'plam to'rtta yomon to'p tashlagach, chig'anoq avtomatik ravishda bazaga urilishi mumkin.

Beyzbol qoidolari Har bir alohida o'yinda hujum va mudofaada navbat beradigan ikkita jamoa ishtirok etadi.

O'yinning maqsadi raqib jamoaga qaraganda ko'proq ochko / yugurish (inglizcha yugurish). Nuqtani hujumkor guruh o'yinchisi 90 fut (27,4 metr) maydonning burchaklarida joylashgan barcha asoslarni (erga bog'langan (30 sm x 30 sm) prokladkalar) navbat bilan yugurganida hisoblashadi.

Odatda beysbol to'p shaklida o'ralgan mushtning o'lchami, ipning bir qatlamiga o'ralgan mantar yoki rezina yadrodan iborat. To'pning ustki qismi qizil choklar bilan oq qatlamning ikki qatlami bilan qoplangan. Har bir jamoada 9 yoki 10 o'yinchi o'ynaydi. "Kvadrat" o'yin burchaklari soat millariga teskari "uy", 1-tayanch, 2-tayanch va 3-tayanch deb ataladi.



O'yin boshida jamoalardan biri (odatda mezbon jamoa) himoyada o'ynaydi. Himoyada o'ynaydigan jamoaning 9 o'yinchisi maydonga chiqib, boshqa jamoaga ochko keltirmaslikka harakat qilishadi. Mehmonlar jamoasi birinchi bo'lib hujumni boshlashdi va ochko to'plashga harakat qilishdi. Ballar shu tarzda to'planadi: "uydan" boshlab, hujum qiluvchi jamoaning har bir o'yinchisi keyingi bazaga (maydonning burchagiga) soat millariga teskari yo'nalishda yugurish huquqini olishga intiladi va unga etib borgach, bazaga tegib, har bir keyingi bazaga yugurishni davom ettiradi va nihoyat "uy" ga qaytadi. ", shunday qilib ball to'playdilar.



Jamoada o'yinchilar juda ko'p, lekin bir vaqtning o'zida 9 kishidan ko'p bo'lmaydi. Himoyachilarning barchasi maydonda turli pozitsiyalarda. Hujumchi faqat "uy" da o'yinni boshlaydi (chillak yoki bita ushlagan holda) va agar u biron-bir bazaga yugurib chiqsa yoki "aut" bo'lsa (quyida bu haqida), u holda bitani boshqa beysbol o'yinchisi oladi. Maydondagi hujumkor jamoa bir vaqtning o'zida maksimal 4 kishiga ("uyda" va uchta bazaning har birida) ega bo'lishi mumkin.

Agar beysbol o'yinchisi koptok bilan to'pni muvaffaqiyatli ursa va u navbat bilan "uydan" 1-tayanchga, keyin 2-chi, 3-o'ringa yugurib, "uy" ga qaytib kelsa, uning jamoasi bir ochkoga ega bo'ladi. Bunday muvaffaqiyatli yugurish unchalik keng tarqalgan emas - beysbolda eng mashhur hisob 7: 4, garchi ikkalasi ham 11: 3 va 1: 0 bo'lsa.



Hujumkor jamoaning uchta o'yinchisi aloqada bo'lganda, u himoyada davom etadi. Har bir to'p uzatishda jamoa bir marta hujumda va himoyada o'ynaydi. Hammasi bo'lib 9tadan to'p o'ynaydi, agar 9ta atışdan keyin durang bo'lsa, 10, 11 va hokazo g'olib aniqlangunga qadar o'ynaydi. Bitta beysbol o'yinining davomiyligi rekordi 7 soatdan oshadi.

Beyzbol maydoni

Beysbol o'yinlari kursi to'rtta tayanchli o'ng burchakli fandır. Uy plitasi kauchuk, yumshoq plastik va yog'ochdan yasalgan. Tuproqqa va joyga o'rnatilishi kerak. 1, 2 va 3 to'siq 38.10 sm kvadratdir. Ular tuvali tikilgan va jigarrang va jun kabi yumshoq moslamalarni o'z ichiga oladi. Ular qoidalarga muvofiq sohada aniqlanishi kerak. G'ildirak yog'och yoki alyuminiydan tayyorlangan, to'p esa yorqin chiziq bilan tikilgan. Himoyachilar qo'lqop kiyishlari kerak. Qo'lqoplar va 1-basseyn qo'lqop kiyishlari mumkin. Tutucuda qon to'kilishi, ko'krak qafasi himoyasi va oyoq qalqoni bo'lishi kerak. Bu marmar korpus qopqog'ini kiyishi kerak. Kreslolar charmdan yasalgan, old va orqa palmalarning har birida uchta tekis chiviq bor.



Moviy osmon ostida, yashil o'tlar, ish yukini tushirib, jamoangizga o'zingizni topshiring, do'stlaringiz odatdagidek hamkasblaringizdir, kulgili beysbol o'yinlarida siz o'zingizni his qila olasiz bag'rikenglik va dalda berishning ahamiyati, ustoz bo'lishga, o'z nuqtai nazariga ega bo'lishga va umumiy ahvolingiz haqida fikr yuritishga imkon beradi. Qattiq raqib o'zaro to'qnashuvda,

siz harakat qilayotganda, o'yinchilarni turtkilarkan, har kim bilan taktikani muhokama qilayotganingizda, aslida sizga tegishli bo'lgan mo''jiza yaratasisiz.



Beysbolda joylar va yerlarni taqsimlash

Pichan: U beysbol jamoasining asosiy o'yinchi. Uning vazifasi, raqib jamoaning o'yinchi tomonidan qaytarilmasligi niyatida to'pni otishdir.

Catcher: Uning funktsiyasi raketalar o'yinchi tomonidan tashlangan to'plarni qo'lga olish, agar u raqib jamoaning o'yinchi tomonidan qaytarilmasa.

Birinchi baseman: Uning funktsiyasi birinchi poydevorni himoya qilish va unga kiritilgan o'yinlarni qamrab olishdir.

Ikkinchi baseman: Uning vazifasi ikkinchi tayanchni egallash va birinchi tayanch bilan birgalikda ikkita o'yin deb ataladigan o'yinni bajarishdir.

Uchinchi baseman: Uning vazifasi uchinchi o'rinni egallash va uni himoya qilish, shuningdek, unda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'yinlarni qamrab olishdir.

Interbase / shortstop: Ikkinchi va uchinchi bazalar orasidagi masofani egallaydi. Uning vazifasi ikkilamchi o'yinda ikkinchi pog'ona maydonini qoplashdir.

Chap himoyachlar: Chap o'yinchi deb nomlanuvchi himoyaga javobgar.

Markaziy boshqaruvchisi / U markaziy himoyani himoya qilish uchun mas'ul bo'lgan o'yinchi.

O'ng himoyachi: To'g'ri maydonni himoya qilish uchun mas'ul bo'lgan o'yinchi.

Hitter: Beysbol to'pni qaytarish uchun mas'ul.



Ba'zi beysbol atamalari

"Yagona"- zarba, natijada qamchi birinchi bazaga erishdi

"Ikki marta"- zarba, natijada qamchi ikkinchi bazaga erishdi

"Uchlik"- zarba, natijada qamchi uchinchi bazaga erishdi

"Xit"- to'pni bazaga tushirishga imkon beradigan to'pga aniq urish

"Nosozlik"- zarba, shundan keyin to'p chetga o'tib ketadi. Agar maydonchada 2tadan kam zarba bo'lsa," zarba "hisoblanadi.

"Urish"- zarba 3 ta zarbadan keyin chiqib ketadi

"Uchib ketish"- zarba himoyachilar tezkor ravishda to'pni ushlaganlaridan keyin chiqib ketadi

Tuproq tashqarisida"- zarba himoyachilar to'pni birinchi tayanchga etkazib bergandan keyin chiqib ketadi

"Vok"- to'p 4 to'pdan keyin birinchi tayanchni oladi

"Yugurish"- o'yinchi uyiga etib kelgan jamoani himoya qiladigan ochko

"Yuguruvchi"- hujum o'yinchisi bazada (chunki u endi ura olmaydi, endi uni urishmaydi)

"**Imperiya**"- hakam (beysbolda 4 ta hakam ishlaydi, har bir bazada bittadan va uyda bittadan)

"**Nou-xit**"- O'yin davomida xayol bitta zarba berishga imkon bermadi

"**Zo'r o'yin**"- Butun o'yin davomida kovak hech bir o'yinchiga 1-tayanchni olishga imkon bermadi (kamdan kam)

Bob yuzasidan nazorat savollari:

1 Beyzbol qanday o'yin?

2 Beyzbol so'zining ma'nosi nima?

3 Birinchi professional jamoa nechanchi yilda tashkil qilingan?

4 Beyzbol o'yin qoidalari qanday?

5 Beyzbol o'yin maydoni haqida gapirib bering.

Foydalanilgan manbaalar

O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<http://mlb.mlb.com/>

<http://www.cbbs.com.br/>

IV-BOB Chim ustida xokkey

Chim ustida xokkey tarixi

Chim ustida xokkeyiga oid eng qadimiy topilma Beni Xasan shahri (Nil vodiysi) shahri yaqinidagi piramidada to'p uchun kurashayotgan ikki o'yinchi tasviri hisoblanadi. Yaponlar xuddi shunday o'yinlarni asteklar bilan o'tkazgan. Angliyadagi Kanterberi soborining shimoliy xoridagi vitray oynasida bolakay va koptok ushlab turgani tasvirlangan, bu bizga bu tasvir miloddan avvalgi 1200 yilga tegishli ekanligini aytadi. Chim ustida xokkey hozirgi shaklini 19-asrning o'rtalarida egallagan va Angliyadagi maktab va universitetlarda o'ynagan. Birinchi qoidalar 1952 yilda tuzilgan. 1861 yilda Londonda "Blackheath" birinchi

xokkey klubi tashkil etildi va keyinchalik boshqa klublar paydo bo'ldi.

Chim ustida xokkey - bu jamoaviy sport turi (har bir jamoada o'n bir kishi), uni tayoq va to'p yordamida ikki jamoa o'ynaydi. Musobaqa Xalqaro chim ustida xokkey federatsiyasi (FR Fédération Internationale de Hockey, FIH) tomonidan tashkil etiladi. Xalqaro chim ustida xokkey federatsiyasiga 126 dan ortiq davlat kiradi.



Chim ustida xokkey hozirgi shaklini XIX asr o'rtalarida oldi, Angliyadagi maktab va universitetlarda o'ynaldi. 1875 yilda London xokkey uyushmasi tomonidan chim ustida xokkeyning zamonaviy o'yin qoidalari ishlab chiqildi. 1886 yil 18 yanvarda birinchi rasmiy xokkey milliy assotsiatsiyasi tuzildi va u bilan bir qator qoidalar to'plami tuzildi. Bu qoida 1907 yilda tasdiqlandi. Bu qoidalarga 1952 yilda qo'shimcha va yangilik ishlab chiqilgan. 1861 yilda Londonda birinchi Blackxit xokkey klubi tashkil etildi, keyinchalik boshqa klublar paydo bo'ldi: Teddington, Surbiton, Richmond, Sharqiy Surrey.. Chim ustida xokkeyning erkaklar musobaqasi 1908 yildan, ayollar musobaqasi 1980 yildan olimpiada dasturiga kiritilgan. 1924 yilda Xalqaro chim ustida xokkey federatsiyasi (FIH) tashkil etilgan, unga 120 davlat a'zo (2003). Bu federatsiya 1970 yildan erkaklar o'rtasida, 1973 yildan ayollar o'rtasida jahon chempionatlari o'tkazadi. Chim ustida xokkey Hindiston, Pokiston, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiyada rivojlangan.

O'zbekistonda chim ustida xokkey 20-asrning 70-yillaridan ommalasha

boshladi. 1972 yilda Andijonda dastlabki chim ustida xokkey jamoasi tuzildi. 1973 yildan erkaklar, 1975 yildan ayollar o'rtasida chim ustida xokkey musobaqalari o'tkazila boshlandi. Respublikada chim ustida xokkeyga ixtisoslashgan 10 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi bor, ularda 45 nafar murabbiy qo'l ostida 1200 nafardan ziyod o'quvchi shug'ullanadi (2004). Miriman Kim, Oybek Patiddinov, Rinat Mamatkazin, Liliya Mutalapova kabi mahoratli murabbiylar yetakchi xokkeychilarni tarbiyaladi. Ayniqsa, ayol xokkeychilar yuqori natijalarga erishdi. Valentina Zazdravnix, Nelliko Gorbatkova, Laylo Axmerova va Alina Xam olimpiada o'yinlari bronza medali sovrindorlaridir (1980, Moskva). O'zbekiston chim ustida xokkey ayollar terma jamoasi Osiyo o'yinlari va jahon kubogi finalida qatnashgan.

O'yin qoidalari

Xokkeyning barcha turlarida bo'lgani kabi, Chim ustida xokkeychilari ham tayoqlar (klyushka) dan foydalanishadi. O'yinning maqsadi - tayoq bilan to'pni raqib darvozasiga kiritish. Darvozabondan boshqa har qanday o'yinchining qo'llari yoki oyoqlari bilan to'pga tegishi taqiqlanadi. Shuningdek, to'pni faqat tayoqning tekis tomoniga tekkizish mumkin, dumaloq tomonga teggani uchun jarima zarbasi beriladi.

Agar to'p hujumkor jamoadan maydon tashqarisiga chiqib ketsa, u holda darvozadan zarba beriladi. Agar to'p himoyadan chiqsa, u holda burchakdan o'ynaladi.

Agar himoyalananayotgan jamoaning o'yinchisi zarbani amalga oshirishda qoidalarni buzgan bo'lsa, unda hujum qiluvchi jamoa jarima zarbasini amalga oshiradi.

Darvozabon to'pni faqat tananing biron bir qismi yoki tayoqning o'ynaydigan tomoni bilan urishi mumkin. Darvozabon to'pni o'z qo'li bilan qasddan urgan taqdirda, jarima belgilanadi.

Jarima solingan darvozabon uchun "o'lik zonalar" - chapdan chap burchak, yerdan 40-60 sm masofada (darvozabon balandligiga qarab) va yuqori o'ngdagi "to'qqiz" (darvozabon o'ng qo'l bilan bo'lsa).

G'alabani o'yin davomida raqibga qaraganda ko'proq gol urgan jamoa yutadi. Agar hisob teng bo'lsa, durang e'lon qilinadi (ba'zi musobaqalarda qo'shimcha vaqt belgilanishi mumkin va otishmalar oxirida qo'llanilishi mumkin).

O'yinda 11 kishidan iborat ikkita qarama-qarshi jamoa ishtirok etadi. Chim ustida xokkey bo'yicha muntazam maydon chempionatlarida o'yin 35 minutlik 2 ta bo'lim, 5 daqiqali tanaffus bilan, EHLda esa 15 minutdan 4 bo'lim davom etadi.

Standart qoidalar


To'p o'yin boshida, ikkinchi bo'lim boshida, shuningdek, kiritilgan gollardan so'ng maydon markazidan o'ynaladi. Bundan tashqari, ikkala jamoaning barcha o'yinchilari, to'pni o'ynaydigan o'yinchidan tashqari, maydonning yarmida bo'lishlari kerak. Agar bahs jarohati tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra (qoidalarni buzmasdan) to'xtatilgan bo'lsa va to'xtash joyidan o'ynaladigan bo'lsa (oldingi chiziqdan 15 metrdan yaqin bo'lmagan), bahsli to'p beriladi. Qarama-qarshi to'pni o'ynaydigan futbolchilar tayoqlarni to'pning o'ng tomoniga tushirib, tayoqlarni yuzga bir marta urib, keyin to'pni o'ynashlari kerak. Agar to'p old yoki yon chiziqdan o'tib ketgan bo'lsa, u maydondan chiqib ketgan deb hisoblanadi. Agar to'p chetga o'tib ketsa, u o'yin chizig'ini kesib o'tgan joydan kiritiladi.

Kichik qoidalarni buzganlik uchun jarimalar, hakam o'yinchiga yashil ogohlantirish kartasini ko'rsatmoqda (EHLda yashil karta o'yinchining maydonidan 2 daqiqalik chetlatilishi); oddiy xokkey chempionatlarida sariq kartochka - bu hakamlarning qaroriga binoan va qoidabuzarliklar kattaligiga qarab (EHLda - 5-10 daqiqa) o'yinchini maydondan 2-5 daqiqa davomida chetlatish; qizil kartochka - bu o'yin tugashidan oldin chetlatish va buzilishlarga qarab, keyingi o'yinlarni o'tkazib yuborish mumkin.

Maydonining o'lchami

Chim ustida xokkey maydonining o'lchami 91,4x55 m, klyushkasining og'irligi 652—794 g., to'pining og'irligi 156—163 g., o'yin vaqti 90 min. (45 min.dan 2 bo'lim). Musobaqalashayotgan 2 jamoada 11 tadan o'yinchi qatnashadi. Chim ustida xokkeyga o'xshash o'yinlar milloddan 2 ming yil avval

ham Misr, Yunoniston, O'rta Osiyo va boshqa joylarda mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda chorvadorlar o'rtasida avval tosh bilan o'ynaladigan podachi, keyinroq ot minib o'ynaladigan chavg'on ommalashgan. Chavg'on Boburiylar saltanati davrida Hindistonda keng tarqalgan.



Inventar va jihozlar

Chim ustida xokkey bo'yicha har bir jamoaning maydon o'yinchilari bir xil formada kiyinishlari kerak. Darvozabonning formasi jamoaning qolgan o'yinchilaridan farq qilishi kerak. Boshqa o'yinchilarga xavf tug'diradigan narsalarni taqish va olib yurish taqiqlanadi. O'yinchilarga himoya qo'lqoplari, shilinish ustidagi qalqonlar va tishlarni himoya qilish uchun kapalar, shuningdek shaffof, oq yoki boshqa rangdagi silliq himoya niqobi qo'yiladi, ular zarbalar yoki jarima zarbalari paytida himoya harakatlarida ishtirok etayotganda yuziga mahkam yopishadi. Darvozabon himoya dubulg'asi, niqob, qalqon va poyafzal kiygan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, darvozabonga tizza, tirsak yostig'i, darvozabon shorti kiyishga ruxsat beriladi. Maydondagi xokkey tayoqchasi an'anaviy shaklda, chap tomonida tekis va egri uchi bo'lishi kerak. U silliq bo'lishi kerak, qo'pol va o'tkir qismlarsiz. Klyushkaning barcha egilishi silliq bo'lishi kerak va chuqurligi 2,5 sm dan oshmasligi kerak.



To'p yumaloq shaklga ega bo'lishi kerak, qattiq, oq yoki ruxsat etilgan boshqa rangga ega bo'lishi kerak, rangi o'yin maydonidan farq qiladi.

Hakamlilik

Chim ustida xokkey bo'yicha uchrashuvini ikki hakam boshqaradi. Hakamlarning har biri o'yin davomida o'z maydonining yarmida qaror qabul qilish uchun javobgardir: aylanada bo'sh to'plarni tayinlash, burchak jarima zarbalari, jarima zarbalari; urilgan golni hisobga olish yoki urilgan gollarni qayd etish va o'yinchilarga kartochkalar ko'rsatish; butun o'yin davomiyligini va har bir davrani alohida nazorat qilish. Hakamlar o'yinning har bir yarmi boshida va oxirida; qarama-qarshi to'pni chizishda; qoidalarni buzganlik uchun jazo tayinlash; erkin to'p tashlashning boshida va oxirida; gol urganda; gol urilgandan so'ng o'yin yana davom etganda; o'yin erkin to'p tashlashdan keyin davom etganda; almashtirishda; boshqa hollarda uchrashuv vaqtini to'xtatish va o'yinni davom ettirish; agar kerak bo'lsa, to'p chegaradan chiqib ketayotganligini ko'rsatishda hushtak chalishdi.



Bob yuzasidan nazorat savollari:

- 1 Chim ustida xokkey hozirgi shaklini nechanchi asrda egallagan?
- 2 Chim ustida xokkey qaysi davlatlarda o'ta rivojlangan?
- 3 O'zbekistonda chim ustida xokkey nechanchi yilda va qaysi viloyatda dastlabki chim ustida xokkey jamoasi tuzildi?
- 4 Respublikada chim ustida xokkeyga ixtisoslashgan nechita bolalar va o'smirlar sport maktabi bor?
- 5 O'yinchi qo'llari yoki oyoqlari bilan to'pga tegishi mumkinmi?
- 6 Chim ustida xokkey maydonining o'lchami qanday?
- 7 Klyushkasining og'irligi, to'pining og'irligi, o'yin vaqti haqida ma'lumot berin.

Asosiy adabiyotlar

1. Правила соревнований. Хоккей на траве. Федерация хоккея на траве России, 2011 г., Москва.
2. Bandy was fully accepted to IOC (англ.)
3. Чемпионат мира по хоккею с мячом 2014 года пройдет в Сочи, во время Олимпийских игр, ХК Енисей, 24 января 2009
4. Борис Скрынник: «В олимпийскую программу постараемся пробиться к 2018 году»
5. История возникновения хоккея на траве. Сайт Федерации хоккея на траве России. Архивировано из первоисточника 5 февраля 2012. Проверено 18 апреля 2011.
6. *Per G. Olsson* The Game of Bandy (англ.). Архивировано из первоисточника 5 февраля 2012. Проверено 18 апреля 2011.
7. *Евгений Денисов* По прозвищу бенди. Коммерсантъ (27 марта 2006 года). Архивировано из первоисточника 5 февраля 2012. Проверено 18 апреля 2011.
8. Хоккей с мячом. Кругосвет. Архивировано из первоисточника 31 мая 2012. Проверено 18 апреля 2011.
9. *Михаил Харламов* Разгром шведов в «Олимпийском». Российская газета. Проверено 18 апреля 2011.

10. Хоккей с мячом. Кругосвет. Архивировано из первоисточника 31 мая 2012. Проверено 18 апреля 2011.
11. Хоккей с мячом. Кругосвет. Архивировано из первоисточника 31 мая 2012. Проверено 18 апреля 2011.
12. История хоккея с мячом в России. Архивировано из первоисточника 5 февраля 2012. Проверено 18 апреля 2011.

V-BOB. FUTBOL

Futbol ([inglizcha](#) *foot* — „oyoq“, *ball* — „to‘p“) — sport o‘yini, 2 darvoza (7,32x2,44 m) li maxsus maydon (90-120 x 45- 90)da to‘p bilan jamoa bo‘lib o‘ynaladi. F. to‘pining og‘irligi 410-450 g, aylana diametrining uzunligi 68-70 sm, o‘yinning asosiy vaqti 90 daqiqa (45 daqiqadan 2 bo‘lim, 12-15 daqiqa tanaffus). Maydonda ikkala jamoada 11 kishidan bo‘ladi. O‘yindan maqsad raqib darvozasiga to‘pni oyoq yoki gavda qismlari bilan (qo‘ldan tashqari) kiritishdan iborat. Faqat darvozabonlarga qo‘l bilan o‘ynashi mumkin (jarima maydonchasida).

Futbol o‘yining tarixi.

Futbolning dastlabki ko‘rinishlari futbolga o‘xshash o‘yinlar miloddan avvalgi Misr va Sharq mamlakatlarida ma’lum bo‘lgan. Masalan Xitoyda bunday turdagi o‘yin “Chju-Ke”, qadimiy Spartada “Episkiros”, Qadimiy Rimda “Xarpastum” deb atalgan. Tahminlarcha Yangi asrlar davrida Bryansk yerlarida asosiy inventari, o‘lchamlari o‘rtacha tarvuzdek, pat bilan to‘ldirilgan charmli to‘p bo‘lgan o‘yinlar o‘tkazilgan ekan. Bu musobaqalar “shaliga” va “kila” deb nomlangan. Tahminan 14-asrda italyanlar “kalchio” o‘yinini o‘ylab topgan. Britaniyaorollariga bu o‘yin g‘oyasini aynan ular olib kirgan ekan.



1848-yilda Buyuk Britaniyadagi Kembrij unniversiteti o'qituvchilari futbolning dastlabki zamonaviy qoidalarini ishlab chiqishgan. 1857-yilda shu mamlakatdagi Sheffild shahrida ilk futbol klubi tashkil etilgan. 1863-yilda Angliya futbol uyushmasi tuzilib, qoidalari tasdiqlangan. 18-asrning oxiri — 19-asrning boshlarida Yevropa va Janubiy Amerika davlatlarida ham futbol uyushmalari tashkil kilindi. 1896-yil F. olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi. 1904-yilda xalkaro futbol federatsiyasi -FIFA tuziddi. F. Braziliya, Germaniya, Italiya, Argentina, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda keng rivojlangan. Pele, Maradona, F. Bekkenbauer, L. Yashin, 3. Zidan, R. Ronaldo va boshqa F.chilar bu o'yinning jahonda ommaviylashishiga hissa qo'shishdi.

1896 yil tuzilgan futbol jamoasi bu – AstonVilla.



Profesiional turning qonuniylashtirilishi va dunyo bo‘ylab tarqalishi.

19-asrning 80-chi yillarida futbol jamiyatda mislsiz ommabop bo‘lib ketdi. Futbol uyushmasidagi klublar soni 100 dan oshib ketganedi. O‘sha paytda ayrim klublar o‘yinchilarga maosh to‘lashi to‘g‘risidagi mish-mishlar tariaala boshlangan edi. Biroz vaqtdan keyin esa bunday mish-mishlar haddan tashqari urchib ketgan edi. Uyushmaning dastlabki maqsadi bo‘yicha esa futbol mutlaqo havaskorlik sport turidir. Shuning uchun ham 1882 yilda qoidalarga quyidagi band qo‘shib qo‘yilgan edi: "Klubdan o‘zining shaxsiy harajatlari va mablag‘idan oshadigan, qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar mukofot yoki pul shaklida haq olayotgan klubning har qanday o‘yinchisi u yoki bu o‘yinga chiqishi munosabati bilan Kubok uchun musobaqalardan, Futbol Uyushmasi panohidagi har qanday musobaqalar va halqaro turnirlardan avtomatik tarzda chetlatiladi. Bunday o‘yinchini yollagan klub avtomatik tarzda Uyushma a‘zolidan chiqarib yuboriladi".

1884 yilning boshida "Apton Park" klubi "Preston Nord End" klubini o‘z futbolchilariga maosh to‘layotganida aybladi. "Preston"ning Prezidenti Uilyam Saddel ham buni tan olgan edi. Klub futbol Uyushmasi a‘zolidan chiqarib yuborilgan edi. 1885 yilda esa Futbol uyushmasi futbolchilarga maosh to‘lashga axiyri ruxsat bergan. Bu dunyodagi birinchi doimiy futbol Ligasining yaratilishiga olib keldi. Bu turnirning chempioni "Preston Nord End" klubi bo‘lgan. 1872 yil 30-noyabr kuni tarixdagi birinchi halqaro futbol o‘yini o‘tkazilgan. U Angliya va Shotlandiya terma jamoalari o‘rtasida o‘tkazilgan. 1904 yilda Parijda FIFA -futbol olamining boshqaruv tashkiloti tashkil topgan edi. Unga Belgiya, Daniya, Fransiya, Niderland, Ispaniya ("Madrid" futbol klubi siatida), Shvetsiya va Shveytsariya a‘zo bo‘lgan.

1901 yilda Urugvay poytaxti Montevideoda Britaniya orollari vakillari bo‘lmagan terma jamoalari o‘rtasidagi tarixdagi birinchi uchrashuv o‘tkazilgan. Maydon egalari - Urugvay terma jamoasi g‘alaba uchun kat’iy kurashda Argentina terma jamoasiga 2:3 hisobi bilan yutqazib qo‘ygan.

Ilk qoidalar

19 - asrda Angliyada futbol ommabopligi bo'yicha kriket bilan taqqoslana oladigan darajada tarqalib ketdi. Bu o'yin asosan kolledjlarda o'ynalgan. Biroq, ayrim kolledjlarda o'qin qoidalari to'pni qo'l bilan o'ynash ruxsat berilar, boshqalarida esa taqiqlanar edi. Hamma uchunyagona qoidalar majmuasini yaratishning birinchi urinishi 1846 yilda bir necha kolledjlarning vakillari yig'ilgan paytda bo'lgan. Ular futbolning ilqoidalari o'rnatilgan majmuani yaratgan. 1857 yilda birinchi maxsus futbolklubi - "Sheffild" tashkil topgan. 1862 yilda uzoq muzokaralardan so'ng Angliya Futbol Uyushmasining qoidalar to'plami qabul qilingan. Shu bilan birga futbol maydoni va darvozalarning o'lchamlari ham belgilangan. 1971 yilda esa dunyodagi eng keksa futbol musobaqasi - Angliya Kubogiga asos solingan. 1891 yilda penalti, ya'ni jarima zarbasi to'g'risidagi qoida qabul qilingan. Biroq, dastlab jarima zarbasi nuqtadan emas, o'sha davrda hozirgi kundagidek ham darvozadan 11 metr uzoqlikda joylashgan jarima maydonchasining chegarasi bo'lgan chiziqchadan urilgan.

Burchakdan to'pni kiritish 1873 yilda kiritildi. 1875 yili ustunlarni birlashtirib turgan arqon yerdan 2,44 m balandlikda yotqizilgan to'singa almashtirildi. 1882 yili 4ta mustaqil futbol ittifoqi Angliya, Shotlandiya, Uels va Irlandiya futbol ittifoqlari birlashdilar. Futbol maydonida xakam birinchi marta 1880 – 1881 yillarda ishtrok etadigan bo'ldi. 1891 yili xakam maydonga ikkita yordamchisi bilan tushadigan bo'ldi. Xalqaro miqyosidagi dastlabki futbol o'yini 1873 yili Angliya va Shotlandiya futbol jamoalari o'rtasida bo'lgan edi. Futbol 1875 yilda Gollandiyada o'ynala boshlandi, 1882 yildan Shveytsariya, 1890 yildan Chexiyada, 1894 yildan Avstriyada, 1897 yildan Rossiyada o'ynala boshladi.

1904 yili Xalqaro futbol assotsiatsiyasi (FIFA) tuziladi. hozir uning sostavida 190 ga yaqin mamlakat bor. 1954 yildan beri Evropa futbol ittifoqi UEFA ham ishlab turibdi. Unga 50 ga yaqin mamlakat a'zo bo'lib kirgan. 1930 yildan beri har to'rt yilda jaxon chempionati, 1958 yildan beri esa Evropa

championati utkazilib kelinmoqda 1908 yili futbol olimpiya o'yinlari dasturiga kiritildi. UEFA xabarligida quydagi kubok o'yinlari o'tkazilib turadi:

Evropa chempionlari kubogi (1956 yildan beri).

Kubok egalari kubogi (1961 yildan beri).

Bular endilikda UEFA kubogi deb yuritiladi.

Xalqaro musobaqalarning boshlanishi 1921 yilda FIFAning Prezidenti sifatida Jyul Rimesaylanganidan so'ng keyingi Olimpik futbol turnirlarini "havaskorlar o'rtasidagi futbol bo'yicha jahon chempionatlari" deb hisoblash to'g'risidagi taklif ratifikatsiya qilingan. 1924 yil va 1928 yildagi bu turnirlarni Urugvay terma jamoasi yutib olgan. Shu muvaffaqiyatlarga ko'ra Urugvay futbol uyushmasida 1930 yilda tarixda birinchi marta FIFAning jahon Kubogini (oddiyroq qilib aytganda futbol bo'yicha jahon chempionati) tashkil etilishi uchun kurashda raqiblari bo'lmagan. Urugvayliklar o'z uyidagi musobaqaning g'oliblariga aylangan, futbol bo'yicha uch karra jahon chempionlari va FIFA jahon Kubogining ilk egalari aylangan edi. Bu futbol tarixidagi yangi eraning boshlanishi bo'lib qolgan edi. 1970 yilga qadar bu o'lja Jyul Rimening ismini olib yurgan, shu bilan birga "Nike ma'budasining Kubogi" sifatida ham tanilgan, ammo Braziliya terma jamoasining jahon chempionatidagi uchinchi g'alabasidan keyin unga abadiy saqlash uchun berilgan edi. Uning o'rniga zamonaviy jahon Kubogi o'ynala boshlangan.

O'zbekistonga futbolning kirib kelishi va rivojlanish.

O'zbekistonda 20-asr boshlaridan zamonaviy futbol qoidalari asosida o'yinlar o'tkazilgan. 1912-yilda Qo'qonda birinchi futbol jamoasi tuzildi. Keyinroq Fargona, Samarqand, Toshkent, Andijon, Namangan shaharlarida ham F. jamoalari paydo bo'ldi. 20-asrning 20-yillaridan mamlakatimizda turli toifadagi musobaqalar (1937-yildan O'zbekiston birinchiligi) muntazam ravishda o'tkazila boshlandi. 1956-yilda Toshkentda „Paxtakor“ jamoasining tashkil etilishi va shu nomdagi stadion qurilishi respublikada futbolning rivojlanishiga turtki bo'ldi. 20-asrning 80-yillaridan O'zbekistonda futbolchilarning yangi avlodini tarbiyalashga kirishildi. M. Qosimov, I. Shkvirin, A. Abduraimov, M.

Shatskix O‘zbekistondagina emas, Osiyo va boshqa qitalarda ham nom qozondilar.

1959-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston futbol federatsiyasi 1992-yilda (keyin 2001-yilda) qayta ro‘yxatdan o‘tdi. 1992-yildan futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy chempionati va kubogi, turli toifadagi musobaqalar o‘tkazib kelinyapti, futbol jamoalarining xalkaro uchrashuvlarda ishtirok etishi ta‘minlanayapti. Vazirlar Mahkamasining „O‘zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida“ (1993-yil 18 mart) hamda „O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida“ (1996-yil 17 yanv.)gi qarorlari futboldagi yutukdarga zamin yaratdi. Farg‘onaning „Neftchi“ klubi MDH kubogining finaliga chiqdi (1994), „Paxtakor“ klubi Osiyo chempionlar ligasi yarim finalida o‘ynadi (2003, 2004), mamlakat yoshlar terma jamoasi jahon chempionati final bosqichida qatnashdi (2003), O‘zbekiston milliy terma jamoasi Osiyo o‘yinlari (1994) va AfrikaOsiyo o‘yinlari (2003) g‘olibi bo‘ldi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 36 ta (oliy va birinchi ligada) professional klub bor (2004). 2ligada 196 ta jamoa shunday makomga erishish uchun mamlakat birinchiligida qatnashyapti. Futbol klublari qoshida 18 ta futbol internat maktablari, kollejlari faoliyat ko‘rsatyapti, ularda 2000 dan ziyod o‘quvchi shug‘ullanadi. Shuningdek, futbolga ixtisoslashgan bolalaro‘smirlar sport maktablari ishi yaxshilandi. Futbol universiada, „Barkamol avlod“ va „Umid nihollari“ musobaqalari dasturlaridan urin olgan. Bolalaro‘smirlar o‘rtasida respublikada o‘tkaziladigan „Futbol g‘unchasi“ musobaqalarida 692 jamoada 13840, „Futbolimiz kelajagi“ musobaqalarida 15035 jamoada 300700 o‘yinchi ishtirok etdi (2004). Ayollar o‘rtasida o‘tkazilayotgan O‘zbekiston chempionati va kubogi musobaqalarida Andijonning „Andijanka“, Namanganning „Gulbahor“, Qarshining „Sevinch“ jamoalari yetakchilik qilib keladi. Faxriy futbolchilar o‘rtasida ham muntazam ravishda musobaqalar uyushtiriladi. Jismoniy qobiliyati cheklangan futbolchilar o‘rtasida Toshkentning „Matonat“ jamoasi (hozirgi „Baynalmilal“) jahon kubogini qo‘lga kiritgan (1991). Hozirgi kunda respublikada 362 ta stadion, 7113

ta futbol maydoni mavjud, 460658 kishi (ulardan 4642 nafari ayollar) futbol bilan shugʻullanadi, 1916 nafar murabbiy faoliyat koʻrsatadi (2004). „Oʻzbekiston futboli“ (Toshkent), „Futbol Ekspress“ (Andijon), „Asr futboli“ (Namangan), „Inter futbol“ (Kosonsoy), „Boks plyus futbol“ (Toshkent) kabi ixtisoslashgan gazetalar chiqib turibdi. S. Arutyunov, Ye. Valitskiy, A. Keller, M. Akbarov, R. Akramov, Yu. Sarkisyan, M. Rahimov kabi murabbiylarning oʻzbek futboli ravnaqida xizmati katta. I. Toshmuhamedov, A. Imomxoʻjayev, B. Belozyorov, N. Rizametov, B. Haydarov singari tajribali hakamlar ishini davom ettirayotgan R. Ermatov va I. Kutsillo rasmiy nufuzli xalqaro musobaqalarni boshqarishdi.

Futbol oʻyin maydoni.

Oʻlchamlar.


Oʻyin maydoni toʻgʻri burchak shaklida buladi. Yon chiziqlar darvoza chiziqiga nisbatan uzunroq bulishi kerak.

Uzunligi: 120m, 90m.

Eni: 45m, 90m.

Halqaro oʻyinlarda uzunligi : minimum 100m. maksimum 110m.

Eni : minimum 64m. maksimum 75m.



Belgilar.

Maydon uchun belgilar chiziqlar yordamida amalga oshiriladi.

Bu chiziqlar ular chegaralab turgan maydonga kiradi. Uyin maydonini chegaralab turgan 2ta uzun chiziqlar yon chiziklar 2ta qisqasi darvoza chiziqlari

deyiladi. Xar qanday chiziklar eni 12 sm dan oshmasligi kerak.

O`yin maydoni urta chiziq yordamida 2 yarim qismga bulinadi.

O`rta chiziq o`rtasida maydon markazi belgilanadi. Maydon markazidan 9,15 m radiusda aylana o`tkaziladi.

Darvoza maydoni. Darvoza maydoni har ikkala yarim qismining oxirida qo`yidagicha bo`ladi. Darvozaning har qaysi ustuni ichki tomonidagi nuqtadan 5,5 m masofada darvoza chizigiga tug`ri burchak qilib maydon ichiga 2 chizik tortiladi. 5,5 m masofada bu chiziqlar darvoza chiziqiga parallel qilib boshqa chiziq bilan birlashtiriladi. Bu chiziqlar va darvoza chiziqi chegaralab turgan zona, darvoza maydoni deyiladi.

Jarima maydoni. Jarima maydoni har ikkala yarim qismining oxirida kuyidagicha bo`ladi.

Darvozaning har qaysi ustuni ichki tomonidagi nuqtadan, 16,5m masofada darvoza chiziqiga to`g`ri burchak qilib, maydon ichiga ikki chiziq tortiladi. 16,5m masofada darvoza chiziqiga parallel xolatda boshqa chiziq bilan birlashtiriladi. Bu chiziqlar va darvoza chiziqi chegaralab turgan zona jarima maydoni deyiladi. har qaysi jarima maydoni ichida darvozaning ikki ustuni o`rtasida bir qil masofada joylashgan nuqtadan 11 m masofada 11 metrlik belgi quyiladi. Jarima maydonchasi tashqarisida 11 metrlik nuqta markaz qilib olinib 9,15 m. masofada aylana chiziladi.

Bayroqlar Maydonning har qaysi burchaklarida balandligi 1,5 m dan oshmagan, uchi o`tkir bo`lmagan bayroq o`rnatiladi.

Bayroqlar o`rta chiziqning har ikkala tomonida, yon chiziqdan 1m masofadagi uzoqlikda o`rnatilishi mumkin.

Burchak sektori. har qaysi burchak bayroqidan o`yin maydoni ichiga qarab 1m radiusda aylana tortiladi.




Darvoza. har qaysi darvoza chiziqlarining markazida darvoza joylashadi.

Ular burchak bayroqlari bilan bir xil masofada joylashgan, tepadan gorizontall tusin bilan birlashtirilgan ikki vertikal xolatdagi ustundan iborat.

Ustunlar oraliqi - 7,32 m. Tusinning pastki qismidan tekis ergacha bo`lgan masofa – 2, 44 m. har ikki ustun va tusin kesishgan joy bir xil bo`lishi va 12 sm dan oshmaslik kerak.

Darvoza chiziqlarining eni ustunlar va tusin eni bilan bir xil bo`ladi. Darvoza va darvoza orqasidagi erga to`r o`rnatiladi. To`r ishonchli o`rnatilgan va darvozaabonga xalaqit bermaydigan bo`lishi kerak. Darvozaning ustunlari va tusini oq rangda bo`lishi kerak.



Xavfsizlik. Darvoza yerga ishonchli urnatilangan bo`lishi kerak. Ko`chirma darvozadan foydalanishga ruxsat beriladi, agar darvoza ushbu qoida talablariga javob bersa.

XALQARO O`YIN QARORI.

Agar darvoza to`sinini qiyshaysa yoki sinsa, toki to`sin tuzatilmaguncha yoki almashtirilmaguncha o`yin to`xtatiladi. Agar tuzatishning imkoni bo`lmasa o`yin tugallanadi. Tusinnning o`rniga arqon ishlatish mumkin emas . Agar tusinni tuzatishning iloji bo`lsa o`yin to`xtatilganda to`p qayerda bo`lsa o`sha joydan « baxsli to`p » bilan o`yin davom etiriladi.

Tusin va ustunlar yoqochdan, metaldan yoki ruxsat berilgan standartga mos materialdan tayyorlanadi. Ularning ko`ndalang kesishgan joyi kvadrat to`g`ri burchak aylana yoki ellips shaklida bo`lishi mumkin: ular o`yinchilarga xavf to`dirmasligi kerak

Jamoaning maydonga chiqqan vaqtidan boshlab ularning tanaffusga chiqqunlarigacha, tanaffusdan so`ng ularning maydonga qaytib chiqishlaridan to` o`yin tugagunga qadar o`yin maydonida va uning jixozlarida xech qanday reklamaga ruxsat berilmaydi.

Darvoza, setka, bayroqlarda har qanday reklama ko`rinishlaridan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Bu narsalarga chetdan xech qanday jixozlar maxkamlanib qo`yishi mumkin emas masalan (kameralar, mikrafonlar)

Texnik zona doirasidagi erda va yon chiziqdagi 1m masofada o`yin maydonining tashqarisida xech qanday reklama bo`lmasligi kerak.

Darvoza chiziqi va darvoza setkasi o`rtasida xam reklamaga ruxsat berilmaydi.

O`yin maydoni tashqarisida burchak yoyidan 9,15m masofada darvoza chiziqiga to`g`riburchak ostida belgi qo`yilishi mumkin, burchak to`pi bajarilganda shu masofaga rioya qilishni ta`minlash uchun

Futbol to`pining o`lchamlari va sifatleri.

**To`p :** Charmdan yoki shunga o`xshash materialdan aylana shaklda tayyorlangan bo`ladi. Aylanasing uzunligi 70 sm dan oshmagan va 68 sm dan kam bo`lmagan xolatda bo`ladi. Musobaqa boshlanish vaqtida 450 grammdan oshmagan va 410 grammadan kam bo`lmagan bo`lishi kerak. Havo bosimi 0,6 – 1,1 atmosfera (600-1100 gramm kv sm) bo`lishi kerak.



**Yarosiz to`pni almashtirish.** Agar to`p o`yin vaqtida yaroqsiz holga kelsa o`yin to`xtatiladi. To`p yaroqsiz xolga kelgan joydan « baxsli to`p » o`yini bilan o`yin yangilanadi. Agar to`p o`yinda bo`lmagan vaqtda yorilsa yoki yirtilsa – boshlang`ich zarbada, darvozadan zarbada, burchak, jarima, erkin zarbalarda, 11m nuqtadagi zarbada yoki tashlashda. O`yin qoidasiga mos ravishda yangilanadi.

To`p o`yin vaqtida faqatgina hakam ko`rsatmasi bilan almashtirilishi mumkin.

FUTBOL MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA O`YIN QOIDALARI

Rasmiy musobaqalarda qoidalarda ko`rsatilgan texnik talablarga javob beradigan to`plargagina ruxsat beriladi.

FIFA tomonidan o`tkaziladigan musobaqa o`yinlarida, quyidagi 3 markirovkadan birortasiga ega bo`lgan to`plargagina foydalanishga ruxsat beriladi.

Rasmiy logotip “FIFA APPROVED” (FIFA maqullaydi)

Rasmiy logotip “ FIFA INSPECTED” (FIFA nazorat qilgan)

yoki “INTERNATIONAL O`YIN – BALL STANDARD”

(To`p xalqaro standartga mos)

To`pning bunday marqirovkasi uning rasmiy tekshiruvdan o`tganini

ko`rsatadi va tekshiruv natijasiga kura to`p muxim texnik talablarga mos ekanligini bildiradi.

Milliy federatsiyalar musobaqa vaqtida faqatgina shu uch markirovkaga ega har qanday to`plardan foydalanishni talab qilish mumkin.

Boshqa har qanday o`yinlardan to`p qoida talablariga mos kelishi kerak.

FIFA musobaqalarida va milliy federatsiyalar tashkil qilgan musobaqalarda to`plarga hech qanday savdo sotiqqa oid reklamaga ruxsat berilmaydi, quyidagi xolatni xisobga olmaganda ya`ni musobaqa nishoni, musobaqa tashkilotchisi va tasdiqlangan tayyorlovchining savdo markasi. Bunday muqrlarning soni va o`lchami, mustaqil reglamenti bilan cheklanishi mumkin

**O`yinchilar.** O`yin xar qaysida darvozabonlarni qo`shgan holda o`yinchilarning soni 11tadan oshmagan ikki jamoa ishtirokida o`tkaziladi. Agar jamoalarda o`yinchilar soni 7ta kam bo`lsa, o`yin boshlanmasligi mumkin.

Rasmiy musobaqalar. FIFA yoki milliy federatsiyalar tomonidan tashkil qilinadigan har qanday rasmiy musobaqalarda 3 tagacha o`yinchilarni almashtirishga ruxsat beriladi. Musobaqa nizomida buyurtmaga kiritiladigan zahiradagi o`yinchilar soni 3dan 7gacha uzaro kelishilgan bo`lishi kerak, bundan ortiq bo`lishi mumkin emas. Boshqa o`yinlarda. Boshqa o`yinlarda zahira almashtirilishi mumkin, shu shart bilanki jamoalar almashinadigan o`yinchilarning maksimal sonini o`zi oldidan kelishib oladilar. Xakam bu haqda o`yin boshlanishidan oldin xabardor qilinishi kerak. Agar hakam xabardor qilinmagan bo`lsa yoki (kelishuv) o`yin boshlangunga qadar bir bitimga kelinmagan bo`lsa 3 tagacha zaxira almashtirishga ruxsat beriladi.

**Hamma o`yinlarda.** har qanday o`yin boshlanishidan oldin hakamga zaxiradagi o`yinchilar familiyasi taqdim etilishi kerak. Shu usulda familiyasi ko`rsatilmagan o`yinchilar o`yinda qatnasha olmaydilar.

Almashtirish tartibi. Asosiy o`yinchilarni zaxiradagi bilan almashtirish uchun quyidagi shartlarni bajarish zarur. Har qanday mo`ljallangan almashtirish haqida hakam xabardor qilingan bo`lishi kerak. Zaxiradagi o`yinchi faqatgina asosiy o`yinchi maydondan chiqqandan so`ng xakam xushtagidan keyin

maydonga chiqadi. Zaxiradagi o'yinchi o'yin to'xtatilganda faqat o'rta chiziqdan o'yin maydoniga kiradi. Zaxiradagi o'yinchi maydonga chiqqandan so'ng almashtirish tugallangan xisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab zaxiradagi o'yinchi asosiy tarkib o'yinchisi xisoblanadi, almashtirilgan o'yinchi esa asosiy o'yinchi xisoblanmaydi. Almashtirilgan o'yinchi o'yinda boshka ishtirok eta olmaydi. Xamma zaxiradagi o'yinchilar o'yinga qatnashish yoki qatnashmasliklaridan qat'iy nazar xakam vakolatlariga bo'ysunadilar.



Darvozabonning almashtirilishi. Boshqa har qanday o'yinchilar darvozabon bilan joylarini almashishlari mumkin shu shart bilanki; Xakam bu xaqda almashinishdan oldin xabardor kilingan bo'lishi kerak. Almashinish o'yin to'xtaganda amalga oshiriladi.

Qoida buzilishi va jazo.

Agar zaxiradagi o'yinchi xakam ruxsatisiz maydonga chiqsa o'yin to'xtatiladi. Zaxiradagi o'yinchi sariq kartochka kursatilish bilan ogoxlantirish oladi va uning maydondan chiqishi so'raladi. O'yin to'xtatilganda to'p qayerda bo'lsa o'sha joydan, "baxsli to'p" yordamida o'yin yangilanadi. Agar o'yinchi xakam ruxsatisiz darvozabon bilan joy almasha: o'yin davom etadi. To'p keyingi marta o'yindan chiqqanda qoidani buzgan o'yinchilar sariq kartochka ko'rsatishi bilan ogoxlantirish oladilar.

Boshqa har qanday shu qoidaning buzilishida: Shunga muvofiq o'yinchilar

sariq kartochka ko`rsatish bilan ogoxlantirish oladilar.

**O`yinning qaytadan boshlash.** Agar o`yin xakam tomonidan ogoxlantirish berish uchun to`xtatilsa: O`yin raqib jamoa o`yinchisi tomonidan o`yin to`xtatilganda to`p qayerda bo`lsa shu joydan erkin zarba bilan o`yin yangilanadi.

Asosiy tarkibdagi va zaxiradagi, chiqarib yuborilgan o`yinchilar. Boshlang`ich zarbadan oldin chiqarib yuborilgan o`yinchi, faqatgina ro`yxatdagi zaxira o`yinchilardan birortasi bilan almashtirilishi mumkin.

O`yin protokolida boshlang`ich zarbadan oldin yoki o`yin boshlangandan so`ng chiqarib yuborilgan zahiradagi o`yinchini almashtirishga yo`l qo`yilmaydi.

**Xalqaro o`yin qarori.** O`yin davomida jamoaning rasmiy kishisi o`yinchilarga taktik ko`rsatmalar berishga xuquqi bor, lekin bundan so`ng u tezda joyiga qaytishga majbur. hamma rasmiy kishilar texnik zona doirasida bo`lishlari majburdir: Ular uzlarini odobli tarbiyali xush muomalali va javobgar xis qilishi (tutishlari) kerak.

O`YINCHILAR EPIKIROVKASI.

Xavfsizlik. O`yinchi o`z xayotiga yoki boshqa o`yinchi xayotiga xavf soluvchi biror narsa taqmasligi yoki kiymasligi kerak.

Epikirovka. O`yinchilar majburiy ekipirovka elementlari xisoblanadi. Ko`ylak yoki futbolka. Kalta ishton(sho`rtik) – agar kalta ishton tagidan ichki kiyim kiyiladigan bo`lsa, ichki kiyim rangi kalta ishton rangidan bo`lishi kerak. Getralar. Oyoq qalqoni. Oyoq kiyim . Hitlar. To`lik getra bilan yopiladi. To`g`ri keladigan (mos keladigan) materialdan (rezina, plastik yoki shunga uxshash) tayyorlanadi. Yetarli darajada himoya bilan ta`minlaydi.



Darvozabonlar. Darvozabonlar kiyimining rangi boshqa o'yinchilar xakam va xakam yordamchilari kiyimi rangidan farq qilishi kerak.



HAKAMLIK.

Hakam vakolati har qanday o'yin hamma vakolatga ega bulgan hakam tomonidan nazorat qilinadi va o'yin qoidasiga rioya qilinishini ta'minlaydi.

Hakamning huquqi va majburiyatlari.

Hakam: O'yin qoidasiga rioya qilinishini ta'minlaydi. O'yinning borishini o'z yordamchilari bilan nazorat qiladi. Foydalaniladigan har qanday to'pni 2 qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi. O'yinchilar kiyimi 4 qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi. O'yin xronometrajini va o'yinni yozib boradi. U o'z ixtiyoriga ko'ra o'yinni to'xtatishi vaqtinchalik to'xtatishi yoki har qanday qoida buzilishida o'yinni umuman to'xtatib qo'yishi mumkin. To'xtatishi, vaqtinchalik

to'xtatishi yoki har qanday chetdan bo'lgan aralashuvga o'yinni umuman to'xtatib qo'yish mumkin. O'yinni to'xtatadi, agar uning fikricha o'yinchi jiddiy jaroxat olgan va o'yinchini maydondan olib chiqilishini ta'minlaydi. Agar uning fikricha o'yinchi unchalik axamiyatga ega bo'lmagan jaroxat olgan bo'lsa to'p o'yindan chiqmaguncha o'yinni davom ettirishiga ruxsat berishi mumkin. O'yinchidan qon oqayotgan bo'lsa, uning maydondan chiqishini ta'minlaydi. Hakam qon oqishining to'xtaganiga ishonch xosil qilib, signal berganidan so'ng o'yinchi maydonga qaytishi mumkin. Qachonki o'yinchi birdaniga bir nechta qoida buzilishiga yo'l qo'ysa, uni muximrok (oqirroq) bo'lgan qoida buzilishi uchun jazolaydi. Ogoxlantirishi yoki chiqarib yuborish bilan jazolanadigan qoida buzilishlariga yo'l qo'ygan o'yinchilarga nisbatan intizom choralari qabul qiladi. U bunday choralarni tez qabul qilishga majbur emas, lekin to'p o'yindan chiqqan zaxotiyok qabul qilishi keark. O'zlarini tarbiyali, madaniyatli tutmagan jamoa rasmiy kishilarga nisbatan chora qabul qiladi va o'z ixtiyoriga ko'ra maydondan (texnik zonadan) chiqarib yuborishi mumkin. Hakam o'zi ko'rmay qolgan xolatlar bo'yicha o'z yordamchilari tavsiyasiga asoslanib xarakat qiladi. Begona shaxslar maydonda bo'lmasliklarini ta'minlaydi. O'yin vaqtinchalik tuxtatilgandan keyin uni yangilaydi. O'yin davomida o'yinchilarga yoki jamoaning rasmiy shaxslariga nisbatan qo'llanilgan intizom choralari va har xil o'yindan oldin, o'yin davomida yoki o'yindan so'ng yuz bergan xolatlar bo'yicha tegishli tashkilotga bildirishnoma beradi.

Hakam qarori. O'yinga bog'liq voqealar bo'yicha hakam qarori qat'iy xisoblanadi. hakam o'z qarorini faqat shunday xolatlarda o'zgartirishi mumkin, agar u qarorini xato ekanligini yoki yordamchilari tavsiyasi bilan tushunib etsa, lekin shu shart bilanki u xali o'yinni yangilamagan bo'lsa



XALQARO YIG`IN QARORI.

Hakam (yoki sharoitga qarab yordamchi yoki zaxiradagi xakam) fuqorolik javobgarligiga tortilmaydi: har qanday o`yinchi rasmiy shaxs yoki tomoshabin tomonidan olingan jaroxat (uchun),har qanday mulkka etkazilgan zarar uchun. O`yinni tashkil qilish, o`tkazish va boshqarishda zarur bo`lgan yoki o`yin qoidasi talablariga mos qabul qilingan qarorlar oqibatida yuzaga yoki yuz bergan har qanday klub, kompaniya, uyushma yoki tashkilotga yetkazilgan har qanday zarar uchun.

Bularga quydagila kirishi mumkin : Maydon xolatiga ko`ra yoki ob xavo sharoitiga ko`ra o`yinni utqazishga ijozat bersa bo`ladimi, yo`qmi. Biron bir sababga ko`ra o`yinni to`xtatish to`qrisidagi qaror. O`yin davomida foydalaniladigan uskuna yoki jixozlar xolati to`qrisida qaror, darvoza ustuni, tusini, burchak bayroqlari va to`pni qo`shgan xolda. Tomoshabinlar aralashuvi sababli yoki tomoshabinlar uchun ajratilgan zonada yuz bergan muammolar uchun o`yinni to`xtatish yoki to`xtatmaslik to`qrisidagi qaror. Jaroxat olgan o`yinchi tibbiy yordam ko`rsatilishi uchun maydondan chiqishiga ruxsat berish uchun o`yinni to`xtatish yoki to`xtatmaslik to`qrisida qaror. Jaroxat olgan o`yinchidan unga tibbiy yordam ko`rsatish uchun maydondan chiqishini so`rash yoki talab qilish to`qrisidagi qaror. O`yinchiga ayrim kiyim yoki ekipirovka predmetlarini taqib yurishga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik to`qrisidagi qaror.

har qanday shaxslarga (jamoaning yoki o`yingox rasmiy kishilari, xavfsizlik hizmati vakillari, suratchi yoki boshqa ommaviy axborot vakillarini qo`shgan

holda) to`g`ridan to`g`ri maydon yaqinida bo`lishlariga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik (uning majburiyatlari doirasida bo`lsa) to`qrisida qaror. O`yin qoidasiga mos keluvchi yoki FIFA reglamenti yoki hoida shartlariga ko`ra uning vazifasiga kiruvchi boshqa har qanday qaror. Zaxiradagi xakam tayinlanadigan musobaqa yoki turnirlarda, uning roli va majburiyati, halqaro yiqin tomonidan tasdiqlangan ko`rsatmaga mos kelishi kerak.



XAKAM YORDAMCHILARI.

Majburiyati. Ikkita hakam yordamchisi tayinlanadi va ularning vazifasiga (hakam qaroriga bog`liq) signal berish kiradi:

qachonki to`p maydon chiziqidan tashqariga to`liq chiqsa.

qaysi jamoa burchak to`pi, darvozadan zarba yoki to`p tashlash xuquqiga ega.

qachon o`yinchi o`yindan tashqari xolatda bo`lganligi uchun jazolanadi.

qachonki o`yinchi almashtirish to`qrisida iltimos bulsa.

hakam ko`rish maydonidan tashqarisida yuz bergan intizomsiz xulk yoki boshqa har qanday xolatlar bo`yicha.

qachonki hoida buzilishi sodir etilganda bosh hakamdan ko`ra shu joyga hakam yordamchilari yaqin bo`lgan xolatlarda (qisman jarima maydonida yuz bergan qoida buzilishlari ham kiradi.)

Shunday hollarda ya`ni qachonki 11m jarima to`pi bajarilayotganda darvozabon to`pga zarba berilishidan oldin joyidan oldinga siljisa, to`p esa chiziqni kesib o`tsa.

Yordamchilar. Yordamchilar hakamga o`yinni o`yin qoidasiga mos

o`tkazilishiga yordam beradilar. Yordamchilar 9,15 m masofasiga rioya qilishiga yordam berish uchun maydon doirasiga kirish mumkin .

Xakam o`z yordamchisini asoslanmagan aralashuv yoki qupol muomala holatlarida vazifasidan ozod qiladi va tegishli tashkilotga bildirishnoma beradi.



O'YIN DAVOMIYLIGI.

O`yin vaqti.

O`yin 45 minutdan 2 taym davom etadi. (agar hakam va ikki jamoa vakillari boshqa variantni kelishmagan bo`lsa) har qanday o`yin vaqtini o`zgartirish to`g`risidagi kelishuvga (masalan yorug`likning etishmasligi sababli har qaysi taymning 40 minutgacha qisqartirilishi ) o`yin boshlangunga qadar erishilgan bo`lishi kerak va bu holat musobaqa talablariga javob berishi kerak.

Taymlar oraliqidagi tanaffus.

O`yinchilar 2 taym oraliqida tanaffus olishlariga xaqlari bor. Taym oraliqidagi tanafus 15 minutdan oshmasligi kerak. Musobaqa tartibida taymlar oraliqidagi tanafus vaqti ko`rsatilgan bo`lishi kerak. Taymlar orasidagi tanaffusning davomiyligi faqat hakamning roziligi bilan o`zgartirilishi mumkin.

Qushib berilgan vaqt.

Quydagi xolatlariga ketgan vaqt ikki taymning har qaysisiga qo`shib beriladi.

Q`yinchilarni almashtirishga.

O`yinchining jaroxatini jiddiyligini aniqlashga.

Jaroxatlangan o`yinchilarga tibbiy yordam ko`rsatish uchun ularni maydon tashqarisiga olib chiqishga.

qasddan o`yin vaqtini chuzish

Boshqa har qanday xolatlarda. Qo`shib berilgan vaqtning davomiyligini faqat hakam aniqlaydi.



**11- Metrlik to`p.** Har qaysi ikki taymning asosiy vaqtning oxirgi daqiqasida yoki qo`shib berilgan vaqtning oxirgi daqiqasida belgilangan 11 metrlik jarima to`pi uchun aloxida vaqt ajratiladi.

Oxirigacha o`ynalmagan o`yin. Agar musobaqa nizomida boshqacha holatlar bo`lmasa oxirigacha o`ynalmagan o`yin qayta o`ynaladi.

O`yin boshlanishi va yangilanishi.

Dastlabki shartlar. O`yin boshlanishidan oldin qur`a tashlash o`tkaziladi va jamoalardan biri darvozani tanlash huquqini oladi. Qarshi jamoa o`yinda boshlanqich zarbani bajaradi. Qur`a tashlash tufayli darvozani tanlagan jamoa, ikkinchi taymda boshlanqich zarbani bajaradi. O`yinni ikkinchi taymida jamoalar darvoza almashadilar.

**Boshlang`ich zarba.** Boshlang`ich zarba bu o`yinni boshlash yoki o`yinni yangilash uchun qo`llaniladigan usuldir.

- 1.O`yin boshida.
- 2.Urilgan goldan so`ng.
- 3.Ikkinchi taym boshida.

Boshlang`ich zarbani bajarish qolatlari.

- 1.Hamma o`yinchilar o`z maydonida bo`lishlari kerak.
Zamonaviy plyaj voleybol qoidalariga ko'ra, o'yin faqat yuqorida aytib o'tilgan talablarga to'liq javob beradigan sport maydonida ijro etilishi mumkin.

Blokirovka harakati: barmoqlar bilan aylangan va hujum tomon yo'naltirilgan hovuch ichi bilan amalga oshiriladi.

Hujum va mudofaa sohasidagi qo'shma texnik harakatlar. Yuqori, o'rta va past ko'rsatkich. Texnik ijrosi: voleybol o'yinida uchta asosiy pozitsiya mavjud: yuqori. O'yin davomida maydonda doimiy harakat talab qilinadi va ketma-ket va tezkorlik bilan bir bosqichdan o'tsa, o'yinchi har doim bu uch pozitsiyadan o'tishi kerak. Har bir texnik dizayn uchun talab qilinadigan balandlikka qarab, uchta pozitsiya chaqiriladi. O'yinda eng ko'p uchraydigan holat - bu ikki pozitsiyaga osonlik bilan o'tishga imkon beruvchi o'rta pozitsiyadir.

Plyaj voleyboli to'piga kelsak, biz quyidagilarni ta'kidlaymiz: unda klassik voleybol to'piga nisbatan kamroq bosim mavjud, bu odatdagi (66-68 santimetr) kattalikdagi o'lchamda bo'ladi. Qoidalar ushbu sport anjomlari mutlaqo yorqin rangga ega bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Bu tushunarli, chunki yoz yorqin ranglar bilan bog'liq.



Plaj voleybolining qoidalari

Texnik bajarish: hujumga ham, mudofaa qilishga ham juda muhim ahamiyatga ega. Harakatning o'zini namoyon qilishi jarayonlari quyidagilardir: yurish, harakat qilish, qadamlar qo'shish, o'tish, sakrash va blok qo'yish. Harakatlar to'pning traektoriyasi va kooperativ pozitsiyaga muvofiq amalga oshiriladi.

O'yin uslubi - hujumlar va o'yinni himoya qilishning maqsad va vazifalarini hal etishga yordam beradigan ixtisoslashtirilgan va avtomat qisman harakatlarning birlashtirilgan harakatlari yoki sektsiyalari. O'yin qoidalarida bayon etilgan taktikaga va talablarga javob beradi. Uning rivojlangan va mukammal bir belgisi bor.

Plaj voleyboli haqida bilishingiz kerak bo'lgan boshqa narsalar

20-asrning 96-yillaridan boshlab plyaj voleyboli Olimpiya o'yinlarining bir qismidir. Plyaj voleyboli turli musobaqalar, musobaqalar o'tkazdi. Ko'rib turganingizdek, plyaj voleyboli jiddiy sport hisoblanadi.

Bu degani, agar siz to'rt kishilik havuzda bo'lsangiz, hovuzdagi barcha boshqa jamoalar bilan o'ynashingiz kerak. Har bir havuzda g'olib chiqqan birinchi yoki birinchi ikkita jamoa saralash bosqichiga tushadi. Siz kamida 3 ta o'ynashingiz mumkin. U har doim er-xotin o'ynaydi. Balki 15 - 30 - 40 va durang natija bermaydi. Kubokda qabul qiluvchi jamoa o'yinchini tanlaydi. Tennis va badmintonda ham har bir jamoaning xizmatlaridan biri. Voleyboldan farqli

o'laroq, dushmanni yiqitish uchun strategiya yo'q. Plyaj voleybolida faul qilmasdan faqat bitta tarmoq xizmati hisoblanadi.



Bob yuzasidan nazorat savollari:

- 1 Plyaj voleyboli nechanchi yili tashkil qilingan?
- 2 Plyaj voleyboli qaysi davlatda rivojlangan?
- 3 O'zbekistonda Plyaj voleyboli o'ynaladimi?
- 4 Plyaj voleybolida oyoqlar bilan to'pga tegishi mumkinmi?
- 5 Plyaj voleyboli maydonining o'lchami qanday?
- 6 Plyaj voleyboli to'pining og'irligi, o'yin vaqti haqida ma'lumot berin.

Foydalanilgan elektron manzillar

- 1 www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
4. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
5. <http://ziyonet.uz> — Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal
- 6 <http://mlb.mlb.com/>
- 7 <http://www.cbbs.com.br/>
- 8 O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

XI-BOB Regbi

Regbi - (Angliyaning Regbi shaharchasi nomidan) - sport o'yini. 2 jamoa (har biri 15 kishidan) uzunligi 27-29 sm bo'lgan tuxumsimon shakldagi to'p bilan H simon darvozali maxsus maydonchada (kattaligi 95-100x65-68 m) o'ynaydi.

O‘yin (40 minutdan 2 taym davom etadi)dan maqsad - to‘pni bir-biriga qo‘lda (orqaga) yoki oyoqqa (xohlagan yo‘nalishda) oshirib, uni raqib maydonidagi darvoza chizig‘i orqasiga tushirish yoki darvozaga kiritishdan iborat. Raqibni ushlab yoki yelka bilan turtib yiqitib, unga halaqit berish mumkin.

O‘yin qoidasi buzilganda «olishuv» - to‘p talashish belgilanadi. Ko‘p ochko to‘plagan jamoa (to‘pni yerga tegizish - 4 ochko, tupni darvozaga kiritish - 3 yoki 2 ochko) yutgan hisoblanadi.

Regbi tarixi

Bu o‘yin Qadimgi Xitoy va Qadimgi Rimda tarqalgan. Zamonaviy Regbi o‘yini 1823 yilda Angliyada paydo bo‘ldi. 1888 yilda Regbi bo‘yicha xalqaro musobaqa o‘tkazildi. 1900, 1908, 1920, 1924 yilda Regbi Olimpiada o‘yinlari dasturiga kiritildi. Regbi Xalqaro havaskorlar federatsiyasi FLRA (1934 yil tuzilgan)ga 40 dan ortiq mamlakat a‘zo. 1960 yildan FLRA Kubogi (norasmiy jahon chempionati) o‘tkaziladi. Regbi sporti O‘zbekistonda 1969 yil «Lokomotiv» jamiyati huzurida vujudga keddi. 1970-71 yillarda Toshkent politexnika institutida Regbichilar jamoasi tashkil qilindi. 1982-91 yillarda Regbi buyicha Jonibekov kubogi musobaqalari o‘tkazildi. O‘zbekiston terma jamoasi xalqaro musobaqalar (1988, Buyuk Britaniya, 1989, Koreya Respublikasi)da ishtirok etdi.

O‘zbekistonda regbining rivojlanish tarixi.

O‘zbekistonga regbining kirib kelishining rasmiy tarixi 1969 yildan boshlanadi. Bu vaqtgacha bu sport turi tashabbuskorlari o‘zaro yig‘ilishib, turli yalangliklarda o‘z mashg‘ulotlarini o‘tkazib keldilar.

O‘zbekistonda regbining rasmiy sport turiga aylanishining asoschisi bo‘lib Vali Tojiyev hisoblanadi. 1969 yili Toshkent shahridagi Politexnika institutida asosini ushbu OO‘Yu talabalari va xodimlari tashkil qilgan “Politexnik” jamoasi rasman ro‘yxatga olindi.

1970 yildan 1975 yilgacha asta-sekin turli jamiyatlarda «Lokomotiv» (Toshkent sh.), «Start» (Toshkent sh.), «Spartak» (Toshkent sh), «Stroitel» (Toshkent sh), «Neftyanik» (Farg‘ana sh.), «Fakel» (Farg‘ona sh.), «Shovot»

(Urganch sh.) jamoalari yaratildi va ayna shu yillari «Politexnik» jamoasi SSSR Chempionatining 1-ligasida qatnasha boshladi.

1980 yildan O'zbekistonda "Kosmanavt Jonibekov nomidagi kubok" o'tkazila boshlandi, unda sobiq Ittifoqning eng kuchli jamoalari ishtirok etdilar. Yana shu vaqtda har bir klubda barcha yosh toifalari bo'yicha bolalar-o'smirlari jamoalari ochildi, ular "Oltin oval" sovrini uchun Butunittifoq musobaqalarida ishtirok eta boshladilar.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi O'zbekistonda regbining rivojlanishiga kuchli zarba bo'ldi. 1991 yildan keyin 3-4 yil ichida jamoalardagi murakkab iqtisodiy muammolar tufayli ko'pgina yetakchi o'yinchilari o'z sport faoliyatlarini xorijiy klublarida davom ettirish uchun ketib qoldilar, moliyalashtirishning barham topishi esa o'z navbatida murabbiy kadrlarning ketib qolishiga olib keldi.

Regbining ikkinchi tug'ilish yili sifatida 2001 yilni hisoblash mumkin. Regbi faxriylari va qolgan murabbiylardan iborat tashabbus guruhi yaratildi, u O'zbekistonda regbini qayta tiklashga qaror qildi. Toshkent shahrida regbi federatsiyasi ochildi, u nafaqat Toshkent shahrida, balki O'zbekistonning boshqa viloyatlarida ham regbini rivojlantira boshladi. Jizzax, Yangiyer, To'raqo'rg'on, Chirchiq, Samarqand shaharlarida jamoalar yaratildi.

2002 yildan boshlab ayollar terma jamoasi Osiyo chempionatida ishtirok eta boshladi, 2006 yili O'zbekiston ayollar jamoalari o'rtasida Osiyo chempionatini o'tkazish huquqini qo'lga kiritdi, unda O'zbekiston jamoasi bronza medali uchun kurashda juda kuchli bo'lgan Gongkong terma jamoasiga qo'shimcha vaqtda imkoniyatni boy bergan holda 4-o'rinni egalladi. 2008 yili qizlarimiz Osiyo chempionatida bronza medalini qo'lga kiritdilar, shu yili regbi bo'yicha erkaklar terma jamoasi Osiyo chempionatidagi o'z ishtirokini boshladi.

2006 yili regbi federatsiyasi ARFU (Osiyo regbi ittifoqi) ning to'liq huquqli a'zosiga aylandi va shu yildan boshlab IRB (Xalqaro regbi kengashi) ning assotsiatsiyali a'zosi hisoblanadi. 2014 yilning 14 mayidan O'zbekiston IRB ning to'liq huquqli a'zosiga aylandi.

Yaratilgan vaqtdan boshlab O'zbekiston Regbi Federatsiyasi Regbi-7 bo'yicha erkaklar va ayollar jamoalari o'rtasida O'zbekiston birinchiliklarini muntazam ravishda o'tkazib kelmoqda, 2011 yildan boshlab esa erkaklar jamoalari o'rtasida regbi bo'yicha O'zbekiston Chempionati qaytadan o'tkazila boshlandi.

O'zbekistonda ayollar regbisining rivojlanish tarixi.

1990 yil. O'zbekistonda ayollar regbisi 1990 yilning 12 oktyabrida qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi bosh murabbiyi Galkin O.V. tashabbusi bilan Toshkent shahrida "SO'G'DIYoNA" jamosi yaratildi, u o'sha vaqtda yagona jamoa bo'lgan edi.

1991 yil. U 1991 yilning martida o'zining birinchi chiqishi va ilk sinovini boshidan o'tkazdi, o'shanda u regbi-15 bo'yicha 1-Butunittifoq festivalining tashabbuskori va mezboniga bo'lgan edi, unda jamoa sobiq ittifoq respublikalarining 12 ta jamoasi bilan kuch sinashdi va faxrli 4-o'rin bilan o'z muxlislarini xushnud etdi.

Ushbu jamoalar avgust oyida Tver shahrida o'tkazilgan Xalqaro turnirda yana kuch sinashdilar, unda jamoa o'z ko'rsatkichini yanada yaxshiladi va bronza medalini qo'lga kiritdi. Yil yakunida "SO'G'DIYoNA" jamosi Taldiqo'rg'onda o'tkazilgan Qozog'iston ochiq kubogining egasiga aylandi.


Asosiy qoidalar

Birinchi marta ular ushbu o'yin paydo bo'lgan shaharda - Regbi shahrida muhokama qilinadigan sport turini kodlashga harakat qilishdi. Bu 1846 yilda sodir bo'ldi. Birinchi rasmiy xalqaro o'yin 1871 yilda bo'lib o'tdi. Zamonaviy regbi qoidalari qanday?

Xulosa quyida keltirilgan:

1. O'yin 100 x 70 metrlik maydonda o'ynaladi.
2. Maydon chetida darvozalar joylashgan. Ular gorizontal bar bilan ikkita vertikal ustunlardir.

3. Maydon bir necha zonalarga bo'lingan. Ularning har birida o'yin o'ziga xos xususiyatlarga ega.
4. O'yinchining maqsadi - to'pni raqib darvozasiga urish yoki uni erga tegib, uning orqasida joylashgan bo'sh joyga o'tkazish.
5. Ballar samarali harakatlar uchun beriladi.
6. O'tish taqiqlanadi. To'p faqat orqada yoki darvoza chizig'iga parallel bo'lgan o'yinchilarga beriladi.
7. Siz to'pni faqat oyog'ingiz bilan oldinga yo'naltirishingiz yoki qo'lingizda u bilan yugurishingiz mumkin.
8. O'yinchini to'p bilan ushlashga ruxsat beriladi. Bu holatda vazifa - raqibni nokaut qilish. U jamoadoshiga pas berishi kerak. O'yin bosh va bo'yinlardan tashqari har qanday narsalarni ushlashga imkon beradi. Raqibga oyoq panjalarini qo'yish va uni itarish taqiqlanadi.
9. Uchrashuv 80 daqiqa davom etadi. O'yin 2 yarimga bo'lingan.
10. Agar jamoa ko'proq ochko to'plasa g'alaba qozonadi.



O'zingiz ko'rib turganingizdek, regbining asosiy qoidolari unchalik murakkab emas. Shu bilan birga, saraton, mole va skrum kabi maxsus elementlar mavjud.

Keling, ularning har biri nimani anglatishini batafsil ko'rib chiqaylik:

1. Iskala - bu to'pni bir yoki bir nechta raqiblar to'sib qo'ygan vaziyat. Shu bilan birga, jamoadoshlar bilan aloqa o'rnatiladi.
2. Saraton - bu to'pning joyida bo'lgan sportchilarning o'zaro ta'siri.
3. Jang - bu regbining eng ajoyib va taniqli elementi. Sudya uni tayinlaganida, o'yinchilar maxsus sxema bo'yicha bo'lib, to'qnashuvga kirishadilar. Asosiy maqsad to'pni egallab olish.

Regbi juda xavfli o'yin ekanligiga ishonishadi va jarohatlardan qochib bo'lmaydi. Ammo, agar barcha qoidalar va xavfsizlik choralariga rioya qilinsa, xavf minimal bo'ladi.

Keling, ushbu masalani batafsil ko'rib chiqamiz. Regbi bilan necha kishi shug'ullanadi? Klassik estrada uchun o'yin qoidalarida maydonda 15 asosiy o'yinchi va 7 o'rinbosarning ishtirok etishini talab qiladi. Belgilangan maydonda futbolchilar sakkiz hujumchiga va yetti himoyaga bo'lingan. Ularning har biri o'z vazifalarini bajaradi. Bu o'yinning oddiy yo'nalishiga ham, tanqidiy vaziyatlarga ham tegishli.

Regbi kuchi va o'sishi bilan maqtana olmaydiganlar uchun mos emas degan fikr bor. Biroq, bu xato. Ba'zida harakatchanlik va epchillik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu, ayniqsa qiyin vaziyatda to'pni egallash kerak bo'lganda, masalan, jang paytida. Bugungi kunda ushbu o'yinning juda ko'p turlari mavjud. Hatto maxsus jismoniy tayyorgarliksiz odamlar uchun moslashtirilgan variant mavjud. Bu faqat regbi o'ynash uchun mushaklar tog'i bo'lish shart emasligini tasdiqlaydi. Keling, ushbu masalani batafsil ko'rib chiqamiz. Regbi bilan necha kishi shug'ullanadi? Klassik estrada uchun o'yin qoidalarida maydonda 15 asosiy o'yinchi va 7 o'rinbosarning ishtirok etishini talab qiladi. Belgilangan maydonda futbolchilar sakkiz hujumchiga va yetti himoyaga bo'lingan. Ularning har biri o'z

vazifalarini bajaradi. Bu o'yinning oddiy yo'nalishiga ham, tanqidiy vaziyatlarga ham tegishli.

Regbi kuchi va o'sishi bilan maqtana olmaydiganlar uchun mos emas degan fikr bor. Biroq, bu xato. Ba'zida harakatchanlik va epchillik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu, ayniqsa qiyin vaziyatda to'pni egallash kerak bo'lganda, masalan, jang paytida. Bugungi kunda ushbu o'yinning juda ko'p turlari mavjud. Hatto maxsus jismoniy tayyorgarliksiz odamlar uchun moslashtirilgan variant mavjud. Bu faqat regbi o'ynash uchun mushaklar tog'i bo'lish shart emasligini tasdiqlaydi.

Dunyoga tarqalishi

Oddiy futboldan so'ng, regbi dunyoda eng keng tarqalgan ikkinchi jamoaviy o'yin. U 100 dan ortiq mamlakatlarda tarqatiladi. Ba'zi shtatlarda regbi hatto milliy sport turiga aylanadi. Ushbu sport xobbinig Xalqaro Kengashi 1886 yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda uning bosh qarorgohi Dublinda joylashgan. Ushbu tashkilot o'yinlarni o'tkazish bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Doimiy ravishda har xil regbi bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Bugungi kunga qadar eng katta musobaqa jahon chempionati. Shuningdek, janubiy va shimoliy yarimsharda ham chempionatlar o'tkaziladi. Shuningdek, ayollar musobaqalari mavjud. 2016 yilgacha regbi Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilmagan. Bunga sabab o'yin qoidalari o'yinlar o'rtasida bir haftalik tanaffusni talab qilishi edi. 16 kunlik musobaqalarda ushbu qoidaga amal qilishning iloji yo'q.

O'yin

Regbi o'ynash qoidalari yuqorida umumlashtirildi. Keling, ular haqida batafsilroq gaplashaylik. Uchrashuv ikki daqiqadan iborat bo'lib, 40 daqiqa davom etadi. U o'ynash vaqti hisoblanadi. Ularning o'rtasida 5-10 daqiqalik tanaffus olinadi, shundan so'ng jamoalar gollar almashishlari kerak. Agar o'yin natijalariga ko'ra g'olibni aniqlash imkoni bo'lmasa, qo'shimcha vaqt belgilanadi - har biri 10 daqiqadan iborat ikkita yarmi. Maydonda har bir jamoadan 15 kishi o'ynaydi, shulardan 7 nafari himoyachi, 8 nafari hujumchi. O'yinda to'pni ko'rsatadigan jamoa qur'a natijalariga ko'ra aniqlanadi. Uni tepish bilan

tanishtiradi. Jamoalar samarali harakatlarni amalga oshirganliklari uchun ball bilan taqdirlanadilar.



Agar jamoa o'yinchisi to'pni sinov zonasiga kiritib olsa, har bir urinishda 5 ball beriladi. To'pni sinov zonasiga olib kelgan o'yinchi u bilan erga tegishi kerak. Raqibning qo'pol o'yini tufayli muvaffaqiyatsiz yakunlangan penaltilar seriyasida ham ballar beriladi. Amalga oshirish to'pni darvozaga urish deb ataladi. Ikkita novda va o'zaro bog'ich o'rtasida uchishi kerak. Ushbu harakat uchun 2 ball beriladi. Amaliyotni muvaffaqiyatli urinish bilan amalga oshirish mumkin. Jarima to'pi 3 ochkoga teng. Hakamlar sudyasi uni ba'zi qoidalarini buzganligi uchun tayinlashi mumkin. Ish tashlash qoidalar buzilgan joydan amalga oshiriladi. Tashlash maqsadi 3 ball. Ular "o'yin" dan urilgani uchun mukofotlanadi. O'yinchi to'pni maydonga tashlab yuborishi kerak va u erga tegib ketgandan so'ng uni tepib qo'ying. Qo'l otish taqiqlangan deb hisoblanadi. Eng ko'p ochko to'plagan jamoa uchrashuvda g'alaba qozonadi.

Taqiqlangan qoidalar

Regbi nima qilish mumkin emas? O'yin qoidalari to'pning oldinga o'tishiga imkon bermaydi. To'pni raqibning raqib zonasiga yaqinroq bo'lgan o'yinchiga uzatishga olib keladigan ko'p harakatlar taqiqlanadi. Regbi 7da nima qilish mumkin emas? O'yin qoidalari to'pning oldinga o'tishiga imkon bermaydi. To'pni raqibning raqib zonasiga yaqinroq bo'lgan o'yinchiga uzatishga olib keladigan ko'p harakatlar taqiqlanadi.

Shuningdek, qoidalar quyidagilarga ruxsat bermaydi:

- Boshqalarga itarish va hujum qilish uchun to'pdan keyin yuguradigan o'yinchi.
- Ofsayd holatida bo'lgan sportchi to'pni egasi bo'lgan odamga qasddan aralashadi.
- Iskala, saraton, skrum yoki koridordan chiqqandan keyin to'pni qabul qilgan o'yinchi oldingi o'yinchilar oldida o'z yo'lini topishga harakat qiladi.
- Raqibga zarba berish.
- O'yinchilarni orqadan tortib oling yoki oyoqlarini teping, oyoq taxtalarini qo'ying, raqiblarga qarshi turing.
- To'pni tepgan va undan keyin yugurmagan raqib jamoaning sportchilariga to'sqinlik qiling.
- To'pga ega bo'lmagan o'yinchini itaring, ushlab turing, hujum qiling, ushlang va to'sib qo'ying. Istisno bu kurash, iskala yoki saraton kabi holatlardir.

Quyida regbi o'ynashning asosiy qoidalari keltirilgan. Bolalar uchun taqdim etilgan ma'lumotlar juda aniq bo'lmasligi mumkin, shuning uchun bu qanday amalga oshirilishini ko'rish yaxshiroqdir.

To'p

O'yinning eng muhim elementi regbi to'pidir. U cho'zilgan shaklga ega. Odatda uni ishlab chiqarish uchun sintetik materiallar ishlatiladi. Haqiqiy teridan tayyorlangan modellarni ham topishingiz mumkin. Zilzila yuzasi axloqsizlikni qaytaradigan maxsus kompozitsion bilan qoplangan. To'pning uzunligi 280 dan 300 mm gacha, aylana bo'ylama yo'nalishda - 770 mm gacha, ko'ndalang yo'nalishda - 620 mm gacha, vazni - 46 grammgacha.



O'yinchilar kiyimi

Regbi o'ynash uchun sizga quyidagilar kerak bo'ladi:

- shortilar va ko'ylaklar,
- botinkali etiklar
- himoya: tirsak bo'laklari, tizzalar, shin soqchilar, barmoqsiz qo'lqoplar, og'iz soqchilari, dubulg'a, elkama-sumkalar.

Regbi bolalar uchun o'yin qoidalari barcha ro'yxatga olingan jihozlarning mavjudligini ta'minlaydi.



Hakamlık va hakamlar

Uchrashuvdan oldin, hakam odatda ikkala jamoaning birinchi qatori o'yinchilari (ustunlar va ilmoqlar) bilan uchrashuvda o'zaro aloqaga kirishish jarayonini muhokama qilish uchun suhbat olib boradi. Bu o'yinning ushbu hal

qiluvchi bosqichida barcha ishtirokchilarning fikrlarini yo'naltirishga yordam beradi. Shundan keyin hakam o'yinni qaysi jamoa boshlanishini belgilaydigan durang o'ynaydi. Uchrashuvning o'zida hakam vaziyatni baholash va qoidalarga muvofiq qaror qabul qilish uchun yagona hakam hisoblanadi. Barcha o'yinchilar har doim hakam qarorlarini hurmat qilishlari shart.



Yon hakamlar Ikkita hakam, maydonning har ikki tomonida bittadan to'p qachon va qayerdan chiqqanligi, shuningdek hakam belgilagan boshqa masalalarda hakamga yordam beradi. Darvoza zarbasi muvaffaqiyatli bo'lganligini yon hakamlar ham hal qilishadi.



Xulosa Biz shunday qiziqarli va hayajonli o'yinni regbi deb bildik. Qoidalar, asosiy elementlar, uskunalar - bularning barchasi alohida e'tibor talab qiladi. Oddiy qilib aytganda, regbi - oval to'pi bo'lgan jamoaviy o'yin. O'yinchilar uni bir-birlariga qo'llari va oyoqlari bilan uzatadilar. Yuqori oyoq-qo'llarni faqat orqaga o'tkazish mumkin. O'yinning mohiyati gol urish yoki hech bo'lmaganda raqib darvozasi tashqarisida to'pni sinov maydoniga qo'ndirishdir. Har bir samarali harakat uchun sportchilar ochko olishadi. Eng ko'p olgan jamoa g'olib hisoblanadi. Ba'zan maktablarda ular shunday vazifa berishadi - regbi qoidalari haqida ingliz tilida (mavzu) yozish va o'rganish. Bugungi kunda ushbu o'yin juda keng tarqalganligini hisobga olsak, bu ajablanarli emas. Regbi hatto Olimpiya o'yinlarining rasmiy dasturiga kiritilgan, bu dunyo tan olinishini anglatadi. Yuqorida keltirilgan maqola talabalarga mavzuni ochishda yordam berishi mumkin.



Bob yuzasidan nazorat savollari:

- 1 Regbi o'yini nechanchi yili tashkil qilingan?
- 2 Regbi o'yini qaysi davlatda rivojlangan?
- 3 O'zbekistonda Regbi o'yini qachonda ommasha boshlandi?
- 4 Regbi o'yini oyoqlar bilan to'pga tegishi mumkinmi?
- 5 Regbi o'yini maydonining o'lchami qanday?

6 Regbi o'yini to'pining og'irligi, o'yin vaqti haqida ma'lumot berin.

Foydalanilgan elektron manzillar

- 1 www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
4. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
5. <http://ziyonet.uz> — Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal
- 6 <http://mlb.mlb.com/>
- 7 <http://www.cbbs.com.br/>
- 8 O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

XII-BOB. Stol tennisi

Stol tennisi — kichik koptok va raketkalar bilan stolda o'ynaladigan sport o'yini. Sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan. 20-asrning 20-yillaridan ko'p mamlakatlarga tarqalgan. Dastlab «ping-pong» (frantsuzcha pingpong - koptokning raketka va stolga urilishida chiqadigan ovoz) deb atalgan.

STOL TENNIS TARIXI

Stol tennisi tarixi haqida juda qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ba'zi mutaxassislar stol tennisi Osiyo, ya'ni Yaponiya va Xitoyda paydo bo'lgan, deb hisoblashadi. Sport tarixchilari, shu jumladan yapon va xitoy sporti tarixchilarining fikricha, bu yanglish fikr. Hozirgi kunda hech bir mutaxassis birinchi bo'lib kim, qachon va qaerda stol tennisini o'ynay boshlaganini aytolmaydi. Ko'pchilik mutaxassislar stol tennisi Angliyada, Qirol tennisining bir turi sifatida paydo bo'lgan, deb hisoblaydi. Stol tennisining paydo bo'lishi XIX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi.

Avvaliga o'yin ochiq havoda o'tkazilgan, keyinchalik xona ichida o'ynash rusm bo'lgan. So'ng bir-biriga yaqin joylashgan ikki stolda o'ynash, yanada keyinroq esa ikki stolni birlashtirib, o'rtasiga to'r tortilgan holda o'ynash odat tusiga kirgan.

1901 yilda stol tennisiga “ping-pong” nomining berilishi koptokning raketkaga urilgandagi tovushi “ping” va stolga urilib, sakrab ketgandagi tovushi “pong”dan olingan. Jihozlarning soddaligi, asosiysi, katta joy talab qilmasligi stol tennisining tez orada mashhur bo‘lib ketishiga sabab bo‘ldi. Buning natijasida xalqaro tashkilot tuzish va o‘yin qoidalari ishlab chiqishga zarurat tug‘ildi. 1926 yil yanvarda Berlinda stol tennisini xalqaro federatsiyasi – ITTF tashkil qilindi.

Stol tennisini bo‘yicha birinchi jahon chempionati 1927 yil dekabrda bo‘lib o‘tgan. Unda ayollar va erkaklar yakka holda, juftliklarda – ham erkak, ham ayollar aralash holda ishtirok etishgan.

1928 yildan boshlab musobaqalarda ayollar juftliklari ham ishtirok etishgan. SHundan beri jahon birinchiligi 1940-1946 yillardan tashqari har yili o‘tkazib kelinadi.

1957 yildan jahon birinchiligi har ikki yilda o‘tkaziladigan bo‘ldi. Undan keyingi yilda Evropa birinchiligini, shuningdek, Osiyo va Afrika mintaqaviy chempionatlarini o‘tkazish boshlandi.

1936 yilda stol tennisini xalqaro federatsiyasi – ITTF ping-pong nomini stol tennisini nomi bilan almashtirdi.

O‘zbekistonda Stol tennisini keng ommalashgan. O‘zbekiston chempionati va kubogi musobaqalari muntazam o‘tkazib turiladi. O‘zbekiston Stol tennisini federatsiyasi 1993 yil ITTFga a‘zo bo‘lib kirgan.

Hozirgi kunda 40 milliondan ortiq o‘yinchini har yili butun dunyo bo‘ylab turli rasmiy turnirlarda ishtirok etishadi.

Stol tennisida o‘yin qoidalari

O‘yin mazmuni stolga ko‘ndalang tortilgan to‘rt ustidan koptokni raketka bilan ikki tomondan irg‘itishdan iboratdir. O‘yinda ikki yoki to‘rt kishi ishtirok etishi mumkin. Bir tennis stoli uchun zarur bo‘ladigan xona maydoni – 7,7 x 4,5m. O‘yin uchun stol, to‘rt, raketka va koptok zarur bo‘ladi.

O‘yin qur‘a orqali birinchi bo‘lib boshlash huquqiga ega bo‘lgan o‘yinchining koptok uzatishidan boshlanadi. Raketka bilan uzatilgandan

so'ng, koptok boshlovchi tomonida stolga urilib, to'rga tegmasdan sakrab o'tishi va ikkinchi tomonda stolga urilishi lozim. Koptok uzatish vaqtida o'yinchi uning raketkasi va koptok stolning orqa chizig'i tashqarisida turishi kerak. Agar koptok stol ustida urib qaytarilsa, o'yin qoidasi buzilgan hisoblanadi (2002 yil 1 sentyabrdan koptok uzatish reglamenti yangi qoidalarga binoan belgilangan). Agar koptok boshlovchi tomonida stolga urilib, to'rga tegib sakrab o'tsa va ikkinchi tomonda stolga urilsa, koptok uzatish yangitdan bajariladi va ochko hisoblanmaydi. Qaytadan uzatishlar soni cheklanmagan. Koptok ikkinchi tomonda stolga urilgandan so'ng, ikkinchi o'yinchi uni raketka bilan urib orqaga qaytaradi. O'yin shu tarzda o'yinchilardan biri xatoga yo'l qo'ymaguncha davom etadi. Har bir xato raqibga bir ochko beradi. O'yinchi quyidagi hollarda ochkoga ega bo'ladi:



- agar raqibi koptokni noto'g'ri uzatsa;
- agar raqibi koptokni stolga tegmasidan qaytarsa;
- agar raqibi koptokni stoldan tashqariga urib yuborsa;
- agar raqibi to'g'ri uzatilgan koptokni qabul qila olmasa;
- agar raqibi koptokka raketka bilan bir martadan ortiq ursa yoki koptokni raketka bilan tutib olsa va qaytarib uzatsa;


- agar raqibi koptokka tana a'zosi bilan tegib ketsa yoki to'r, stol tirgagiga tegsa. Har ikki ochkodan so'ng (2001 yil 1 sentyabrdan - har besh ochkodan so'ng) koptok uzatish qabul qiluvchiga o'tadi.

O'yinchilardan biri 11 ochko (2001 yil 1 sentyabrgacha – 21 ochko) to'plagandan so'ng kamida 2 ochko tafovut bilan partiya yutilgan hisoblanadi. 10:10 hisobda (2001 yil 1 sentyabrgacha - 20:20 hisobda) koptok uzatishlar har ochkodan keyin almashiladi. Har partiyadan keyin o'yinchilar tomonlarni va koptok uzatish navbatini almashtirishadi. O'yin 5 yoki 7 partiyadan iborat bo'ladi (2001 yil 1 sentyabrgacha – partiyalar soni 3 yoki 5 ta bo'lgan).




Raketkalar

Barcha raketkalar uchta asosiy xususiyatga ega - aylanish, tezlik va boshqarish, ular ballar bilan baholanadi. Raketka taglik va prokladkalardan iborat. Plastinkasiz retseptorning og'irligi 75-110 g, prokladkalar bilan - 150-200 g. Raketka pichog'ining balandligi va kengligi odatda 15-18 sm gacha o'zgaradi. Pichoqning shakli odatda aylana kabi ko'rinadi, ammo poydevor skripka shaklida ixtiro qilingan. .



Setka

Stol tennisi setkasi: aniq 183 X 15,25 sm (yoki 1830 X 152,5 mm) bo'lishi kerak.



Koptok(shar)

Koptok oq yoki to'q sariq rangdagi plastikadan yasaladi, diametri 37,2—38,2 mm, og'irligi 2,4 - 2,53 gr bo'ladi.



Hakam

Hakam musobaqalarning (o'yinlarning) uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi, o'yin davomida qaror qabul qiladi va har bir ochkodan keyin barchani o'yin natijasi to'g'risida baland ovoz bilan xabardor qiladi. U bekor qilinmaydigan haqiqiy qarorlarni qabul qiladi. Biroq, uning tarafidagi qoidalarining noto'g'ri talqini o'yinchi yoki jamoa sardorining noroziligi natijasida bosh hakam tomonidan o'zgartirilishi mumkin. Agar o'yinga chiziqli hakamlar yoki hakamlar tayinlangan bo'lsa, ular faqat ochkolarni hisoblashadi, keyin ular asosiy hakamga qo'shimcha ravishda qaror qabul qilishlari mumkin.

Musobaqaning hakamlar hay'ati musobaqani o'tkazuvchi tashkilot tomonidan stol tennisi hakamlari kengashining tegishli Rayosati bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

Sudyalar hay'ati tarkibiga quyidagilar kiradi: bosh sudya, bosh sudyalarning o'rinbosarlari, bosh kotib, katta sudyalar, etakchi sudyalar, hisoblovchi sudyalar, sudyalar tarkibi va taqdim etiladigan sudyalar (yon sudyalar), kotibalar, sudyani xabardor qilish, sudyalar va ishtirokchilar bosh sudyaning o'rinbosarining huquqlari. Musobaqa bosh komissari ixtiyorida.



Shahar miqyosidagi va undan yuqori darajadagi musobaqalarda 3 tadan 5 tagacha bo'lgan hakamlar hay'ati tuziladi.

Jismoniy tarbiya bo'yicha jamoalar musobaqalari bosh hakam va etakchi sudyalardan iborat hakamlar hay'ati tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Respublika miqyosidagi musobaqalarda barcha hakamlardan yagona forma: kulrang yoki quyuq shim yoki yubka, qora kozok yoki qora ko'ylagi yoki hakamning ko'krak nishoni qo'yilgan qora ko'ylak kiyish talab etiladi.



Bob yuzasidan nazorat savollari:

- 1 Stol tennisi hozirgi shaklini nechanchi yillarda o'ylab topilgan?
- 2 Stol tennisi qaysi davlatlarda birinchi rivojlangan?
- 3 O'zbekistonda Stol tennisi nechanchi yillarda o'ynala boshlangan?
- 4 Respublikada Stol tennisiga ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar sport maktabi bormi?
- 5 O'yinchi qo'llari yoki oyoqlari bilan to'pga(sharikka) tegishi mumkinmi?
- 6 Stol tennisi stolining o'lchami qanday?
- 7 Stol tennisi raketkasining o'lchami, to'pining(sharik) og'irligi, o'yin vaqti haqida ma'lumot berin.

Asosiy adabiyotlar

1. Usmonxujaev T.S., Arzumanov S.G., Kodirov B.A. Jismoniy tarbiya (kasb - hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma). T.: «o'qituvchi» 2003208 b.
2. Po'latov A.A., PoTatov Sh.A. Tennis. Umumiy kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma. T., 2008. - 89 b.
3. Po'latov Sh.A. Tennisga o'rgatishning ananaviy va noan'anaviy texnologiyasi. o'quv qo'llanma. T.,2007. - 47 b.
4. Yadgarov B., Yadgarov D. Stol tennis turlarini o'rgatish nazariyasi va uslubiyoti. // o'quv-uslubiy qo'llanma. Urganch 2018 108 b.

XIII-BOB TENNIS

Tennisni paydo bo'lishi va uni shakllanish bosqichlari

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, agar tennisni 1555 yilda italiyalik Antonio Skayno tomonidan ixtiro qilinganiga asoslanilsa, unda ushbu o'yin 462 yoshda, bordiyu uni 1873 yilda Britaniyalik Uolter Klonton Uingfild "yordamida" tug'ilganligi e'tiborga olinsa, unda tennis 144 yildan beri "yashab" kelmoqda deb aytish mumkin.

Har xolda bu jozibador o'yin uzoq o'tmishdan beri yer sharining turli mintaqalarida millionlab kishilarning eng sevimli sport turi sifatida shakllanib kelmoqda. Lekin, uni ilk bor «ibtidoiy» ko'rinishda vujudga kelishi va rivojlanish "ildizi" yanada uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Mazkur o'yin aslida tennis nomi bilan tanilmagan bo'lsada, qadimiy Rim va Yunonistonda kichik koptok bilan o'ynash ko'plab nafaqat oddiy insonlar o'rtasida katta qiziqish uyg'otib kelgan, balki qator shoir, faylasuf, olimlar (Ovidiy, Seneka, Gorasiy va h.) diqqatini o'ziga jalb qilgan XIII-XVI asrlarda Ovro'pada hozirgi qo'l to'pini eslatuvchi kichik koptok o'yini shakllana boradi. Ammo aksariyat tarixiy ma'lumotlar tennis o'yinining Farangistonda vujudga kelganiga e'tibor qaratadi.

Aslida, shu bugungi kungacha zamonaviy tennisning ixtirochisi kim ekanligi uzil-kesil o'z javobini topmagan. Har holda aksariyat tarixiy xujjatlarda tennisni Vatani yagona, qilib ko'rsatilmagan. Nega bu o'yin, juda ko'p turli mamlakatlarda va madaniyat sohalarda juda ko'p odamlar uchun shu qadar ko'p huzur-halovat beradi? Ko'pchilik shuning uchun uning go'zalligi hech shubhasiz, Tennis (yoki juda unga o'xshash narsa), uzoq vaqt atrofida bo'ldi.

Themistocles Rim devor rasmlarida, o'yin ajoyib o'ynab turgan sportchiga yaqin narsa tasvirlangan va so'z "tennis" so'zini 1399 yillarnng Ingliz tili asarlarida kuzatilishi mumkin (Jon Gower: "Tinchlik sharaflab"). Tennis o'yinini "ixtiro" qilgan kim ekan savol ko'pchilikni qiziqtirib kelgan.



Ko'pchilik tarixchilarning fikriga ko'ra zamonaviy tennisning otasi Britaniya otlik qo'shini mayori Uolter Klonton Uingfild (1833-1912). Aynan Uolter Klonton tomonidan 1874 yilning oxirlarida mazkur o'yinning qoidalari chop etilgan. Bu qoidalarni ishlab chiqishda Uolter ochiq maydonda o'ynaydigan kort tennisga asoslangan bo'lsada, o'yin qoidalari chim maydonda o'ynaydigan tennisga mo'ljallangan edi.

1874 yilda Uingfild o'zining "sferistika" deb nomlangan tennis o'yinini ixtiro qilgani uchun rasmiy patent olishga muvassar bo'ldi. Keyinchalik bu o'yin

Angliyada "laun – tennis" sifatida jadal taraqqiy eta boshladi va bugungi juda ommalashgan sport turlari qatoriga kiradi. Ta'kidlash joizki, aynan Uingfild birinchi bo'lib tennis uskuna va anjomlarini (to'r, koptok, raketka) ishlab chiqarilishiga asos solgan.

Qadimda tennis turlicha nom va mazmunda shakllanib kelgan. Bu holat tennisni qayerda, qaysi yurtda va qanday ko'rinishda vujudga kelganiga bog'liq deb faraz qilish mumkin. Masalan, bu o'yin Farangistonda "kort – tennis" (qumtuproq – tennis) nomi bilan tanilgan. Farangiston kort –tennisi ochiq va yopiq maydonlarda tashkil qilinib, ochiq maydonda o'ynaydigan tennis "uzun tennis" yopiq kortda o'ynaydigani "qisqa tennis" deb atalgan. Avvaliga kort – tennisni qo'l bilan o'ynashgan, keyinchalik raketkasimon moslamalar qo'llana boshlagan.

Tennis raketkasi haqidagi ilk bor tushunchani italiyalik Antonio Skayno

1555 y. o'zining "Koptok o'yini tafsifi" deb nomlangan risolasida qayd etgan. Skaynoning yozishiga hatto uning davrida ham tennis o'yinida hisobni olib borilishi 15 raqamidan boshlanib, ikkinchi ochko yutug'idan so'ng 30, uchinchi yutuq– 45 deb belgilangan ekan. Keyinchalik, uchinchi yutuqqa berilgan 45, 40 raqamiga o'zgartirilgan. Nima uchun aynan yutuqlarga beriladigan ochkolar 15,30,40 raqamlari bilan ifodalanishi haqidagi ma'lumotlarni Skayno ham o'z kuzatuvlarida uchratmagan ekan.

Tennisni yanada shakllana borishida 19 asrning 50-60 yillarida Angliyada keng ommalashgan badminton va qo'l to'pi o'yinlari turtki bo'lgan deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Tarixiy xujjatlarda qayd etilishiga 19 asrning 60 yillarida inglizlar. T. Gemm va A.Pereralarni chim maydoncha ustida "laun – tennis" o'ynayotganlarini kuzatishgan (laun-chim).

Zamonaviy tennis musobaqalari nafaqat ulkan ko'ngil ochar tadbir bo'lib hisoblanadi, balki millionlab insonlar diqqatini o'ziga rom qiluvchi betakror tamosha sifatida ham barchaning ko'nglidan joy olib bormoqda. Tele va radiokompaniyalar, jurnalist va reportyorlar esa ertayu-kech mazkur tadbirlar hizmatida.

Tennisni O'zbekistonda vujudga kelishi va rivojlanishi

O'zbekiston tennisni shakllanishida va mahoratli tennischilarni tayyorlashda 50 yillarda faoliyat ko'rsatgan A.Ye.Plotnikov, A.V.Kaplan, Ye.Ye.Kozlov, M.F.Yachmeneva kabi murabbiylar alohida o'rin egallaydi. So'ngra G.Sh.Dashevskiy, V.N.Kamelzon, V.A.Pushkaryov, S.K.Abidov, I.G.Limakina, N.I.Prokofyeva, A.G.Yelxinlar yuqori malakali tennischilarni yetishtirishda sezilarli hizmat ko'rsatdilar.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida tennis bo'yicha mutaxassislar tayyorlash 1959 yildan boshlangan. Hozirgi kungacha 500 ortiq mutaxassislar tayyorlangan.

Ko'pgina tennischilarimiz uzoq yillar davomida halqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishib kelganlar. Shulardan Ye.Larina, A.Kolyaskin, A.Podolskiy, V.Kaplan, V.Bezverxov, N.Prokofyeva, I.Limakina,

G.Sorokotyaga, V.Ovchinnikov, R.Almakayeva, V.Bogatyrrov, O.Ogorodov, D.Tomashevich, N.Stepanova, T.Ganiyev, D.Mazur va I.To'laganovlar o'zbek tennisini yuksak cho'qqilar sari yetaklab kelgan bo'lsalar, M.Inoyatov, F.Dustov, A.Amanmuradova, va D.Istominlar bugungi kunda ham xorijiy tennis ustalarini lol qoldirmoqdalar.

Bu borada ayniqsa Denis Istominning yuksak natijalari tahsinga sazovordir. Aynan shu tennischimiz 2010 yil davomida o'tkazilgan halqaro musobaqalar yakuniga ko'ra "Eng zo'r zarba" muallifi degan sharaflı nomni olishga muassar bo'ldi.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach barcha sport turlari kabi "katta" tennisga ham alohida Davlat e'tibori qaratildi. O'zbek tennischilari nafaqat son jihatidan, balki sifat borasida ham cho'qqi sari shahdam qadam tashlay boshladi.

Mamalakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning jismoniy tarbiya va sport sihat-salomatlikni ta'minlashda, jismoniy va intellektual jixatlaridan barkamol avlodni tarbiyalashda eng kafolatli vosita ekanligini chuqur tushunganligi hamda uni mazkur sport turi bilan muntazam shug'ullanib turishi tennisni misli ko'rilmagan pog'onalarga ko'tardi. Nafaqat yurtimiz poytaxti Toshkentda, balki viloyat shaharlari, tumanlari hatto uzoq qishloq xududlarida ham zamonaviy sport inshootlari barpo etildi. So'ngi yillarda jahon standartlariga mos tennis sport saroylarida eng nufuzli bo'lgan "Satellit" "Chelenjer", "Toshkent - Open", "Prezident Kubogi" yoshlar va kattalar o'rtasida Osiyo musobaqalari, "Devis Kubogi" saralash turnirlari va boshqa ko'pdan musobaqalarning o'tkazilib turilishi ushbu sport turining Davlat siyosati nazarida ekanligidan dalolat beradi.



1992 yilda O'zbekiston tennis federasiyasining Xalqaro Tennis Federasiyasi (ITF) tarkibiga to'laqonli a'zo bo'lib qabul qilinishi va shu yili Dominikan Respublikasida o'tkazilgan butun jahon tennis Kongressida O'zbekiston bilan bir qatorda Rossiya va Ukraina davlatlarining ITF tarkibiga kiritilishi yurtimiz tennisini mustahkam poydevorga ega ekanligini isbotladi. Yana ikki yildan so'ng mamlakatimizga ITFning xalqaro tennisni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Devid Meyli tashrif buyurib, u Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarimizdagi tennis inshootlarini ko'zdan kechirdi hamda tennis uchun yaratilgan shart-sharoitlarga yuksak baho berdi. 1993 yilda ITF Respublikamizda tennisni yanada rivojlantirish uchun, uni xalqaro miqiyosdagi mavqeyini oshirish maqsadida O'zbekiston tennis federasiyasi ixtiyoriga katta miqdorida xomiylik mablag'larini xad'ya etdi.

Umuman 1993 yil o'zbek tennisini uchun keskin burilish yili bo'lib qoldi. O'zbekiston tennis federasiyasi ITF ning tenghuquqli a'zosi bo'ldi. Tennis olamida xomiy sifatida keng tanilgan shvesariyalik yirik tadbirkor, "GTR-LTD" firmasining rahbari Sasson Kakshuri bilan o'zbek tennisini rivojlantirish borasida shartnoma tuzildi. O'zbek tennischilarining halqaro maydonga chiqishi, yurtimizda yirik, nufuzli musobaqalarni muntazam o'tkazilib kelishi aynan shu tadbirkor nomi bilan bog'liqdir. Uning tashabbusi bilan O.Ogorodov, D.Tomashevich, T. Ganiyev va boshqa qator iste'dotli tennischilarimiz jahoning eng kuchli tennischilari bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ishtirok eta boshladilar va yuqori reytingli tennis musobaqalariga jalb qilindilar.

O'zbekistonlik raketka ustalari "Devis Kubogi", "Chelenjer", "Toshkent - Open", Prezident Kubogi" va boshqa halqaro musobaqalarda jahon tennischilari bilan bir qatorda bellashish imkoniyatiga miyassar bo'ldilar. Avstraliya, Chexiya, Katar, Ispaniya va boshqa davlatlarda o'tkazilgan musobaqalarda yurtdoshlarimiz alohida o'rnak ko'rsatdilar "Devis Kubogi"ning final bosqichi sari bo'lib o'tgan musobakalarda (1994-2001 y.y.) terma jamoamiz Hitoy, J.Koreya, Yaponiya, Tailand, Pokiston, Indoneziya kabi davlatlarning yetakchi tennischilari bilan tengma-teng bahs yuritdilar va ko'pchiliklarni dog'da qoldirgan edilar.

Yurtboshimizning shaxsiy tashabbusi tufayli tennis rivojlantirishga doimo davlat e'tibori qaratilib keldi.

Jumladan, 1997 yil 25 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida tennisni rivojlantirishini qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tuzish to'g'risida", 1998 yil 11 sentbrdagi "O'zbekiston Respublikasida tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2008 yil 27 apreldagi "Respublika olimpiya zahiralari tennis maktabini tashkil qilish to'g'risida" qabul qilingan qarorlar o'zbek tennisining nafaqat huquqiy – me'yoriy, moddiy – texnik poydevorini yaratishga imkon berdi, balki butun Respublika xududlari bo'ylab yosh tennischilarni tayyorlashga asos bo'ldi.


Quyidagi tarixiy ma'lumotlar e'tiborga loyiqdir.

1985 yilda Respublikamizning barcha viloyatlarida 22 ta tennis korti faoliyat ko'rsatib kelgan bo'lsa, poytaxtimiz Toshkentda 71 kort stadioni hizmatda bo'lgan. Aynan mustaqillik tufayli yurtimizning hatto eng uzoq qishloqlarida ham zamonaviy tennis saroylari barpo etila boshladi.

Agar 1991 yilgacha mamlakatimiz bo'ylab 184 ta tennis maydonlari ro'yxatidan joy olgan bo'lsa, bugungi kunga kelib jahon standartlariga mos tennis majmualari soni 600 tadan ortib ketdi. Eng quvonarli joyi shundaki, mazkur tennis kortlarida yuqorida qayd etilgan eng nufuzli halqaro musobaqalar uzluksiz o'tkazilib turibdi, bo'sh vaqtlarda esa ushbu kortlarda eng yosh bolalardan boshlab, eng keksa faxriylarimiz ertayu-kech o'z salomatliklarini "charhlaydilar", sport mahoratlarini shakllantirib boradilar.

MUSOBAQA QOIDASI VA HAKAMLIK USLUBIYATI


Zamonaviy tennis bo'yicha musobaqalar o'tkaziladigan maydonchalar yuzasi turli tarkibdan iborat bo'lib, ularning sifati va o'lchamlari xalqaro musobaqa qoidalari bilan belgilanadi. Maydon o'ziga xos turli chiziqlar bilan chegaralanadi va tevarak atrofni to'p tashqariga chiqib ketmasligi uchun maxsus to'r bilan devor shaklida o'ralgan bo'ladi. Yakka o'yin uchun maydon uzunligi 23,77 m kengligi 8,23 m li to'g'ri to'rt burchak shakliga ega bo'ladi.



Raketka tanlash

Raketka – bir butun bo'lgan dasta, to'g'ri va ko'ndalang yo'nalishida torlar bilan tarang tortilgan gardishdan iborat bo'ladi. Rasmiy o'yinlar uchun ishlab qo'llaniladigan raketkalarining umumiy uzunligi 73,66 sm, gardishning kengligi 27-29 sm bo'lishi lozim.

Turli yoshdagi bolalar uchun mashg'ulotlarda va norasmiy o'yinlarda turli og'irlikdagi hamda turli o'lchamdagi raketkalar qo'llanilishi mumkin. Masalan, 10-12 yoshli bolalar 11-11,5 unsiyali, 13-15 yoshli bolalar 12 unsiyali, o'smir va yigitlar 12-13,5 unsiyali raketkalardan foydalanishlariga ruxsat etiladi. Ammo, bolalar o'rtasida o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarda raketkaning tipi musobaqa nizomida qayd etilishi tavsiya etiladi.



Tennis koptogi

(to'pi) oq yoki sariq rangdagi, tekis yumaloq yuzali matodan iborat bo'lishi lozim. Og'irligi 56,7-58,5 grammga teng bo'lishi kerak (1 unsiya 29,8 grammga teng).




Soddalashtirilgan o'yin qoidalar

Tennis bo'yicha musobaqalar o'tkaziladigan maydonchalar yuzasi turli tarkibdan iborat bo'lib, ularning sifati va o'lchamlari xalqaro musobaqa qoidalar bilan belgilanadi. Maydon o'ziga xos turli chiziqlar bilan chegaralanadi va tevarak atrofni to'p tashqariga chiqib ketmasligi uchun maxsus to'r bilan devor shaklida o'ralgan bo'ladi.


Yakka o'yin uchun maydon uzunligi 23,77 m kengligi 8,23 m li to'g'ri to'rt burchak shakliga ega bo'ladi.

Maydonni chegaralovchi bo'ylama chiziqlar yon chiziq deb ataladi, ko'ndalang chiziqlar esa orqa chiziq deb ataladi. Maydonning ko'ndalang tomon markazidan 6,4 metr nari masofada va unga parallel ravishda uzatish chiziqlari joylashadi. Har bir orqa chiziqning o'rtasi uzunligi 10 sm va eni 5 sm li o'rta belgi deb ataluvchi kesma bilan belgilab qo'yiladi. Bu kesma maydon ichkarisiga yo'naltirilgan. Juft o'yin uchun maydonning kengligi 10,97 m bo'lib, qolgan o'lchamlari yakka o'yin uchun maydon o'lchamlariga mos keladi. Shu sababli ko'p hollarda juftlik o'yin maydonchasidan yakka o'yin uchun ham foydalaniladi. Barcha belgilash chiziqlarining kengligi-5 sm, chiziqlarning kengligi o'zlari chegaralagan maydonning o'lchamiga kiradi. Maydon tashqarisidagi erkin joy «yugurish sathi» deb ataladi. O'lchamlari orqa chiziqlardan – kamida 6,4 m, yon chiziqlardan kamida 3,7 m. Maydonchalar ochiq havoda va binolarda qurilishi mumkin. Maydon va yugurish sathining qoplamalari tarkibiga ko'ra bir turda bo'lishi shart.



To'ring maydon o'rtasidagi balandligi 0,914 m, ustunlar oldidagi balandligi esa 1,07 m bo'ladi. Agar juftlik o'yin maydonida yakka o'yin o'tkazilsa, to'rni 1,07 m balandlikda tutib turish uchun, yakka o'yin uchun ustunlar turishi kerak bo'lgan joylarga maxsus tirgaklar qo'yiladi. Har bir tirgakning o'rtasi yakka o'yin yon chizig'idan 0,91 m masofada joylashishi kerak. Maydonchaga o'rnatilgan tirgaklar joylashadigan yer diametri 7,5 sm li belgilar bilan qo'yiladi.⁸To'ring maydon o'rtasidagi balandligi 0,914 m, ustunlar

oldidagi balandligi esa 1,07 m bo'ladi. Agar juftlik o'yin maydonida yakka o'yin o'tkazilsa, to'rni 1,07 m balandlikda tutib turish uchun, yakka o'yin uchun ustunlar turishi kerak bo'lgan joylarga maxsus tirgaklar qo'yiladi. Har bir tirgakning o'rtasi yakka o'yin yon chizig'idan 0,91 m masofada joylashishi kerak. Maydonchaga o'rnatilgan tirgaklar joylashadigan yer diametri 7,5 sm li belgilar bilan qo'yiladi.



O'yining boshlanishi, to'p kiritish va hisobni olib borilishi O'yinning oshlanishi. Ochko uchun o'yin boshlash deb raqibni xato qilishga majbur etish maqsadidagi navbat bilan zarb urishga aytiladi. Ochko uchun o'yin boshlash uzatish vaqtidan boshlanadi. Uzatuvchi har ikki oyog'i bilan yugurish sathidagi uzatish joyida, maydonning orqa chizig'ida turadi. To'pni o'yinga kiritish uchun uzatuvchi ikki urinishdan, ya'ni birinchi va ikkinchi urinishdan foydalanishi mumkin.

Agar birinchi uzatishda xatoga yo'l qo'yilsa, shu zahoti ikkinchisi amalga oshiriladi. Koptokni qaysi tomonga tashlashdan qati nazar uzatuvchi uni maydonga tushishidan oldin urishi kerak. Bir qo'lga ega bo'lgan o'yinchi to'pni raketka bilan tashlab berishi mumkin. Uzatishni bajarish vaqtida uzatuvchi uzatish yo'nalishida tayanch oyog'i bilan qadam tashlashga va orqa chiziqni bosishga haqli emas (orqaga qadam).

To'p kiritish quyidagi hollarda noto'g'ri hisoblanadi:

- a) o'yinchi to'p kiritish vaqtida orqa chiziqqa qadam bossa (orqaga qadam);
- b) to'pni ura olmasa;

- v) kiritilgan to'p tirgak va ustun orasidagi to'rga tegsa;
- g) tirgakka tegsa (yakka o'yinda) yoki juft o'yinda to'singa tegsa;
- d) sherikka (juft o'yinda), kiyimga yoki raketkaga tegib ketsa;
- e) har qanday shaxsga tegsa (yakka o'yindagi qabul qiluvchidan tashqari), shuningdek, juft o'yinda qabul qiluvchiga yoki uning sherigiga tegsa, yoki o'yin maydoni tashqarisidagi buyumlarga tegsa.

To'p kiritish qayta o'ynaladi:

- a) to'p kirituvchi to'pni tashlaydi, lekin zarb urmaydi, to'pning maydonga tushishiga yo'l qo'yadi yoki uni ushlab oladi;
- b) uzatuvchi beixtiyor bir martadan ortiq to'p tashlaydi;
- v) to'p kirituvchi har qanday joyda – yakka o'yinda tirgaklar orasida yoki juft o'yinda to'sinlar orasida to'rnining yuqori chetiga tegib, raqib tomonga uchib o'tadi va uzatish maydonchasiga tushadi;
- g) qabul qiluvchi to'pni qabul qilishga tayyor bo'lmasa yoki kiritilgan to'pni qabul qilishga nimadir halaqit bersa.

